

ADABIYOT

# XRESTOMATIYASI

A.S.Pushkin  
**YEVGENIY  
ONEGIN**



43 jild

# ADABIYOT

---

---

# XRESTOMATIYASI

A.S.Pushkin

## YEVGENIY ONEGIN

*She'riy roman*



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2018

UO'K 821.161.1  
KBK 84(2Ros=Rus)1  
P96

R u s t i l i d a n  
Oybek tarjimasi

Pushkin

Yevgeniy Onegin: she'riy roman. J. 43 / Pushkin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 216 b. – (Adabiyot xrestomatiyasi).

Rus shoiri Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she'riy romani Oybek tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan ushbu asar ma'naviyatingiz boyitadi degan umiddamiz.

UO'K 821.161.1  
KBK 84(2Ros=Rus)1

ISBN 978-9943-5211-4-8

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,  
2018

Petri de vanite il avait encore plus de cette espece d'orgueil qui fait avouer avec la meme idifference les bonnes comme les mauvaeises actions, suite d'un sentiment de superiorite, peutêtre imaginaire.

*Tire d'une lettre particuliere'*

Niyatim: kiborlar ermagi emas,  
Qadrlab do'stlikning iltifotini,  
Istadim bag'ishlay mehringga evaz –  
Munosib kuylarning mukofotini,  
Toki go'zal ruhga bo'lsin u manzur,  
Muqaddas xayollar bilan lim to'lg'un  
Tirik she'riyatki, toza va sernur;  
Unga yuksak o'ylar, soddalik – mazmun;  
Xo'b endi, orzumand qo'ling cho'z jasur,  
Qabul et rang-barang boblar hammasin,  
Bu kulgi va qayg'u aralash, go'zal  
Ham o'zi xalqqa mos, ham soz, mukammal  
Hangamalarimning kamtar mevasin;  
Uyqusiz kechalar, yengil ilhomlar,  
Dumbul, so'lg'un yillar ijodini, ham  
Yurakning dardini qabul et bu dam<sup>2</sup>.



## BIRINCHI BOB

Ham yashashga oshiqadi, ham his etishga shoshadi.

*K. Vyazemskiy<sup>3</sup>*

### I

«Taqvodor, qoidaparast amakim  
Bo'larkan kasalga chinakam duchor,  
O'zin izzatlashni u ko'rdi lozim,  
Bundan soz tadbirni topmoqqa nochor.  
Uning bu qilig'i boshqaga ibrat:  
Lekin, parvardigor, bu qanday zahmat  
Bemor kishi bilan kunduz ham, tun ham  
O'ltirish, siljimay undan bir qadam!  
Shu qadar tubanlik, makkorlikki bu:  
O'limtik kishini sen ovuntirsang,  
To'shak-yostig'ini tuzatib tursang,  
Dori-darmon bersang bosib g'am-qayg'u,  
Va yana xo'rsinib o'ylasang shu on:  
Qachon sening joning qabz etar shayton!»

### II

Shunday o'ylar edi yop-yosh shumtaka  
Pochtovoyda changda oshib dala, qir.  
Zevsning<sup>4</sup> ilohiy irodasi-la,  
Butun aqraboga u voris hozir.—  
Lyudmila, Ruslanning<sup>5</sup> do'st-u yoroni!  
Menim romanimning shu qahramoni

Bilan hozir sizni, muqaddimasiz,  
Tanishtirish uchun ruxsat etingiz:  
Tanti bir oshnam bo'lgan Onegin,  
Neva bo'ylarida tug'ilgan edi.  
Siz ham u yerlarda, o'quvchim, balki,  
Tug'ilgan yo jilva qilgansiz yorqin;  
U yerlarda men ham kezgandim burun:  
Lekin zararlidir shimol men uchun (1)<sup>6\*</sup>.

### III

Xizmatin bajarib a'lo va sofdil,  
Yashadi otasi qarzi-qurz bilan,  
Uch daf'a bal<sup>7</sup> berdi tark etmay har yil,  
Oxir ajragandi bor-u yo'g'idan.  
Taqdir Oneginni saqlagan emish:  
Avval uni *Madame*<sup>8</sup> qildi parvarish,  
*Monsieur*<sup>9</sup> oldi uning o'rnini keyin.  
Go'dak sho'x, tiyrakdi, suyumli lekin.  
*Monsiuer* bir yupun, fransuz edi,  
Hech azob chekmasin deya yosh bola,  
Hazil-huzl qo'shdi darsiga ancha,  
Axloq-odob ila ko'p qiynamadi,  
Sho'xlik qilsa agar yengil tergardi,  
Tomosha-chun Yozgi boqqa eltardi.

### IV

Kelgach Oneginning isyonchi, qizg'in  
Yigitchalik davri va tilak-armon,  
Nozik dard chekishlar davri, kamtarin  
*Monsieur* ni quvdilar bu xonadondan.  
Endi Oneginim ozoddir mana;  
Sochlari qirqilgan so'nggi modada;

---

\* Qavs ichidagi raqamlar – Pushkin izohlari.

London *dandy*<sup>10</sup> siday kiyingan g'oyat; (2)  
Kiborlar olamin ko'rdi, nihoyat.  
Fransuz tilida u g'oyat tuzuk  
So'zlar va yozardi fikrini ravon;  
Mazurka<sup>11</sup> raqsiga tushardi oson,  
Salom va ta'zimlar erkin ham nozik:  
Ortiq nima kerak? Yuksak doira  
Tan berdi, u ongli va dilbar, deya.

## V

O'qidik oz-ozdan hammamiz bir qur,  
Juda yengil-yelpi va chala-chulpa,  
Tarbiya bobida, Tangriga shukur,  
Maqtanishlik bizda qulaydir juda.  
Onegin ko'plarning (shartta hal qilgan,  
Qat'iyatchi sudlar) fikricha chindan  
Epchil bir olimdir va lekin pedant,<sup>12</sup>  
Uning farmonida baxtiyor talant:  
Suhbat mushkulini yenga oladi,  
Har bobni yengiltak bir cho'qib o'tib  
Muhim bahsda o'zin bilimdon tutib,  
Olimona sukut saqlayoladi;  
Ham o'tkir hajvlar yolqini bilan  
Kuldira bilardi xonimlarni shan.

## VI

Bu kun lotin<sup>13</sup> tili modadan chiqmish:  
Sizga haqiqatin aytsam, Onegin  
Ba'zi epigraflar ma'nosin yechish,  
Maktub oxiriga bir *Vale*<sup>14</sup> so'zin  
Yozishga, Yuvinal<sup>15</sup> haqida biror  
Gap uchun yetarli lotincha bilar.  
Yana bir-ikki she'r Eneidadan<sup>16</sup>  
Chala-chattigina yodida qolgan.

Dunyoning sarguzasht tarixin uzoq  
O'tmish davrlarning botib changiga,  
Timirskilash uchun yo'q havas sira:  
Va lekin Romuldan<sup>17</sup> boshlab to shu choq  
Kechgan zamonlarning latifalarin  
Esidan chiqarmas edi Onegin.

## VII

Nozik sadolarga umrin his bilan  
Bag'ishlashga yo'qdi unda zo'r havas.  
Qancha urinmaylik, Onegin zotan  
Xoreyni yambdan<sup>18</sup> farq qilabilmas.  
Koyirdi Gomerni ham Feokritni<sup>19</sup>,  
Ammo, o'qir edi Adam Smitni<sup>20</sup>,  
Iqtisodchi edi Onegin chuqur,  
Ya'ni mulohaza u qilaolur:  
Davlat qanday qilib boyiydi oldin,  
So'ngra nima bilan yashar va nega  
Oddiy mahsulotga u bo'lsa ega –  
Unga kerak bo'lmas hattoki oltin,  
Buni anglayolmas edi otasi,  
Garovga qo'yildi yeri-dalasi.

## VIII

Yevgeniyning yana bor ma'lumotin  
Aytib berishlikka yo'q menda darmon;  
Lekin, qaysi bobda u dohiydi chin,  
Va qaysi ilmda u zo'r bilimdon?  
Yoshligidan beri Onegin uchun  
Ham yemak, ham azob, ham orom, har kun  
Uning qayg'u-hasrat aralash, xasta  
Tanbal hayotini to'ldirgan narsa –  
Muhabbat, ehtiros ilmidir biroq.  
Bu hisni etmishdi Nazon<sup>21</sup> tarannum,



Shuning-chun ko'rgandi u jazo, zulm;  
Moldaviya cho'li ichida, uzoq –  
Quvilib o'z yurti Italiyadan,  
Isyonkor va porloq umrin tugatgan.

## IX

.....  
.....  
.....

## X

Ko'p barvaqt o'rgandi riyo hunarin,  
Umidni yashirar, rashkni yashirar,  
Qayg'uli ko'rinar, ko'zlari g'amgin,  
Ham aldar, ham avrar, ham inontirar,  
Goh mag'rur ko'rinar, goh itoatkor.  
O'ychan yo parishon bo'lishga tayyor!  
Dam qanday parishon sukutga cho'kar;  
Dam qanday otashin bir notiq bo'lar,  
Ishqiy maktublarda u qanday qaydsiz!  
Biriga berilib va sevib birin,  
Qanday unutishni bilardi o'zin!  
Boqishi qanday tez, nozik va tamiz,  
Uyatchan va jasur, lekin ba'zi choq  
Xohlarsa ko'z yoshin oqizar porloq.

## XI

U qanday o'zgacha ko'rinib, hazil  
Ila ma'sumlikni hayratga solar,  
Darhol ma'yuslanib, qo'rqitib yengil,  
Yoqimli xushomad bilan ovutar;  
Ilishga ustadir ixlos lahzasin,  
Qizlik iffatining mulohazasin –  
Aql-u ehtiros-la yengib, u oxir –

Xoh-noxoh iltifot kutmoqqa mohir.  
Yolvorish, e'tirof talab qilishni,  
Qalbning ilk sadosin tinglashni zimdan,  
Yor ketidan chopib, nogoh u bilan  
Maxfiy uchrashuvni, qo'lga ilishni  
Bilardi... so'ng, yor-la yolg'iz, bir pastda –  
Xilvatda saboqlar bermoqqa usta.

## XII

Dong'i chiqqan tannoz xotinlar qalbin  
O'ynatishga qanday o'rgandi erta!  
Istasa agar u o'z raqiblarin  
Butun yo'qotishni, u shunday paytda  
O, qanday zahar til bilan uzardi!  
Qanday tuzoqlarni u hozirlardi!  
Baxtliman, deb yurgan erlar, siz lekin  
Yurdingiz u bilan do'st bo'lishib chin...  
Ayyor er ham izzat qilardi rostdan,  
Foblasning<sup>22</sup> qadimiy talabasi-da,  
Hammadan ishonchin uzgan kekxa-da,  
Harvaqt o'zidan hamda ovqatdan,  
Xotinidan rozi bo'lgan ulug'vor  
Aldangan erlar ham unga lutfkor.

## XIII, XIV

.....  
.....  
.....

## XV

Hali u yotoqdan turmagan ekan:  
Unga keltirishar birqancha maktub,  
Nima gap? Taklifmi? Shu kechga chindan  
Uchta xonadonga borishi matlub.

Bir yerda bal, birida go'dak bayrami,  
Qayerga yugurar arzandam hali?  
Kimdan boshlaydi u? Lokin baribir  
Hammasin uddalash emasdir og'ir.  
Hozir ertalabki kiyimida ul.  
Boshiga kiygan u keng bir bolivar<sup>23</sup>, (3)  
Onegin gerdayib boradi bulvar  
Keng maydon, u yerda kezadi butkul,  
To tushlik ovqatga Breget-soat  
Jaranglab daydini qilguncha da'vat.

## XVI

Tushdi qorong'ilik; chenaga minar,  
«Hayt, jonvor, chu-chu!» – uchar qichqiriq.  
Sovuq qor uchquni kumushin separ,  
Yaltiraydi yumshoq barra yoqalik.  
Mashhur restoranga Onegin chopar,  
Kaverin<sup>24</sup> kutadi unda, ishonar.  
Mana kelib kirdi: may ham shishadan  
Toshib, probkani shipga otar shan.  
Seli oqib turgan Roast-beef<sup>25</sup> bunda,  
Yosh chog'lar bezagi, laziz taomlar,  
Farang dasturxonning guli salomlar.  
Strasburgning issiq somsasi shunda,  
Turar Limburgskiy – toza, xush, pishloq,  
Ham totli, oltindek ananasga boq!

## XVII

Seryog' issiqqina kotletdan keyin  
Hali qadahlarga chanqoqdi lablar,  
Soat jaranglaydi yangi bir o'yin,  
Yangi bir baletdan beradi xabar.  
Teatrning yovuz qonunshunosi,  
Sahna orqasining faxriy a'zosi,

G'oyat jozibali aktrisalarga  
Shamolday qarorsiz, topingan banda –  
Onegin tez uchar teatr sari,  
Bu yerda har kishi yayragan, erkin,  
Balet-raqs avjlarin olqishlar, keyin  
Izzalab Fedrani, Kleopatrani  
Moinani<sup>26</sup> har kim qiladi da'vat,  
Unigina hamma eshitsin faqat.

## XVIII

Ey sehrli diyori! O'tmish zamonda  
U yerda jur'atli hajvda ustoz,  
Erk do'sti Fonvizin<sup>27</sup> surdi dabdaba,  
Va unda Knyajin<sup>28</sup>, ma'lum taqlidboz.  
U yerda Ozerov<sup>29</sup> xalq ko'zyoshlarin,  
Gulduros olqishlar va qutlashlarin  
Semyonova<sup>30</sup> bilan bo'lishdi inoq.  
Kornelning<sup>31</sup> azamat dahosin bir choq  
U yerda Katenin<sup>32</sup> tirgizgan edi.  
Zahar Shaxovskiy<sup>33</sup> chiqardi yana  
Komediyalardan suronli gala.  
Unda Didlo<sup>34</sup> shuhrat tojini kiydi;  
U yerda, teatr tin ko'lkasida  
Menim yosh chog'larim kechdi bir sira.

## XIX

Mening parilarim! Bilay, qaydasiz?  
Tinglangizlar menim yoniq faryodim:  
Yana o'shamisiz? Yo boshqa ko'p qiz  
Sizning o'rningizni bosgandur, balkim?  
Yana tinglaymanmi kuyingiz andak?  
Rus Terpsixori<sup>35</sup> bajargan yuksak  
Ruhli raqslarni ko'rarmikanman?  
Yo g'amli nigohim oshinolardan

Maroqsiz sahnada topolmas birin?  
Yoki men begona hayotga tomon  
O'ksingan lornetni<sup>36</sup> tutaman hayron?  
O'yinga beparvo bir tomoshabin  
Singari burchakda esnab o'tiray,  
Va o'tgan damlarni esgami olay?

## XX

Teatr liq to'la; lojalar porlar;  
Parterlar, kursilar – bari qaynaydi,  
Rayokda sabrsiz chapak chalishar,  
Yuksalib yuqori parda gurlaydi.  
Muhtasham va yengil, havoyi-mayin,  
Kamonning sehrkor yoyiga tolg'in  
Istomina<sup>37</sup> turar go'zal, nodira,  
Raqqos parilar-la chizib doira,  
Polga tegar uning bitta oyog'i,  
Ikkinchi oyoq-la asta aylanar,  
Naq Eol<sup>38</sup> labidan uchgandek bir par,  
So'ng birdan sakraydi, birdan uchadi;  
Goh qaddin buraydi, goh tik turadi,  
Latif oyoqlarni tez-tez uradi.

## XXI

Hamma chapak chalar. Onegin kirar.  
Kursilar oralab bosar ilgari.  
Qo'sh lornetni tutib, ko'zini tikar  
Begona xonimlar lojasi sari.  
Hamma yaruslarga otdi bir qarash,  
Hammani ko'rdi u: chehralar, ust-bosh  
Jihatdan uning ko'p diqqati oshdi.  
Bosh egib erkaklar bilan so'rashdi.  
So'ngra, qarab turdi sahnaga andak,  
Uning boqishlari edi parishon.

Orqaga qaytarkan esnadi bir on,  
Va dedi: «Hammasin yangilash» kerak;  
Baletga shuncha vaqt sabr etib toʻzdim,  
Lekin, Didlodan ham nihoyat bezdim. (4)

## XXII

Sevgi Tangrilari, jinlar, ilonlar  
Oʻynashar, sakrashar hali sahnada;  
Charchagan lakeylar uxlab yotishar  
Poʻstinga oʻralib tish ostonada.  
Hali toʻxtamagan kezish, tipirlash,  
Tupurish, yoʻtalish, chapak, piqirlash.  
Ichkari, tashqari hali charogʻon,  
Fonalar har yerda nur sochar xandon.  
Sovuqdan otlar ham urinar hali,  
Egar, jabduqlardan bezgan, charchagan,  
Kucherlar gulxanni oʻrab qurshagan,  
Soʻkar janoblarni kaft ishqab bari:  
Bizning Onegin ham chiqib qoladi,  
Uyga, kiyingali u yoʻl oladi.

## XXIII

Tanho bir boʻlmaning men tasvirini  
Chizaolamanmi toʻgʻri va chevar,  
Bu yerda modaning oʻrnak shogirdi  
Kiyinar, yechinar va pardozi etar?  
Rezavorchi London boʻsh havas-orzu  
Uchun ne mollarni ishlab sotsa-yu,  
Boltiq dengizida koʻpirgan toʻlqin  
Bizga na keltirsa yogʻoch, moy uchun...  
Foydali bir hunar, sanʼat deb bilsa  
Parijda ochkoʻz zavq nimani bir kun,  
Eng yangi safo, noz va ziynat uchun,  
Ermak, shoʻxlik uchun ixtiro qilsa,

Shularning hammasi o'n sakkiz yoshli  
Faylasuf uyini bezardi yaxshi.

#### XXIV

Istambul kahrabo trubkalari,  
Stolda bronza, chinni qalashir,  
Nozik hisning orzu va nash'alari  
Billur shishalarning ichida atir;  
Taroqlar, po'latdan ko'p arrachalar,  
To'p-to'g'ri va egri har xil qaychilar,  
Cho'tkalar o'ttiz xil, ba'zisi tishga,  
Ba'zisi tirnoqni toza qilishga.  
Russo<sup>39</sup> (men bu gapni qistirib o'tay),  
Anglayolmagandi yonida doim  
Tentakcha xushsuhbat, savlatli Grim<sup>40</sup>  
Tirnoq tozalashga jasorat qilg'ay (<sup>5</sup>).  
Erklik va huquqning u mudafiysi,  
Mana shu to'g'rida tom haqsiz edi.

#### XXV

Tirnoq go'zalligini o'ylamoq mumkin,  
Ishli, jiddiy odam bo'lsang-da doim!  
Zamon-la bekorga bahslashmoq nechun?  
Insonlarda odat mustabid hokim.  
Ikkinchi Chaadayev<sup>41</sup> bizning Onegin,  
Gap-so'z bo'lishlikdan qo'rqqan edi chin.  
Kiyinish bobida u edi pedant,  
Biz aytib o'tganday olifta-frant.  
Loaqal uch soat o'z vaqtini u,  
Oynalar oldida o'tkazar edi.  
Pardoz bo'lmasidan u chiqar edi,  
Veneraga<sup>42</sup> o'xshash yengil va suluv:  
Erkakcha kiyinib go'yo bir pariy  
Maskaradga borar noz karashmali.

## XXVI

So'nggi zavq-u didga munosib kiyim,  
Pardoz-la jalb etib diqqatingizni,  
Onegin bezagin yoza bilardim,  
Bilimdonlarga ham men tanlab so'zni.  
Jasorat bo'lardi, albatta, bu ham,  
Uni tavsiflamoq, zotan, vazifam,  
Netayin, pantalon, frak va jilet,  
Bular rus tilida yo'q, bu so'zlar chet;  
Buni ko'rib, aybim qilaman iqror,  
Ajnabiy so'zlar-la azaldan menim  
Kambag'al so'zligim bu bilan balkim,  
Bir quroq singari tovlanmas bekor,  
Garchi eski vaqtda anjumani donish<sup>43</sup>  
Chiqargan lug'at-la bo'lsam-da tanish.

## XXVII

Bizning mavzuyimiz hozir bu emas,  
Yaxshisi bal sari oshiqaylik biz.  
Bitta karetani<sup>44</sup> kiralab birpas –  
Bazmga Onegin jo'nab ketdi tez.  
Qorong'i uylarning oldida yonar,  
Uyquli ko'chani to'ldirgan qator  
Karetalarning qo'sh, shod fonarlari;  
Mayin nur sochilar suyuq zar kabi.  
Qorlarga chizilar shu'ladan yoylar  
Atrofdagi yulduzday ko'p mayda chirog',  
Porlaydi muhtasham katta uy shu chog';  
Yaxlit oynalarda ko'lkalar kezar:  
Bu – xonimlar, satang erkaklar shakli,  
Ko'rinar va zumda yo'qolar aksi.



## XXVIII

Bizning qahramon ham yetib keldi, boq,  
Shveysar yonidan o'tdi o'q kabi,  
Marmar zinalardan chiqdi ucharoq,  
Tuzatdi qo'llari bilan sochini,  
Kirdi ichkariga. Zalda xalq to'lgan,  
Musiq ham endi gurullab tolgan.  
Xalq butun band edi mazurka ila  
Hamma yoqda shovqin, uylar liq to'la.  
Suvori zobitning<sup>45</sup> shpori jarang;  
So'lim xonimlarning oyoqchalari  
Uchadi; sehri izlarning zori –  
Yolqinli qarashlar uchar otashrang.  
Tannozi xotinlarning rashk imolarin  
Qoplaydi sozlarning na'rasi vazmin.

## XXIX


Nash'aning, tilakning o'tgan zamoni  
Ballarga ishqiboz, oshifta edim.  
Ishq izhor etgani, xat topshirgani  
Bundan ham qulayroq makon yo'q, balkim.  
Ey siz, ey muhtaram er-u xotinlar!  
Xizmatimni taklif qilay bir qadar;  
So'zimni tinglashni so'rayman sizdan.  
Ogoh qilmoqchiman sizni bir so'zdan:  
Siz ham, onajonlar, bo'ling ehtiyot,  
O'z qizlaringizni ta'qib etingiz:  
Lornetni juda ham to'g'ri tutingiz.  
Yo'qsa... yo'qsa... Tangrim saqlasin, uyat!  
Nechun buni yozdim sarf etib siyoh,  
Chunki ko'pdan beri qilmayman gunoh.

### XXX

Vodarig‘, har turli hangoma uchun  
Ko‘pgina umrimni men isrof etdim!  
Axloqqa ziyonli bo‘lmasa shu kun,  
Shu damga qadar ham balni sevardim.  
Men juda sevaman jo‘shqin yoshlikni,  
Ko‘pchilik dabdaba, shod bo‘lishlikni,  
Xonimlarning zavqqa monand bezagin;  
Sevaman ularning oyog‘in, lekin:  
Butun Rusiyada topilarmikan  
Uch juft eng kelishgan xotin oyog‘i?  
Oh, unutilmadim, qalbimda dog‘i,  
Bir juft oyoqchani!.. Mahzun, sovingan,  
Hali ham eslayman; tushimda hatto,  
Qalbimni qiladi ular bezovta.

### XXXI

Sen qachon, qayerda, qay cho‘lda butun  
Esdan chiqarasen ularni, tentak?  
Oh, latif oyoqlar! Qaydasiz bukun?  
Qayerda bosasiz bahorgi chechak?  
Sharqning safosida siz erkalangan,  
Shimolning qayg‘uli qorida, lutfan,  
Qoldirmay ketgansiz bironta ham iz.  
Chunki siz u yerda jondan sevdingiz  
Yumshoq gilamlarning mayin bo‘sasini,  
Siz uchun bir mahal, axir, unutildim,  
Shuhrat, shon orzusini, tug‘ishgan yurtim,  
Tutqinda yashashning qayg‘u-jafosini?  
Yo‘qoldi yoshlikning baxti ham esiz,  
Bamisli maysada yengil izingiz.



## XXXII

Diananing<sup>46</sup> ko'ksi va Floraning<sup>47</sup>  
Yanoqlari latif, sevikli do'stlar!  
Lekin, mening uchun Terpsixoraning  
Oyog'i, negadur, latifroq, dilbar.  
Bebaho mukofot va'da etar u  
Hamisha ko'zlarga, pardoqli suluv –  
Ayol yuragimda orzu va armon  
Girdobin chayqatar eslasam har on.  
Sevamen oyog'in, do'stim Elvina<sup>48</sup>,  
Stollar ostiga tashlasam nazar.  
Qish fasli kaminda<sup>49</sup> isinsak agar,  
Zallar parketining oynasida ham,  
Dengiz qoyasining panasida ham...

## XXXIII

Qasirg'ali dengiz yodimda hali:  
Uning oyog'iga yiqilish uchun,  
Ketma-ket yugurgan to'lqinlar sari  
Boqib xo'b qizg'ongan edim men u kun!  
Istardim u choqda to'lqinlar ila  
Aziz oyoqlarga lablarim tegsa!  
Yo'q, yoshlik pallamda, qon qaynaganda,  
Dilimni ishq o'ti band aylaganda,  
Men hech qachon shunday bir azob bilan,  
Jononlarning gulday yuzin yo labin,  
Yoki mehr to'la nafis ko'kragin  
O'pishni bu qadar istamaganman.  
Yo'q, hislar hujumi hech qachon meni  
Bu qadar to'sindan o'rtab ezmadi.

### XXXIV

Yodimda qolgandir boshqa bir zamon:  
Ezgu xayollarda men o'zim ba'zan  
Baxtli uzanguni ushlayman; bir on  
Latif bir oyoqni qo'lda sezaman.  
Xayollarim oshib-toshadi yana.  
U go'zal oyoqning tegishigina  
Bu so'lg'in qalbimda yoqib qo'yar qon.  
Yana-da muhabbat, yana dard-hijron...  
Mahmadona sozing ila, yetar, bas,  
Madh etib kuylamoq takaburlarni:  
Na sevgiga, dardga, na ilhomlari  
To'qigan kuylarga ular arzimas;  
Bu sehrigarlarning so'zi va ko'zi  
Naq oyoqlariday aldoqchi o'zi.

### XXXV

Oneginim qalay? Mudrab va esnab  
Yotoqqa u jo'nab ketadi baldan;  
Harvaqt g'ovur-g'uvur Peterburg esa  
Do'mbira tovushi ila uyg'ongan.  
Savdogar turadi, tashuvchi borar,  
Izvoshchi birjasi tomon yugurar,  
Shoshadi xurmali bir sutchi xotin,  
Tonggi qor g'irchillar u yurgan sayin.  
Boshlandi yoqimli tongning suroni.  
Darchalar ochildi. Quvurdan tutun  
Yuksaldi havoga naq moviy quyun  
Qog'oz qalpoq kiygan nemis nonvoyi  
Xuddi har kungiday, kechikmay bir on,  
Do'kon ochib, savdo qiladi chaqqon.

## XXXVI

Balning shovqini-la qurgan tinkasi,  
Onegin uchun tong yarim tungina.  
U o'yin-kulgi-yu, ziynat erkasi,  
Yotadi rohatda uxlab tinchgina.  
Peshinda uyg'onar, tonggacha lekin  
Boyagi tartibda umr o'tar tag'in.  
Qanday hayot deysiz? Bir xil va rangli,  
Ertangi hayoti kechaning ayni.  
Baxtiyor va xursand edimi lekin,  
Erkin yurib umrin ko'klam chog'ida,  
Porloq zafarlarning keng quchog'ida,  
Har kungi zavq-safo ichra Onegin?  
Ziyofatlar ichra u ehtiyotsiz,  
Sog'lomdi: bu hayot qoldirmadi iz?

## XXXVII

Yo'q: uning hislari sovudi erta;  
Zeriktirdi kibor hayot shovqini;  
Fikrini go'zallar, jononlar qisqa  
Zamongina mashg'ul etgandi uni;  
Xiyonatlar uni charchatib qo'ydi.  
Do'stlar, do'stliklardan juda tez to'ydi.  
Yana har kun laziz taomlar yeyish,  
Har kun shampanskiy qoniqib ichish,  
Boshi og'rib turgan pallada yana  
Rangdor, ingichka so'z yog'dirish haryon,—  
Bulardan zerikdi, dili bo'ldi qon.  
Garchi u bo'lsa-da qizg'in shumtaka,  
Ko'ngli qolgan edi uning har ishdan:  
Ham jangdan, ham o'qdan hamda qilichdan.

### XXXVIII

Onegin muhtalo illat sababin  
Qidirib topishning kelgandir chog'i.  
Ingliz ziqqiga o'xshaydi, lekin  
Qisqasin aytganda: rus xafaqoni  
Sekin-sekin uni egallab oldi.  
Tangriga shukurki, urinmay qoldi  
U otib o'zini o'ldirish uchun.  
Ammo, sovugandi hayotdan butun.  
*Child Harold*<sup>50</sup> kabi g'ussali, siniq,  
Qo'noqxonalarda bo'lar namoyon.  
Kiborlar ichida na g'iybat, bo'ston<sup>51</sup>,  
Na totli bir boqish, na bejo qiliq,  
Hech bir narsa unga ta'sir etmasdi,  
Yurardi hech narsa payqamay asti.

### XXXIX XL, XLI

.....  
.....  
.....

### XLII

Ey serqiliq kibor nozaninlari  
Sizni u tark etdi hammadan burun.  
Rost aytsam, kiborlar qilig'i bari  
Ancha bezdiruvchi bo'libdir bugun.  
Ehtimol, ba'zi bir xonim bir qadar,  
Bentomni va Seyni<sup>52</sup> izohlayolar;  
Lekin ular gapi-so'zi, umuman,  
Beg'ubor esa-da, mahrum ma'nodan.  
Yana ular tag'in shunday begunoh,  
Va shunday ulug'vor, shunday donishmand.

Taqvodorlik bilan yuraklari band,  
Shunchalar subutli, ziyrak va ogoh,  
Shunday nomahramdir ularga erkak,  
Aftlarini ko'rib xun bo'lar yurak. (6)

### XLIII

Peterburgning keng, tosh ko'chalaridan,  
Kechki pallalarda uchqur va ko'rkam  
Aravaga tushib ketuvchi xursand,  
Go'zal yosh xonimlar, axir sizni ham  
Butun tashlab ketdi bizning Yevgeniy;  
Jo'shqin zavq-safodan qochib u endi  
Uyiga butunlay qamalib qoldi.  
Zerikib qo'liga qalamni oldi,  
Yozishni istadi: mushkul, zo'r mehnat  
Ko'nglini aynatdi, ezdi, qalamdan  
Hech nima chiqmadi; u shuning bilan  
Qalamkash ahliga bo'lmadi ulfat,  
Men bu kasb haqida bir so'z demayman,  
Chunki unga mening o'zim mansubman.

### XLIV

Bekorchilikka u berildi yana,  
Ruhida bir bo'shliq sezdi kun sayin.  
Katta go'zal ishga qildi hafsala –  
Bilim ortdirishga kirishdi qizg'in.  
Tokchaga qaladi jild-jild kitoblar  
O'qidi, o'qidi; foydasiz, bekor:  
Birida dilgirlik, talvasa, xato;  
Birida vijdon yo'q, birida ma'no.  
Hammasida har xil irimdan nishon.  
Qadimgilik qadri eskigan juda,  
Yangilik ichida eski safsata.  
Kitoblarni tashlar xotinlarsimon,

Chang bosgan kitoblar yotgan tokchaga,  
Tortadi qop-qora qalin pardacha.

#### XLV

Kibor hayotining otib ermagin.  
Behuda shovqindan qochib u kabi  
Do'stlashgan edim men, u zamon lekin  
Menga yoqqan edi bor xislatlari.  
Xayollar, o'ylarga erksiz sadoqat,  
Taqlid qilib bo'lmas ajib bir sifat,  
Fikri, qarashlari sovuq va keskin,  
Men g'azabli edim, u edi g'amgin.  
O'yinin bilardik hirsning ikkimiz:  
Biz ikkimizni-da bezdirgan hayot,  
Uchgandi qalb o'ti ikkimizda bot.  
Yana kutar edi xuddi umrimiz  
Tonglarida bizning ikkimizni ham  
Insonlar, ko'r taqdir g'azabi har dam.

#### XLVI

Yashab fikr qilgan kishi har zamon  
Ruhida insondan nafrat etkusi.  
His etgan kimsaga solar hayajon  
Qaytishi imkonsiz kunlar sharpasi:  
Unga qolmas aslo fusun, joziba,  
Uni xotiralar iloni ila,  
Yana pushaymonlar ichdan kemirar.  
Bularning barchasi ko'pincha berar  
Shirin bir nafislik so'zga, jumlagi,  
Oneginning tili meni dastavval  
Sarosima qildi; keyincha men sal  
Ko'nikdim undagi ta'nali gapga,  
Zahar aralashgan haziliga ham  
Chidadim eng o'sal hajviga har dam.



## XLVII

Yoz fasli ko‘p choqlar birga edik biz,  
Nevaning ustida kecha samosi (7)  
Ochilar tip-tiniq, yorug‘ va cheksiz,  
Suvlarning nash‘ali o‘ynoq oynasi  
To‘lin oy jamolin aks etmas ekan,  
O‘tmish qissasini kechirib yoddan,  
Biz jim eslar edik kechmish sevgini,  
Biz beg‘am, bo‘shagan hislar tizgini;  
Bu so‘lim kechaning nafasi butun –  
Bizlarni aylardi bexush, jimgina  
Qamoqdan ko‘m-ko‘k bir o‘rmon ichiga  
Uxlagan paytida eltilgan tutqun  
Singari, xayolda uchardik biz ham,  
Yosh umr bahori qayda, deb shu dam.

## XLVIII

Turardi fikrga tolib Yevgeniy;  
Ruhi to‘la edi afsuslar bilan,  
O‘zin tavsiflagan bir shoir kabi (8),  
Sohilda granit-toshga suyangan.  
Hammayoq jimjitdi; yolg‘izgina tun  
Posbonlari ba‘zan chiqarardi un,  
Izvoshchining olis dukuri ba‘zan  
Eshitilar edi Millionayadan<sup>53</sup>;  
Eshkaklarni urib yolg‘iz bir qayiq  
Mudragan daryoda suzardi asta,  
Bizni qilar edi maftun, dilbasta –  
Uzoqdan bir hay-u yoqimli qo‘shiq.  
Tun bazmi ichida lekin totliroq  
Torkvatto<sup>54</sup> she‘rining kuylari har choq!

## XLIX

Adriatik dengizi to‘lqinlari, man,—  
O, Brenta<sup>55</sup>! Sizni ko‘rarman albat,  
Ilhomlarim to‘lib-toshib yangidan,  
Sehrli tovshingiz eshitmoq niyat!  
Bu tovush Apollon nabiralari  
Uchun muqaddasdir; uni kuy kabi,  
Albion sozidan tuydim, tanish u.  
Goh so‘zamol, goho indamas suluv —  
Venetsiyali yosh bir jonon bilan  
Sirli bir qayiqda men suzib, oltin  
Go‘zal Italiya tunining erkin  
Og‘ushida ishqdan lazzatlanarman,  
Petrarka<sup>56</sup> va sevgi tilin u zamon  
Bag‘ishlaydi menga bu dilbar jonon.

## L

Keladimi mening erkim zamoni?  
Kelmishdir fursati! Qumsayman erkim;  
Dengiz qirg‘og‘ida ochiq havoni (<sup>9</sup>)  
Kutaman; imlayman kema chodirin.  
Qachon bo‘ronlarning ridosida, man  
Mavjlar-la kurashib, dengizning ulkan  
Ko‘ksida boshlayman safarni erkin?  
Menga adovatli dengiz qirg‘og‘in  
Tark etmakning endi kelmish zamoni.  
Janub kengliklari ko‘ksida yayrab,  
Afrikamning<sup>57</sup> tiniq ko‘kiga qarab (<sup>10</sup>),  
Rossiyani o‘ylab oh chekish chog‘i,  
O, men bu yerlarda qancha dard chekdim.  
Bu yerlarda sevdim, ko‘mdim yuragim.

## LI

Ajnabiy yurtlarning tomoshasiga  
Onegin shaylangan edi men bilan.  
Lekin biz taqdirning taqozosicha,  
Uzoq vaqt ayrildik bir-birimizdan.  
U zamon otasi vafot qilgandi.  
Onegin qoshiga duv yig'ilgandi  
Qarz berguvchilarning ochko'z to'dasi,  
Har kimning o'z aqli va o'z rejasi:  
Da'volardan nafrat qildi Onegin  
O'z chekidan o'zi bo'lgandi rozi,  
Qarzni to'lash uchun ketdi merosi,  
Katta bir ziyon ham ko'rmadi lekin,  
Go'yo bilgan edi u oldindanoq  
Qari amakining o'lishin tez choq.

## LII

Chindan ham Yevgeniy kutmagan damda  
Ish boshqaruvchidan oladi bir xat.  
O'lim oldidamish amaki; hamda  
Vidolashuvni u istarmish faqat.  
Qayg'uli nomani o'qib Yevgeniy  
Shu on surushtirmay nari-berini,  
Pochtovoyda chopdi uchrashish uchun.  
Aqcha dardi uni egallar butun.  
Aldash, yig'i-sig'i uchun u hozir.  
(Romanni boshlagan edim bu bilan);  
Zerikar, homuza tortar oldindan.  
Mana u qishloqqa yetadi oxir.  
Ko'rarkim, taxtada yotar amaki,  
Yerga jo bo'lajak sovg'a singari.

### LIII

Ko'rdi xizmat ahli to'lgan qo'rani;  
Azaga kelishar yaqin-uzoqdan  
Ko'mish marosimin havaskorlari,  
Do'stlar, begonalar – bari har yoqdan.  
O'lik ham ko'mildi; ovqat yeb-ichib  
Pop, mehmonlar jo'nar gerdayib tinchib,  
Go'yo bajardilar jiddiy bir ishni.  
Onegin qishloqda yashovchi kishi  
Bo'lib qoldi endi. Mana u o'rmon,  
Yer-suv, zavodlarga tamom xo'jayin.  
Shu choqqacha tanti, isrofgar, oltin  
Qadrini bilmagan bu tanbal inson  
Hozir juda xursand; u ilgarigi  
Yo'lin almashtirdi, na bo'lsa mayli.

### LIV

Yangiday ko'rindi ikki kungina  
Oneginiga jimjit tanho dalalar,  
Qorong'i o'rmonning salqini, yana  
Buloqlardan uchgan mayin sadolar;  
Uchinchi kun tepa, dala, chakalak  
Uni ovuntira olmadi andak;  
Ular so'ng keltirdi uning uyqusin;  
Va so'ngra ko'p ravshan ko'rdi Onegin:  
Qishloqda ham xuddi o'sha dilgiriklik.  
Garchi na ko'cha bor, na saroy, na yor,  
Na karta, na ballar, na munda she'r bor.  
Xafaqonlik uni qo'ymay bir enlik,  
Poylardi ketidan poyama-poya,  
Vafodor xotinday yo misli soya.

## LV

Tinchlik hayot uchun men tug'ilganman,  
Tug'ilganman qishloq sukuti uchun:  
Soz sasi pasqamda jaranglaydi shan,  
Ijodiy xayollar jon, qonga to'lg'un.  
Ma'sum, tin onlarga berilib tamom  
Jimjit ko'l boshida yolg'iz har ayyom  
Yuraman, bekorlik – mening qonunim.  
Har kun tong paytida uyg'onaman jim,  
Shirin huzur uchun, erkinlik uchun:  
Ozgina o'qiyman, ko'proq uxlayman  
O'tkinchi shuhratga nazar solmayman,  
O'tmish zamonlarda men – naq shu yo'sin  
Kechirmaganmidim kunlarim bekor,  
Yashamaganmidim shunday baxtiyor!

## LVI

Chaman, sevgi, qishloq, sayl etib yurish,  
Dalalar! Men sizga sodiqman ruhan.  
Onegin-la menim oramda bo'lmish  
Farqni qayd etishga har vaqt men xursand,  
Tokim, istehzoli biror o'quvchi,  
Yoki mohirona tuhmat to'quvchi,  
Biron nashriyotchi mening xislatim  
Qiyos etib yana u demasinkim,  
Mag'rurlik kuychisi Bayron<sup>58</sup> singari,  
O'z portretimni men chizganman bunda,  
Gap sotib yurmasin u unda-munda.  
O'ylasharki, biz-chun imkonsiz kabi  
Boshqalar haqida yaratmoq doston,  
Go'yo shoir o'zin qilarmish bayon.

## LVII

Aytib o'tay yana: butun shoirlar  
Xayolchan sevgining do'stidir, lekin  
Bir zamon eng go'zal lavhalar, sirlar  
Tushimga kirardi. Ruhim yashirin,  
Go'zal tasvirlarni saqladi mahkam,  
Keyincha ularni jonlatdi Muzam.<sup>59</sup>  
Men shunday, qayg'usiz, tarannum etdim,  
Tog'larning qizini, mening idealim,  
Salgir<sup>60</sup> bo'ylarining asiralarin.  
Eshitib qolaman, do'stlarim, hozir  
Savol bilan meni qilasiz manzur:  
«Kim uchun bu sozing chekadi, ohin?  
U rashkli qizlardan kimni xushlabsan,  
Qaysiga sozingda kuy bag'ishlabsan?»

## LVIII

«Ilhomning mavjlatib kimning nigohi,  
Armug'on etmishdir samimiy mehr,  
Sening bu o'ylovchan kuyingga, qani?  
Sening she'ring kimni olloh deb tanir?»  
Do'stlarim, hech kimni, Xudo haqqi!.. Man  
Boshimdan kechirdim, mahrum nash'adan,  
Muhabbatning telba g'alayonini.  
Ishq-la qofiyaning hayajonini  
Kimki qo'shabilsa, u inson xushbaxt:  
U she'rning muqaddas sirli sadosin  
Yangratar va bosar Petrarka izin;  
Qalbning azobini tinchitar; shul vaqt  
Muyassar bo'ladi unga sharaf-shon;  
Lekin men sevganda edim lol, nodon.

## LIX

Ishq kechdi, ko‘rinish berdi ilhomim,  
Zulmat bosgan fikr nurlandi sekin;  
Ozodmen, yangidan izlayman doim  
Sehrkor sadolar, xayol, o‘y bazmin.  
Yozaman, yuragim bilmas dard nima...  
Yozilib bitmagan she‘rlar yoniga  
Qalam hushsizlanib chizmaydi rasmin  
Xotin boldirlarin va chehralarin.  
O‘chgan kul lov etib yonmas yangidan,  
Yana qayg‘uraman! Ko‘zimda yo‘q yosh.  
Mana endi bo‘ron izlari yuvosh  
Ruhimda jim bo‘lib qolar tamoman.  
U chog‘da yozarman yigirma beshta –  
Qo‘shiqdan iborat doston albatta.

## LX

O‘ylarkan asarning rejasin sekin  
Va qahramonimni na deb atayman;  
Romanning hozircha birinchi qismin  
Bitirdim; bularning barin qaytadan  
Ko‘rib chiqdim qat‘iy bir diqqat ila;  
Bunda ziddiyatlar hali ko‘pgina,  
Lekin tuzatishni men istamayman;  
Senzurga<sup>61</sup> o‘zimning burchim to‘layman,  
Jurnalistlarga ham chaynamoq uchun  
Mehnatim mevasin berarman yana:  
Ey yangi tug‘ilgan asarim, jo‘na,  
Neva bo‘ylarini kezib chiq butun;  
Menga xizmat qilib, qozon sharaf-shon:  
Qing‘ir so‘z va ur-sur, so‘kish va suron!



## IKKINCHI BOB

O, rus!  
*Hor.*<sup>62</sup>  
O, Rus!

### I

Yevgeniy Onegin zerikkan qishloq,  
Go‘zal, latofatli bir go‘sha edi;  
Bu yerlarda kimki sof zavqqa inoq  
Tangriga shukurlar qilsa arzirdi.  
Aslzoda uyi xolis tamoman,  
Shamollardan uni tog‘ panalagan,  
Bir kichik daryoning tepasidadir;  
Qarshidan uzoqda yashnar dala-qir,  
O‘tloqlar va oltin ekinzorlar ham.  
Qishloqlar olisda jim-jim miltirar.  
Podalar o‘tloqda sekin tentirar.  
Quyuq ko‘lkasini keng yoyar-gilam  
Singari, boqimsiz kattakon bir bog‘,  
O‘ychan driadlar<sup>63</sup> maskani har chog‘.

### II

Solingan edi bu sharafli qasr,  
Odatda qasrga xos bir yo‘sinda:  
U g‘oyat mustahkam, savlatli, og‘ir,  
Ma‘qul qadimiylilik didi bor unda.  
Har tomonda baland uylar-bo‘lmalar,



Mehmonxonalarni shoyilar bezar,  
Podsholarning rasmi devorlarida,  
Rang-barang naqsh yonar pechkalarida.  
Bukun eskirmishdir bularning bari.  
Bilmayman, to'g'risi, nedir boisi,—  
Shunday narsalarga do'stim xohishi  
Yo'qligin bilaman. Ochilmas bahri;  
U, modali qadim keng zallar ichra  
Esnashdan o'zgani bilmasdi sira.

### III

U shunday bir uyni qilgandi maskan,  
Bu yerda qishloqning eski keksasi  
Qirq yilcha urushib xodima bilan,  
Derazaga qarab, pashsha ezgandi.  
Hamma narsa sodda; poli qayindan.  
Ikki shkaf, stol, yumshoq par divan,  
Ko'rmaysiz hech yerda siyoh dog'-dug'in.  
Shkaflarni ochib boqdi Onegin:  
Birida topdi u chiqim daftarin,  
Ikkinchida qator mayli shishalar,  
Olma sharbatlari to'la ko'zalar,  
Yana sakkizinchi yil kalendarin;  
U cholning yumushi ko'p bo'lgan uchun  
Boshqa kitoblarga boqmagan butun.

### IV

O'z mulki — yerlari aro kezaroq  
Yop-yolg'iz; vaqtini o'tkazish uchun,  
Dastavval Onegin o'yladi uzoq.  
Mulkida yangi bir tartibot qursin.  
Bir chetda, kimsasiz oqil Onegin  
Ko'hna barshchinaning<sup>64</sup> bo'yinturug'in  
Yengil obrok<sup>65</sup> bilan alishtiradi;

Qul<sup>66</sup> ham taqdiriga shukur qiladi.  
Lekin bu narsada dahshatli ziyon  
Ko'rdi-da ish bilar uning qo'shnisi  
Bir chekkada soldi qosh-qovog'ini;  
Boshqa bir qo'shnisi kuldi naq shayton,  
Hammasining bitta bo'ldi qarori:  
Onegin judayam xavfli savdoyi.

## V

Dastlab qo'shnilari bo'lishar qo'noq,  
Lekin katta yo'lda ularning faqat  
Kelayotganini ko'rish bilanoq  
Xizmatkorlar unga tamomi sur'at –  
Bilan keltirishar bir Don ayg'irin.  
U orqa eshikdan qochar yashirin.  
Xafa bo'lib shunday muomaladan  
Do'stlikni uzadi hamma u bilan.  
«Qo'shnimiz nodondir, aqlida nuqson,  
U bir farmazondir<sup>67</sup>; ichadi yolg'iz  
Stakanda qizil sharob; xonim-qiz  
Qo'llarin o'pishni istamas bir on.  
Ha, deydi, yo'q, deydi; demaydi «*labbay*» –  
«*Buyuring*». Umumiy fikr naq shunday<sup>68</sup>.

## VI

Yangi bir pomeschchik o'z qishlog'iga  
Ot surib kelgandi xuddi u zamon,  
Xuddi shuning kabi qo'ni-qo'shniga  
Ermak bo'lgan edi – gap-so'z bepoyon.  
Ismi edi uning Lenskiy Vladimir.  
Ko'ksida Gittengen<sup>69</sup> ruhi chayqalir.  
Go'zal bir juvondi gullagan endi,  
Ham shoir, ham Kantning muxlisi edi<sup>70</sup>.

Keltirmish tumanli Germaniyadan  
Lenskiy olimlik samaralarin;  
Erkinlik ishqining ko‘p xayollarin,  
Keltirmish g‘alati, qizg‘in ruh bilan,  
Yelkaga tushkuvchi jingal sochini,  
Nutqida qaynagan hayajonini.

## VII

Kibor doiraning sovuq fahshidan  
So‘lib, sarg‘ayishga ulgurmay hali,  
Qizlar erkalashi, do‘st qutlashidan  
Hali isinardi yigitning qalbi;  
Uning ko‘ngli edi sodda beg‘ubor,  
Yuragiga har dam umid-orzu yor,  
Dunyoda har yangi hashamat, shovqun  
Uning yosh aqlini qilardi maftun.  
Shirin xayol bilan u yupatardi  
O‘z qalbin qoplagan shakllarni hamon;  
Unga – hayotimiz g‘oyasi har on  
Qiziq bir topishmoq bo‘lib qolardi.  
Boshini qotirar edi bu haqda  
Mo‘jizalar gumon qilar ko‘p choqda.

## VIII

Jon payvand dilbarning u o‘zi bilan  
Inoq bo‘lishiga ishonar edi.  
Go‘yo, u qalb kuyib yonib ichidan,  
Har kuni tinmasdan unga zor edi.  
Ishonar ediki sharafi uchun  
Do‘stlari tayyordir kishanga har kun,  
Bo‘htonchi ko‘zasin chil-chil qilishga  
Ularning qo‘llari cho‘chimas sira;  
Ishonardi bor deb omadi kelgan  
Odamlarning aziz, ezgu do‘stlari,

Ishonar ularning oilalari  
Yoqimli, dilbar nurlari bilan  
Albat bizni bir kun xo‘b yoritajak,  
Jahonga kayf-huzur hadya etajak.

## IX

Afsuslar, achchig‘lar, g‘azablanishlar,  
Yaxshilikka bo‘lgan toza muhabbat,  
Shuhrat uchun shirin azoblanishlar  
To‘lqinlatgan erta qonini behad.  
Sozi-la jahonni aylandi, ko‘rdi,  
Shillerning, Gyotening yurtida yurdi.  
Ularning shoirlik ilhomi ila  
Yolqinlandi butun ruhi ko‘ksida.  
San‘atning sof, yuksak muzalarin u  
Uyaltirmagandi; mas‘ud, baxtiyor,  
Qo‘shiqlarida ham doim iftixor  
Ila saqlar edi yuksak bir tuyg‘u,  
Bokira xayolning haroratini  
Sersavlat soddalik latofatini.

## X

Sevgini kuyladi, u ishqqa o‘g‘lon,  
Uning qo‘shiqlari edi sof, yorqin,  
Sodda dil bir qizning o‘ylari simon,  
Go‘dakning tushidek, osmonning sokin  
Cho‘lida kezuguvchi sir ilohasi,  
Nozik oh chekishlar do‘sti oy kabi;  
Shoir kuylar edi qayg‘u va hijron,  
Sirli uzoqliklar va majhul jahon,  
Romantik gullarni qildi tarannum,  
Uzoq o‘lkalarni kuylar edi u,  
U yerlarda qancha to‘kkandi qayg‘u,  
Sukut og‘ushiga ko‘zyoshin yum-yum;

Sag'alkam o'n sakkiz yoshida shoir,  
Kuyilar hayot so'lg'in guliga doir.

## XI

U chet bir go'shada; aql-u zakosin  
Qadrlay bilardi Onegin faqat,  
Qo'shni qishloqlarning butun arkonin  
Ziyofatlari ham yoqmasdi albat;  
Qochardi suronli suhbatlaridan.  
Ularning gaplari aqlga monand,  
Itxonasi bilan, urug'- aqrabo,  
Pichan o'rish bilan har turli vino  
Haqida so'zlashar. Bunda yo'q tuyg'u,  
Va na yolqinlanar she'riy bir otash,  
Na zarofat, na-da chuqur bir qarash.  
Na avom san'ati uchun misol u.  
Suyukli xotinlar gapida ammo,  
Yana ham oz edi aql va ma'no.

## XII

Lenskiy kelishgan yigit, badavlat.  
Har yerda kuyovdek qarshilanardi;  
Qishloqda shundaydir har doim odat:  
Har kim o'z qizini ko'zlab qo'yardi  
Chala rus ko'ringan shu hamsoyaga;  
Agar bosh suqsa u qaysi xonaga,  
Boshlanib ketardi suhbat daf'atan,  
Derlar bo'ydoqlikda yo'qdir nash'a-shan.  
Qo'shnini so'ng choyga taklif qilishar;  
Choy quya boshlaydi shu choqda Dunya,  
Shivirlashar: «payqa, bir boq-da, Dunya!»  
So'ngra keltiradi bittasi gitar:  
U ham chiyillaydi (omon, yorabbim!):  
– *Kelaqol! Qasrimga kel, ey oltinim!* <sup>(1)</sup>

### XIII

Faqat, Lenskiyda yo‘q edi havas,  
Nikoh zanjiriga tutsin yelkani.  
Qalbdan orzu qildi tinmay bir nafas  
Onegin-la tezdin do‘st tutingali.  
Topisha qoldilar, xuddi tosh, to‘lqin,  
Nazm bilan nasr, muz hamda yolqin  
Shuncha bir-biriga bo‘lolmas qarshi.  
Dastlab o‘rtadagi ayirma, garchi –  
Ular o‘rtasiga sovuqlik soldi,  
So‘ngra bir-biriga qoldi yoqishib,  
So‘ngra har kun otda birga chopishib,  
So‘ng ular ajralmas do‘st bo‘lib qoldi.  
O‘zim iqror bo‘lay, odamlar ko‘p vaqt  
Bekorhilikdan do‘st tutinar faqat.

### XIV

Lekin, shu do‘stlik ham yo‘q oramizda,  
Barcha odatlarni yakson qilib biz,  
Hech kimni nazarga ilmaymiz sira,  
Hammadan balandda go‘yo o‘zimiz.  
Boqamiz hammamiz napoleoncha,<sup>70</sup>  
Millionlab qo‘sh oyoq maxluqlar barcha  
Bizning uchun yolg‘iz quroldir mangu,  
Kulinch ham vahshiydir biz uchun tuyg‘u.  
Ko‘plardan durustroq edi Onegin;  
Insonlarni bilar edi albatta,  
Umuman ularga nafrati katta;  
Istisnosiz yo‘qdir qoida lekin:  
Ba‘zilarni juda ayirar edi,  
Kishi yaxshiligin fahmlar edi.

## XV

Tinglar Lenskiyni tabassum ila  
Onegin; shoirning o'tli so'zlari  
Muhokamalari qarorsizgina,  
Hamisha ilhom-la yongan ko'zlari –  
Bular Oneginga edi yangilik;  
Sovuq, dag'al so'zni Onegin bekik,  
Dilida saqlashga tirishar butun  
Va shunday o'ylardi: ahmoqlik men-chun  
Bir onlik zavqlarin kesmoq, albatta,  
Mensiz ham bir kuni zamon kelajak,  
Yashasin u mayli hozircha andak;  
Inonsin dunyoning kamolotiga,  
Kechiraylik yoshlik jozibasini,  
Yoshlikning o'tini, talvasasini.

## XVI

Ular o'rtasida, so'zsiz, har nima  
Bahsga, tafakkurga olib kirardi;  
Kechmish qabilalar tuzgan ahdnoma,  
Yaxshilik, yomonlik, fanlar mevasi,  
Asrlar cho'zilgan xurofotlar, ham  
O'limdan keyingi sirlarki, mubham  
Qolmasdi ulardan hayot va taqdir,  
Har mavzu ustida o'ylashar bir-bir..  
O'z fikrlarining alangasida  
Shoir qaynab ketib o'qib yuborar,  
Shimol dostonidan ba'zi parchalar<sup>71</sup>,  
Shunda tavoze'li Onegin esa,  
She'rlarni oz fahm etsa-da lekin  
Yigitni tinglardi qo'yib diqqatin,

## XVII

Xilvatnishinlarning fikrini lekin  
Ehtiroslar ko‘proq etardi mashg‘ul,  
Ular panjasidan qochib, Onegin  
Ehtiros haqida so‘zlardi butkul.  
Noiloj afsus va xo‘rsinish ila:  
Ishqning to‘lqinini totib, keyincha  
Undan qo‘l siltagan inson baxtiyor.  
Undan-da baxtlidir kimki bexabar,  
Kim ishqni ayriliq bilan sovutsa,  
Dushmanlikni yengsa g‘iybatlar bilan,  
Xotini, do‘stlari ila kim ba‘zan  
Sezmay rashk azobin, tortsa homuza,  
Bobolarning halol bisotlarini  
Qimorga boy bermas, udir baxtli!

## XVIII

Biz aqli solimning tinch ko‘lankasi  
Tagida huzurlar qidirgan damda,  
So‘nib muhabbatning o‘t-alangasi,  
Ularning inodi, parvozi hamda,  
Qalbimizdan chiqqan so‘nggi sadosi,  
Kulinch ko‘rinarkan bizga g‘avg‘osi,  
Qiyinlik-la halim va yuvosh bo‘lgan;  
Biz juda sevamiz tinglashni ba‘zan  
Begona hirslarning qizg‘in bayonin,  
Bizning yurakni u o‘ynatar darhol,  
Kulbasidagina unutilgan chol –  
Mayib bir askar ham xuddi shundayin:  
Qulog‘ini tutar shavq, havas ila  
Shop mo‘ylov yoshlarning hikoyasiga<sup>72</sup>.



## XIX

Biroq yolqinlangan otashin yoshlik  
O'z ichida saqlay olmas hech narsa.  
Xusumat, muhabbat, xursandlik, g'ashlik  
Barchasin so'zlashga tayyor har lahza.  
Muhabbatda ojiz hisoblab o'zin,  
Tinglardi bilimdon tusda Onegin,  
Yurak tavbasini sevguchi shoir  
O'z dardini qanday bayon qila olur;  
Shoir o'z beg'ubor, sof vijdonini  
Oq ko'ngillik bilan unga ochganda,  
Yevgeniy bilgandi qulay shu onda  
Shoir sevgisining yosh qissasin,  
Biz uchun hech yangi bo'lmagan tuyg'u –  
Hislar-la bezalgan hikoyadir bu.

## XX

Oh, qanday sevardi! Bizning pallada,  
Seva olmas hech kim, xuddi u kabi;  
Muhabbat qo'yishga mahkumdir yana  
Yolg'iz bir shoirning tentakcha qalbi;  
Har qachon, har yerda bir xayol surish,  
Qonlariga singgan bir orzu, kuyish,  
Unga doim hamroh bo'lgan bir alam!  
Ko'ngilni sovutar uzoqliklar ham,  
Na yillab cho'zilgan u ayriliqlar,  
Na-da muzalarga bergan paytlari,  
Na ajnabiy yerlar malikalari,  
Na fanlar va,na u sho'x qiyqiriqlar,  
Pokiza olovlar bilan isingan,  
Uning ruhini hech o'zgartirmagan.

## XXI

Yosh, o'smir chog'idan Olgaga asir,  
Ishqning azoblarin bilmasdan hali,  
U qizning go'dakcha sho'xligiga bir  
Mehribon shohidi – uning yuragi.  
O'rmonlarning quyuq ko'lankasida,  
Sherikdi Olganing hangamasiga.  
Otalari qo'shni va do'st, so'zlashgan,  
Quda bo'lishlikni ular ko'zlashgan.  
Ma'sum latofat-la to'lib yashnadi.  
Tinliqda, parilar oromgohida,  
Ota-onasining ko'zi oldida,  
Nozik bir gul kabi Olga gulladi,  
Bir gulki, bilinmas qalin maysada  
Asalariga-da, kapalakka-da.

## XXII

U qiz bag'ishlagan edi shoirga  
Yoshlik shavqlarining ilk xayolini,  
Ruhlantirdi u qiz kelib fikrga  
Yosh shoir nayining ilk faryodini,  
Alvido, endi ey oltin o'yinlar!  
Qalin o'rmonlarni sevdi shu kunlar,  
Sevdi u xilvatni, sukut-tinlikni,  
Tunni, yulduzlarni va oydinlikni,  
Samoning qandili oyga kechmishda  
Oqshom qorong'isi kezishlarimiz,  
Sirli qiynalishlar nashasini biz  
Bag'ishlamasmidik ko'zyoshlar ila...  
Endi ko'zlarimiz shu oyga boqar  
Faqat unda ko'rar xira bir fonar.

## XXIII

Olga har vaqt kamtar, har vaqt adabli,  
Hamisha tong kabi edi u quvnoq.  
Sof dili shoirning umri singari  
Sevgi bo'sasidek dilbar, isinchoq,  
Ko'zlari osmondek tiniq, zangori,  
Uning tabassumi, sarg'ish kokili,  
Raftori, tovushi va yengil qomat  
Bezardi Olgani... lekin, siz faqat  
Har qanday romanni olsangiz, unda  
Toparsiz rasmini, ko'p yoqimli u,  
Ilgari o'zim ham sevgan edim-ku,  
Ammo zerikkanman undan o'lguncha,  
Shuning-chun, o'quvchim, ruxsat so'rayin,  
Uning opasi-la tanishtirayin.

## XXIV

Opasining oti edi Tatyana... (12)  
Bu romanning nafis sahifalarin  
Shunday ism bilan birinchi daf'a,<sup>73</sup>  
Biz musharraf qildik, hech tortinmayin.  
Garchi bu yoqimli, ohangdor ism,  
Bu bilan bog'liqdir, men bilamankim,  
O'tmish cho'rixona xotiralari.  
Hammamiz e'tirof qilaylik, rosti,  
Bizlarda ham bizning otlarimizda  
Did bilan nafosat degan narsa oz.  
(She'rlar haqida indamasak soz);  
Maorif va urfon yuqmamish bizga.  
Faqat undan bizga qolmishdir meros  
Soxta noz-u ado – mana shu xolos.

## XXV

Demak, uning ismi Tatyana edi.  
Na u singlisining go'zalligi-la,  
Yuzining qip-qizil olmaday rangi  
Bilan u ko'zlarni tortmas balki-da...  
U kamso'z, yovvoyi, yuzlari dardli,  
Hurkakdi o'rmonning kiyigi kabi.  
O'zining tug'ishgan oilasida  
Ko'rinar yot qizcha kabi Tatyana...  
Bilmasdi u sira erkalanishni  
Na otasiga-yu, na onasiga;  
Bolalar ichida istamas sira  
O'yinni, sakrashni, har yon chopishni;  
Ko'pincha deraza yonida yolg'iz,  
Butun kun jimgina o'tirardi qiz.

## XXVI

Beshikka belangan kunlardan buyon  
O'ychanlik bu qizga o'rtoq edi chin.  
Qishloqda jim oqar osuda zamon  
Xayollar-la bezar edi yuragin.  
Nozik barmoqlari bilmas ignani,  
Kergiga egilib, u bir kashtani,  
Turli naqshlar solib ipaklar bilan  
Xuddi chaman kabi jonlantirmagan.  
Hukmron bo'lishning bor alomati;  
Yuvosh qo'g'irchoqni o'ynab yosh bola,  
Kiborlik tartibi, nazokatiga  
Hazil-huzil bilan tayyorlanadi,  
Bola onasidan olgan sabog'in  
Takrorlab o'rgatar o'z qo'g'irchog'in.

## XXVII

Shu kichik yoshda ham hatto Tatyana  
Qo'g'irchoqlarni hech qo'lga olmasdi,  
Shahar xabarlari, moda haqida  
Qo'g'irchoqlarini gapga solmasdi.  
Bolalik sho'xligi nadir bilmagan.  
Qish chog'i qop-qora tunlar inarkan,  
Qo'rqinchli cho'pchaklar qalbini asir  
Qilardi... enaga yosh Olga uchun  
Hamma o'rtoqlarin yig'ib bir o'yin  
Qildirishga olib borganda hech bir  
O'yinni istamas edi Tatlanam;  
Yoqmas Tatlanaga na jarang kulgi,  
Bolalarning yengil ermagi, xulqi...

## XXVIII

Rangsiz osmonning to'p-to'p yulduzi  
Asta-asta so'nib yo'qolar ekan,  
Balkonda o'tirib, jimgina o'zi  
Shafaq tomoshasin sevardi qalban;  
Yerning bir chekkasi sekin nurlanar,  
Tongning xabarchisi – shamollar esar.  
So'ngra astagina ko'tarilar kun.  
Qish chog'i, kechaning zulmati butun  
Jahonning yarmisin sekin bosganda,  
Tumanli pardada oy qilsa yurish,  
Bo'sh, mudroq sukunat ichida xomush  
Erinchoq sharq uzoq orom olganda,  
Mo'ljalda uyg'onib, u turar edi,  
Sham yoqib, bir o'zi o'tirar edi.

## XXIX

Yoshlikdan yoqqandi unga romanlar;  
Roman-la unutdi har nimani ul;  
Richardson<sup>74</sup> va Russo so‘qqan yolg‘onlar,  
Uydirmalarga qiz qo‘ygandi ko‘ngil.  
Oqko‘ngil va sodda edi otasi  
Bir asr kechikkan zavqning egasi,  
Lekin kitoblardan ko‘rmasdi ziyon;  
Mutolaa qilmay o‘zi hech qachon,  
O‘yinchoq sanardi kitoblarni u,  
Qizining boshida naq tongga qadar,  
Yostiqlar tagida qay kitob yotar, –  
Bu haqda u sira chekmasdi qayg‘u.  
Aqldan ozardi uning xotini  
Eshitarkan Richardsonning otini.

## XXX

Richardsonni sevdi xotin har mahal,  
O‘qigani uchun emas sababi,  
Grandisonni u Lovlasdan<sup>75</sup> afzal (<sup>13</sup>),  
Ko‘rganligi uchun emas bu sevgi,  
Faqat, o‘tgan yillar beka Alina –  
Moskvali ammaning qizi ko‘pincha  
U zotlarni bunga uqdirgan edi,  
U vaqt kuyov edi hozirgi eri,  
Ko‘ngliga yoqmasdi bu kishi lekin.  
O‘zining qalbi va idroki bilan  
Buning es-hushini ko‘proq band etgan  
O‘zga bir yigit-chun chekardi ohin;  
Bu Grandison-chi, olifta-tannoz,  
Armiya serjanti hamda qimorboz<sup>76</sup>.

## XXXI

U yigit singari bu ham hamisha,  
Kiyinardi moda, siymoga qarab,  
Lekin qiz ra'yini so'rmayin picha  
Eltadilar to'yga-nikohga sudrab.  
Xotinning dardini tarqatish uchun,  
Jo'naydi ongli er o'tmasdan uch kun  
O'z qishlog'i tomon, bunda yosh xotin,  
Kuyadi, qurshaydi kimlar atrofin.  
Dastavval tinmaydi uning ko'z yoshi.  
Erdan chiqishga ham bo'ladi tayyor.  
Mashg'ul qildi uni keyincha ro'zg'or.  
Odatlandi, bo'ldi taqdiridan rozi.  
Odat, Xudovandning bir iltifoti,  
U, chindan baxtlarning o'rnin bosadi <sup>(14)</sup>.

## XXXII

Hech bir narsa ila daf' etilmagan  
Qayg'usini odat yupantirgandi.  
U qilgan katta bir kashfiyot tezdin  
O'zini tamoman ovuntirgandi.  
Ish bilan osuda chog' orasida,  
Kashf etdi na tarzda erni idora  
Qilish lozim mutloq bir hokim kabi,  
Shunda bo'laverdi har istagani.  
Ish-kuchga qatnashib turar edi u.  
Qish uchun u tuzlar edi qo'ziqorin,  
Ro'zg'or qo'lda, qirqar malaylar sochin:<sup>77</sup>  
Odatdi har shanba hammomga tushuv,  
Urar cho'rilarini g'azabi qaynoq,  
Barchasin qilardi erdan beso'roq.

### XXXIII

Bir vaqtlar o'z qoni bilan yozardi<sup>78</sup>  
U nozik qizlarning albomlariga,  
Praskovya-Polina deb chaqirardi,<sup>79</sup>  
So'zlardi qo'shiqday u cho'zibgina,  
Korsetni<sup>80</sup> judayam tor kiyar edi,  
Rus so'zlarin fransuzcha singari  
Ayta bilar edi dimog'i bilan.  
Biroq o'zgardi u tezda tamoman;  
Korsetni, albomni va knyaz xonim  
Polinani, hissiy she'r daftarini  
Unutdi, avvalgi Selinasini  
Endi Akulka deb ataydi doim.  
Yangi qiyofaga kirib oladi:  
Guppi va qalpoqcha kiyib oladi.

### XXXIV

Faqat eri jondan sevardi uni,  
Aralashmas xotin ishiga hech choq.  
Topshirib qo'ydi u bor-u yo'g'ini,  
O'zi yer va ichar beparvo mutloq.  
Tinchgina oqadi uning kunlari.  
Ba'zan yig'ilishar kechqurunlari  
Qo'ni-qo'shnilardan dilkash oila,  
Takalluf bilmagan bir to'da jo'ra,  
Dardlashar, bir qadar g'iybat qilishar.  
Undan, mundan kulib qizir hangama,  
Soatlar o'tadi. Shunda Olgaga  
Choy hozirlash uchun farmon berishar,  
Keyin kechki taom, so'ng uyqu dami.  
Mehmonlar qo'radan jo'naydi jami.



## XXXV

Osoyish turmushda saqlashgan barcha  
Qadimning suyakli urf-u odatin;  
Qilishardi sermoy maslinitada <sup>81</sup>  
Ularning uyida rus cho‘zmalarin.  
Yilda ikki daf’a tutishar ro‘za;  
Ot aylanmachoqni sevishar juda,  
Irim-fol qo‘shig‘in, ko‘pchilik lapar,  
Diniy bayram kuni, xalq esnab tinglar –  
Ekan duolarni shunda bir nafas  
Ular ko‘p sham’larga telmirib yuvosh  
To‘kishardi ikki-uch qatra ko‘zyosh;  
Havoday kerakdi ularga kvas.  
Mehmonlarga ular tortardi taom  
Mansabga rioya qilib batamom.<sup>82</sup>

## XXXVI

Shu yo‘sin qartaydi yashab ikkisi.  
Nihoyat bir kuni ochildi asta  
Erining yuziga qabr eshigi,  
U kiydi boshiga yangi guldasta.  
Ko‘plarga boqqanda yuragi asl,  
O‘z sodiq xotini, bola-chaqasi  
Va o‘z qo‘shnilari tutdi motamin,  
O‘lgan edi tushki ovqatga yaqin.  
U edi soddadil, muloyim barin,  
Jasadi ko‘milgan joyga tashla ko‘z,  
Qabr toshi uzra yozilgan shu so‘z:  
Ojiz bir gunohkor, Dmitriy Larin,  
Ollohning bandasi va brigadir,<sup>83</sup>  
Shul toshning tagida orom oladir.

## XXXVII

Tug‘ilgan diyorga kelgani hamon  
Qo‘shnining u jimjit oromgohini  
Ziyorat ayladi Lenskiy, shu on  
Bir hovuch tuproqqa chekdi ohini;  
Qalbini bir hasrat qopladi uzoq  
«*Poor Uorick*»<sup>84</sup> dedi hasratlanaroq – (15)  
«Qo‘lida ko‘tarar edi u meni,  
Ko‘p chog‘ o‘ynar edim bolalik payti –  
Ko‘ksida Ochakov medalini<sup>85</sup> man!  
U menga atagan edi Olgani.  
Aytardi: u kunni ko‘rolamanmi?...»  
Samimiy qayg‘uga ko‘kragi to‘lgan  
Lenskiy qo‘shniga atab shundayoq  
Yozdi bir marsiya – g‘am bilan qaynoq.

## XXXVIII

Xuddi o‘sha yerda ota ham ona  
Mahzun yozuvlari; ko‘zida yoshi,  
Tavof qildi ajdod tuprog‘in yana...  
Hayhot! Bu hayotning yo‘lida oniy  
Bir o‘rim singari nasllar bir-bir,  
Sirli bir iroda, qazo va taqdir  
Hukmicha unadi, pishib, tushadi,  
Boshqalar ularning izin tutadi.  
Shunday, bizning yengil, betashvish bo‘g‘in  
O‘sadi, hayajon ila qaynaydi,  
Bobolarni qabr sari haydaydi.  
Keladi bizning ham vaqtimiz bir kun,  
Bizning nabiralar qutli soatda,  
Bizni-da dunyodan surar, albatta!

## XXXIX

Dam g'animat, suring dunyo nash'asin,  
Sho'x hayot bilan mast bo'ling, jo'ralar!  
Men esa payqayman uning hechligin,  
Berilmayman unga boshqalar qadar.  
Sharpalar uchun men ko'zni yumganman,  
Lekin, uzoq, xira umidlar, ba'zan  
Qalbimga hayajon soladi yolg'iz,  
Bu yerda ozgina qoldirmasdan iz  
Dunyoni tark etmak men uchun hazin.  
Yashayman, yozaman madh uchun emas.  
Faqat men, balki-da, istardim mahzun  
Nasibim – chekimni shonlantirayin,  
Orzu qilardimki, sodiq do'st kabi  
Loaqal bir sado eslatsin mani.

## XL

Bu sado kimningdir qalbiga yetar,  
Ehtimolki, taqdir saqlab qoladi,  
Men to'qigan misra, qo'shiq-qit'alar  
Botmas unutilish nahriga, balki...  
Ehtimol (bu faqat maqtanchoq armon!)  
Ko'rsatib kelgusi choqda bir nodon  
Menim dong'i ketgan suratimni-da,  
Xo'p shoir edi bu!– deydi ichida...  
Ey she'r parilarin dilbar oshig'i,  
Bu mening qanotli uchar ijodim  
O'z xotirasida saqlashga xodim,  
Keksaning boshida sharaf tojini  
Lutfkor qo'li-la siypalaydigan,  
Mening tashakkurim qabul etkil, san!



## UCHINCHI BOB

Elle était fille, elle était amoureuse.

*Malfilatre*<sup>86</sup>

### I

«Qayerga? Hayronman shoirlarga men!» –  
– Jo‘nashim kerakdir, xayr, Onegin! –  
«Men seni tutmayman, menga ayt-chi sen  
Qayda o‘tkazasan, kechgi paytlaring?»  
– Larinlar uyida. – «Mana bu qiziq.  
Kechirgil! Sen uchun emas qiyinliq  
Har kechni behuda mahv etish unda?»  
– Hech bir-da. – «Tushuna olmayman bunga,  
Shu yerdan bilaman nima ekanin:  
Birinchidan (eshit, men haqlimi, yo‘q?);  
Soddagina bir rus oilasi; to‘q;  
E‘zoz-ikrom ila kutar mehmonin,  
Qiyom va choy; keyin yomg‘ir va kanof  
Va og‘il haqida gap-so‘z behisob...»

### II

– Men bunda bir zarar hali ko‘rmayman.  
«Zerikish-chi, do‘stim, mana bu ofat».  
– Sizning kiborlardan nafratlanaman,  
Oila o‘chog‘i xushroqdir albat,  
Chunki, men bu yerda,.. – «Yana ekloga!<sup>87</sup>  
Bas endi, azizim, Tangri haqiga.  
Na deyay, afsuski, jo‘nayatirsan.  
Ha, tingla, Lenskiy; mumkinmasmikan  
Fillidani<sup>88</sup> menga bir ko‘rish, xolos,

Fikrning, qalamning, ko‘z yoshining, ham  
Qofiya-pofiya... boisin, oshnam?!  
Sen meni taqdim et» – Hazilni qo‘y –«Ros»  
– Men xursand – «Xo‘p, qachon?» – Istasang hozir.  
Ular bizni jon deb kutib oladir.

### III

Boraylik. – Ikki do‘st chopdi chanada.  
Kelishdi; qadimgi zamonning ba‘zan  
Mashaqqatli bo‘lgan e‘zosi yana  
Ularga sochildi ortiqcha haddan.  
Bajarilar ma‘lum odat batamom:  
Talinkachalarda keltirib qiyom,  
Kichkina stolga qo‘yarlar, yana  
Meva suvi bilan to‘la ko‘zacha

.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....

### IV

Ular otlarini shig‘ab haydagan,  
Eng qisqa yo‘l bilan uyga uchadir. <sup>(16)</sup>  
Qahramonlarimiz ne so‘zlar ekan,  
Yashirincha quloq solaylik hozir:  
– Xo‘sh, qalay, Onegin? Esnaysan tag‘in?  
– «Odatim, Lenskiy». – Negadur lekin  
Ko‘proq zerikibsan. – «Yo‘q, qani birday;  
Birpasda dalani qorong‘i talay

Bosmish! Hayda, hayda, ey Andryushka!  
Uh; bu joylar qanday rasvo; bema'ni!  
Aytganday, Larina sodda, samimiy;  
Ham muloyim kampir ekan-da juda.  
Qo'rqamanki, meva suvi nogihon  
Yetkazmasa edi menga bir ziyon.

## V

Sen ayt-chi: qizlarning qaysisi Tatyana?)»  
– Ha, u, Svetlana<sup>89</sup> singari g'amli  
Va indamas bir qiz; kirdi-da, asta  
Deraza oldida o'tirdi hali. –  
«Nahotki singlisin sevgansan, do'stim?»  
– Xo'sh, nima? – «Sen kabi shoir bo'lsaydim,  
Tanlagan bo'lardim u choq opasin.  
Olga chehrasida hayot yo'q, bu chin,  
U xuddi Vandika Madonnasiday;  
Yuzi yup-yumaloq, qizil va semiz,  
Ana shu bema'ni ufqda yolg'iz  
Osilgan anavi misli ahmoq oy...»  
Vladimir javob berib dimog'dor,  
So'ngra indamadi yo'l bo'yi nochor.

## VI

Oneginning kelib ketishi biroq;  
Larinlar uyida har kim uchun ham  
Zo'r ta'sir ko'rsatdi, yaqin va uzoq  
Qo'ni-qo'shnilarni yupatdi biram,  
Har xil gap-so'z, taxmin quvdi bir-birin.  
Ta'bir qilishardi hamma yashirin,  
Boshlandi hazillar, har xil mish-mishlar,  
Tatyanaga kuyov tayin qilishlar.

Tasdiqlashar edi ba'zilar hatto,  
Har narsa tayyormish to'y-nikoh uchun,  
Faqat bir mod uzuk topilmagan-chun,  
To'y biroz to'xtalib qolganmish go'yo...  
Lenskiyning to'yi haqida ko'pdan,  
Ular masalani yechib qo'yishgan.

## VII

Shunday g'iybatlarni yozg'iribgina  
Tinglardi Tatyana, faqat yashirin,  
Dilni lim to'ldirgan saodat ila  
Unga beixtiyor burardi fikrin.  
Qalbiga bir fikr bo'libdi ulfat;  
Fasli kelmish, dilda yondi muhabbat,  
Yerga tushgan bir don kelganda fasli,  
Bahor otashidan jonlangan kabi.  
Uning xayollari ko'p choqdan buyon,  
Qayg'u, ishq ichida sekin yonardi.  
Xatarli g'idoni xayol qo'msardi.  
Qalbi bir uzulish, tolsh ko'p zamon  
Uning yosh ko'kragin ezar, siqardi,  
Kim bo'lsa biriga... qalb intizordi.

## VIII

Kutgani kelmishdi, ochildi ko'zlar;  
Tatyana aytadi: bu o'sha odam!  
Hayhot! Endi butun tunlar, kunduzlar,  
Qizg'in, tanho uyqu, har bir narsa ham  
U bilan to'lgandir, bu qizga tag'in  
Har nima sehrli kuch-la tinmayin,  
Uni yodlatardi; va Tatlanani  
Bezdirardi shirin so'zlar sadosi,  
G'amxo'r cho'rilarining boqishlari ham,  
Dardlariga sho'ng'ib o'tirar o'zi

Quloqqa kirmasdi mehmonlar so‘zi,  
Ularni qiz qarg‘ar – ular ko‘p beg‘am,  
Kutilmagan vaqtda kelishar, biroq  
Ezmalik qilishar o‘tirib uzoq.

## IX

Bu qiz endi qanday zo‘r diqqat bilan  
O‘qiydi lazzatli biron romanni!  
Qanday sehrlanish bilan, yurakdan  
Berilib ichadi go‘zal yolg‘onni!  
Xayolning baxtiyor quvvati ila  
Jonlantirilgan u shaxslar: Yuliya –  
Valmarning go‘zal xushtori dilbar,  
Yana Malek-Adel<sup>90</sup> bilan de-Linar<sup>91</sup>,  
Ham Verter<sup>92</sup> – isyonkor, azob bolasi,  
Ismi uyqumizni keltirgan odam,  
Ya‘ni u mislsiz Grandison ham (<sup>17</sup>)  
Xayolparast qiz-chun bular hammasi  
Yakka bir suratni aks etar hamon,  
Bari Oneginni eslatar har on.

## X

Tatyana sevgili ijodchilarin,  
Klarisa,<sup>94</sup> Yuliya,<sup>95</sup> Delfina kabi<sup>96</sup>  
Qahramoni xayol qilaroq o‘zin,  
O‘rmonlarning jimjit qo‘ynida daydi  
Kezadi xavfli bir kitob-la tanho.  
Kitobdan qidirar va topar hatto  
O‘z sirli otashin, o‘z xayollarin,  
Yurakni to‘ldirgan orzu-havasin,  
Qahramonlar yanglig‘ xo‘rsinar yana,  
Ularning qayg‘usi yuragiga yor.  
Qiz shivirlab o‘qib qiladi takror  
Suygan qahramoni uchun bir noma...



Mayli, kim bo'lmasin, bizning qahramon,  
Har holda aniqki, emas Grandison.

## XI

Otashin san'atkor, bir vaqt ulug'vor –  
Ohangdor yo'sinda sozlab uslubin,  
O'z qahramonini ajab ma'nodor  
Va barkamol qilib bezardi tusin.  
Hamisha haqsizlik dastidan shaydo  
Quvg'indi insonni shoir doimo  
Yaratdi hassos ruh va keng aqlga,  
Hamda jozibali siymoga ega.  
Harvaqt hayajonli, ruhli qahramon  
Toza ehtiroslar alangasida  
Har lahza tayyordi bo'lishga qurbon.  
Va so'nggi qismining xotimasida  
Yomonlik hamisha tortardi jazo,  
Yaxshilik gultojga bo'lardi sazo.

## XII

Tuman ichidadir bukun fikrlar,  
Uyqu keltiradi bizlarga axloq,  
Iltifot ko'rmoqda romanda ham shar,<sup>97</sup>  
Zafar nog'orasin u chalar shu choq.  
Britan muzasining uydurmaları,  
Yosh qizning uyqusin notinch qiladi,  
Bir sanam bo'lmishdir uning-chun hozir,  
Yoki xayollarga berilgan Vampir<sup>98</sup>,  
Yoki sayoq Melmot<sup>99</sup> – bu badbin odam  
Yoki mangu juhud<sup>100</sup>, va yoki – Korsar<sup>101</sup>,  
Va yoki sirlarga cho'mgan Sbogar<sup>102</sup>, (18)  
Umidsiz va barbod xudbinlikka ham  
Lord Bayron kiydirdi zo'r havas bilan  
G'amgin romantizm libosin o'tdan.

### XIII

Do'stlarim, chiqadi bundan ne ma'no?  
Tangri irodasi ila, balki, man  
Shoirlikka butun bergum iste'fo,  
Qurar yangi shayton ichimda maskan.  
Apollon tahdidin mensimay sira,  
Bo'ynimni egarman yuvosh nasrga.  
Xushhol g'urubimni ana u zamon  
Band etadi eski tarzdagi roman.  
Men yomonliklarning sirli azobin  
Unda tasvir etib, solmayman dahshat  
Balki, soddagina yozaman faqat  
Rus oilasining keng masallarini,  
Tasvirlarman dillar muhabbatini  
Va qadim davrimiz urf-odatini.

### XIV

Hikoya qilaman, otaning, keksa  
Tog'aning turmushi, sodda gapini;  
Daraxt tagi, buloq boshida esa  
Bolalarning maxfiy uchrashmasini;  
Tasvirlarman baxtsiz rashkning qiynashin,  
Hijron va yarashuv fasli ko'z yoshin.  
Yana urushtirib, nihoyat, nikoh  
Gultojiga ularni eltaman nogoh...  
Ehtirosli ishqning tilin eslarman,  
Hasratga muhtalo sevgi so'zlari –  
Bu yolqinli so'zlar bir chog' o'zlari  
Go'zal bir jononning poyida birdan  
Tilimdan quyulgan edi, men bugun  
U so'zlarni yoddan chiqardim butun.

## XV

Sevikli Tatyana, ma'sum Tatyana!  
Sen bilan birga men ko'zyosh quyaman,  
Olifta zolimning qo'liga ana  
Butun taqdiringni berib qo'ygansan.  
Jonim, mahv o'lasan; dast avval ammo  
Yuragingda porloq umidlar paydo,  
Sirli saodatni imlaysan, tag'in  
Totib bilajaksan hayot safosin.  
Ichasan orzuning shirin zahrini.  
Xayollar quvmoqda seni izma-iz:  
Har yerda tasavvur qilasan yolg'iz  
Baxtli uchrashishlar tin manzilini...  
Har yerda qarshingda turadi doim,  
Seni yo'ldan urgan u mash'um zolim...

## XVI

Betinchdir Tatyana sevgi tufayli,  
Bog'chaga chiqadi, qayg'uradi u;  
Nariroq yurishga qolmaydi mayli,  
Xumor ko'zlarini suzadi suluv:  
Ko'kragi durkundir, yanoqlari ham  
Oniy yolqin bilan yonadi bir dam.  
Nafasi qotgandir dudoqlarida,  
Ko'zi porlar, shovqin quloqlarida...  
Tunda oy soqchiday chiqib aylanar  
Samoning cheki yo'q keng gumbazini.  
Og'ochlar qo'ynida bulbul sozini,  
Jarang kuylarini boshlab yuborar...  
Qorong'i; uxlamas Tatyana sira,  
So'zlashar enaga bilan jimgina,

## XVII

«Ena, uyqum kelmas: bu yer shunday dim!  
Derazani och-da, o'tir yonimga».

– Nima bo'ldi senga, Tatyana, nima?–

«So'zlaylik o'tmishdan, ziqdir yuragim»

– Nima so'zlay, jonim! Men bir zamonlar

Esimda saqlardim jinlar, shaytonlar

Haqida burungi masal, ertakdan...

Hammasini kishi unutar ekan.

Hammasi qorong'i endi, Tatyana:

Nima bilgan bo'lsam, unutdim hozir.

Notavon qarilik yetdi-ku axir!..

– «Hikoya qilib ber, sen menga, ena,

So'zla, sen u ko'hna, kechmish yillardan:

Sen-da u choqlarda hech sevganmisan?» –

## XVIII

– Voy, qo'zim, Tatyana! U choqlarda biz  
Sevgi nimaligin eshitmagandik.

Marhuma qayin onam meni, shubhasiz,  
Dunyodan haydardi, qolmasdim tirik. –

«Bo'lmasa, sen qanday er qilding, ena?» –

– Xudoning buyrug'i shu ekan. Vanya

Boyoqish yosh edi mendan, chirog'im,

Men esa u vaqtda o'n uchda edim,

Qatnadi sovchilar bir-ikki hafta

Bizning oilaga... va keyin otam

Fotiha o'qidi, so'ngra ish tamom.

Qo'rquvdan men zor-zor yig'ladim yakka...

Yig'i-sig'i bilan sochim o'rdilar,

Lapar-la cherkovga olib bordilar...

## XIX

Meni uzatdilar yot oilaga...  
Sen tinglamaysan-ku meni, oppog'im...  
«Oh, mening qayg'um, zo'r, bilmaysan ena,  
Shu topda ko'nglim g'ash bo'lmoqda, jonim!  
Yig'lagim va faryod qilg'im keladi!..»  
– Sog' emas, kasalsan, ko'zimning nuri,  
Tangri, o'zing rahm et, ofatdan asra!  
Qizim, na istasang, shuni tez so'ra...  
Tanlaring yonmoqda... ezgi suv bilan  
Yuz-ko'zing yuvayin...– «Men kasal emas:  
Men.. men... bilasanmi, ena... sevganman»  
– Qo'zichog'im, yor bo'lsin Tangri har nafas! –  
Titroq qo'lin ochib qizga u xasta  
Pichir-pichir duo o'qidi asta...

## XX

Butun dardi bilan kampirga yana  
Shivirlab: «Sevgiga tutildim», dedi.  
– Mening jigarporam, kasalsan! Tingla!  
«O'z holimga qo'y-chi, qalbimda sevgi»...  
Shu choqda samoda oy ham porladi.  
Yumshoq, sirli nurga u jim o'radi  
Tatyananing so'lg'in, dardli husnini,  
Parishon, yoyilgan ipak zulfini,  
Nurlatdi ko'zyoshin... yosh qiz yonida  
Pastgina kursida pisib o'tirgan,  
Oq sochli boshiga ro'molcha o'ragan,  
Paxta nimcha kiygan kampirchani-da;  
Olamni ilhombaxsh oy nurga ko'mgan,  
Mudrab hamma narsa sukutga cho'mgan.

## XXI

Uzoq diyorlarga sayr etib uchar  
Oyga jim telmurib, Tatyana qalbi...  
Birdan qiz boshiga bir fikr tushar:  
«O‘z holimga qo‘yib ketaver, meni!  
Menga ber bir qalam va qog‘oz, ena,  
Stolni beri sur; yozay tezgina,  
Xayr endi». Hozir u qolgandi yolg‘iz,  
Atrof jim. Ko‘kda oy kezardi eshsiz..  
Kursiga yaslanib Tatyana yozar,  
Faqat Yevgeniy bor tushunchasida;  
Uzoq o‘ylanmagan ishqiy xatida  
Ma’suma bu qizning sevgisi yonar.  
Maktub tayyor bo‘ldi. Sekin bukildi...  
Tatyana! Kim uchun bu xat bitildi?

## XXII

Bilardim erishib bo‘lmas, so‘z uqmas,  
Qish kabi sovuq, sof jononlar ham bor.  
Ularning xislati aqlga sig‘mas,  
Ularga yalinish, yolvorish bekor;  
Hayrondim ularning modli kibriga,  
Ularning tabiiy fazilatiga;  
Qochgandim ulardan, bo‘layin iqror,  
Dahshat-la o‘qigan edim, yodda bor,  
Ular manglayida do‘zax lavhasin<sup>103</sup>, (19)  
*Har qanday umidni sen keskil mudom!*  
Sevmoq ular uchun ofatdir tamom.  
Qo‘rqitish ularga shodlik berar chin,  
Neva bo‘ylarida shular singari  
Xonimlarni siz ham ko‘rgansiz, balki.

### XXIII

Yuvosh oshiqlarning oralarida  
Qilig'i boshqacha xonimlar ham bor,  
Yolqinli ohlarga, madhiyalarga  
Ular beparvolik qilar ulug'vor.  
Xo'sh, men ne ko'rdim, ne qoldirdi hayron?  
Qahrli boqishlar bilan nogihon,  
Nozik ishqni ular cho'chitib lekin  
Uni jalb etishni bilardi tag'in.  
Loaqal, ularda bor rahm-u shafqat,  
Loaqal, ularning tovushi ba'zan  
Tuyuladi shunday, latif, va'dachan.  
Xovliqqan soddadil yosh oshiq albat,  
O'zini unutib qo'yadi, shunday  
Tashvishli jononga ergashar tinmay.

### XXIV

Latif bir soddalik bilan qiz boyaqish,  
Aldashni bilmasdan suyar vafodor.  
Tanlagan xayolga chuqur inonish –  
Tatyana aybimi? Bilmoqlik darkor!  
Shuning uchunmikin: samimiy suyar,  
Hisning da'vatiga faqat bo'ysunar,  
Va qalbi inonar shunday tezgina?  
Shuning uchunmikin: Tatyanasiga  
Tangri baxsh etmishdir keng aql bilan  
Isyonkor xayolni, u tengsiz boshni,  
Jonli irodani va keng qarashni;  
Yuragi yolqinli va nozik ekan.  
Sevgi hislarining yengilligin siz,  
Nahotki, bir marta kechirmasangiz?

## XXV

Ishvakor xonimlar o'ylar sovuqqon.  
Tatyana hech hazil qilmay sevadi,  
Sevgiga u mutlaq fido qilar jon,  
Xuddi bir yoqimtoy bola singari;  
U aslo demaydi; qo'y, qoldiramiz;  
Shundan ishq bahosin ko'paytiramiz,  
To'rga tushiramiz oshiqni qulay,  
Dastlab umid bilan sanchamiz shunday  
Yorning izzat-nafsin, so'ng taraddud-la  
Ko'nglini qiynaymiz, va bundan keyin  
Jonlatamiz yoqib rashkning otashin:  
Bo'lmasa zavqlardan bezgan vujud-la  
Zanjirni har soat uzib qochish-chun  
Shaylanar har oshiq – hiylakor tutqun.

## XXVI

Yana qiyinchilik sezaman bu on,  
Ona-yurt nomusin qutqarish uchun,  
Tatyana maktubin beshak, begumon,  
Tarjima qilishga majburman bugun.  
Yomon bilar edi ruschani bu qiz,  
O'qimagan edi jurnallarimiz.  
Tatyana o'zining ona tilida  
Fikrin so'zlar edi qiyinlik ila,  
Demak, yozgan edi u fransuzcha,  
Ne qilamiz! Yana etaman takror,  
Bu kungacha ishqni hech xonim – dildor  
Bayon qilmagandir bir daf'a ruscha.  
Boy mag'rur tilimiz bu kunga davr  
Maktub prozasiga o'rganmamishdir.



## XXVII

Xonimlarni ruscha o'qishga majbur  
Qilmoq istaydilar, bu dahshatli hol!  
Ularni mumkinmi etmoq tasavvur:  
Qo'llarida bo'lsin bizning bir jurnal!<sup>(20)</sup>  
Shoirlarim, guvoh bo'lingiz bir zum,  
To'g'ri emasmi bu: dilbar va so'lim  
Maxluqlar haqida she'rlar yozdingiz,  
Yozdingiz ularni maxfiy va sassiz,  
Siz bag'ishladingiz ularga ko'ngil,  
Ular emasmi rus tilin juda  
Zaif va kuch bilan egallab, xuddi  
Shu tilni o'xshatib buzganlar butkul,  
Ular dudog'ida begona bir til,  
Ona tili bo'lib ketmasmi yengil!

## XXVIII

Duch kelmasin aslo menga, Xudoyim,  
Balda, yo yo'l usti biron dahlizda  
Sarig' ro'mol o'ragan seminarist, yokim<sup>104</sup>  
Qalpoqcha kiygan bir akademik-da!<sup>105</sup>  
Tabassum uchmagan la'li lab kabi,  
Grammatik xato bo'lmasa asli  
Men ruscha jumlaning aslo sevmayman.  
Ehtimol, boshimga bu balo bitgan,  
Yangi jononlarning bu yosh bo'g'ini,  
Jurnallar zorini tinglab bir qadar,  
Grammatikani bizga o'rgatar;  
Odat ham qilishar she'r o'quvni,  
Lekin, men... Ne daxli bor menga, zotan?  
Qadimgi zamonga sodiq qolarman.

## XXIX

Noto'g'ri, beparvo tuzilgan jumla,  
So'zlarni taxminiy gapirib bermoq,  
Ko'ksimda uyg'otar hayajon – larza,  
Avvalgi yillarda bo'lganday harchoq.  
O'kinishlik uchun menda yo'q mador,  
Menga yoqimlidir gallitsizmlar,<sup>106</sup>  
Naq o'tmish yoshlikning gunohi kabi,  
Xuddi Bogdanovich she'ri singari.<sup>107</sup>  
Yetar, bas. Go'zalim maktubi bilan  
Mashg'ul bo'lish uchun kelmishdir fursat.  
So'z bergandim, endi yetarmi jur'at?  
Undan voz kechishga hozir tayyorman.  
Men bilamen: nozik Parni qalami<sup>108</sup>  
Bizning bu kunlarda moddan tashqari.

## XXX

Bazmlar va yoniq qayg'u kuychisi, (21)  
Men bilan bo'lsayding birga shu paytda,  
Azizim, noqulay o'tinch-la seni  
Tinchsizlatgan bo'lar edim, albatta;  
Oshufta u qizning ajnabiy tildan –  
Olgan so'zlarini sehrkor, ravshan  
Maqomlarga solib bergil sen, deya;  
Qayda sen? Kelaqol: huquqim senga  
O'zim topshiraman ta'zimlar bilan...  
Huzunli qoyalar ichida lekin,  
Fin yeri bag'rida to'qib kuylarin  
Madh-u sanolarni unutilib qalban,  
Tentirab u yurar va uning ruhi  
Eshitmas men chekkan alam-qayg'uni.

## XXXI

Tatyana maktubi ko'zim o'ngida;  
Men uni tabarruk deya asrayman,  
O'qiyman naqadar sirli dard ila,  
Uni o'qib, o'qib qoniqolmayman.  
Bu mayinlikni kim etmish talqin?  
So'zlarning bu loqayd tovlangan rangin?  
Nozik safsatani talqin etdi kim?  
Puchak so'zlari ham shirin, bejirim.  
Bu so'zlar xatarli ham dilcash haddan.  
Men anglayolmayman. Va lekin mana  
Hali to'la emas kuchsiz tarjima:  
Bu – rangsiz ko'chirma jonli lavhadan.  
Yo bu o'rganmagan qiz talabalar  
Freyshits<sup>109</sup> kuyini chalganga o'xshar.

### T a t y a n a n i n g O n e g i n g a m a k t u b i

Men sizga yozaman; yana ne darkor?  
Ne deya bilaman sizga man yana?  
Lekin bilamanki, sizning ixtiyor  
Jazo bersangiz ham menga nafrat-la.  
Qora yozmishimga bir tomchi qadar,  
Marhamat va shafqat qilg'aysiz lekin.  
Tashlab ketmagaysiz, yanchib xayolim;  
Avvallar men sukut etmoq istadim.  
Mayli juda siyrak, mayli haftada  
Qishlog'imizda men sizni bir daf'a  
Ko'rayin, tinglayin so'zingizni jim,  
Sizga bir og'iz so'z aytay-da keyin  
Yangi uchrashuvga qadar erta-kech  
O'ylayin, o'ylayin unutmazdan hech,  
Degan umid meni qucharkan sekin,

Inoningki, mening – shu uyalganim,  
Hech vaqtda tasavvur qilmaysiz, balkim...  
Faqat aytalarkim siz odamsuymas;  
Chet yoqa qishloqda zerikarmishsiz,  
Biz esa... joziba egasi emas,  
Ammo tashrifingiz biz uchun aziz!

Nega bizning uyga kelib ketdingiz?  
Tashlandiq qishloqning bir go'shasida  
Sizni hech ko'rmagan bo'lardim essiz...  
Achchiq azobni-da bilmasdim sira.  
Tajribasiz qalbning hayajonini  
Bir kuni, kim bilur, men yengib mahkam,  
Ko'ngilga muvofiq topib bir hamdam  
Vafodor bir xotin, shafqatli ona  
Bo'lardim, totmasdan ishq savdosini.

O'zga birov bilan?! Yo'q, men jahonda  
Bag'ishlamas edim kimsaga qalbm!  
Taqdirida yozilgan o'zgarmas aslo,  
Tangri irodasi: sendamish chekim!  
Butun hayotimning edi murodi,  
Sen bilan uchrashuv, sen bilan visol,  
Bilamanki, seni yubormish Tangri;  
Qabrgacha meni himoyangga ol!..  
Tushimda ko'rinish berdi xayoling;  
Ilg'ab bo'lmasa-da go'zalding ayni.  
Fusunkor nigohing sehr etdi meni,  
Ruhimda jaranglab ketdi ovozing.  
Ko'pdandir... bir ro'yo emas edi bu!  
Kirishing bilanoq tanidim darrov,  
Tilim tutilgandi, tanimda olov.  
Va fikran derdimki, uning o'zi-ku!  
Rost emasmi? Seni tanidi tuyg'u:  
Yo'qsilga uzatar ekan sadaqa,  
Yoki to'lqinlangan ruh iztirobin

Namoz-niyoz ila ovutgan choqda,  
Men bilan so‘zlashding tinlikda sokin?  
Mana shu lahzaning o‘zida menga  
Tiniq qorong‘ida ko‘rsatib jilva,  
Jimgina suqulib, boshim silagan  
Xuddi sen emasmi, ey dilbar xayol?  
Sen emasmi sevgi va sevinch bilan  
Umidning so‘zlarin shipshitgan xushhol?  
Sen kim: himoyachi bir farishtami?  
Yo‘ldan ozdiruvchi makkor odammi?  
Butun shak-shubhamni ey xayol, tez yech!  
Ehtimol, bo‘sh gapdir buning barchasi,  
Tajribasiz qalbga sarob bo‘lgan esh,  
Butunlay boshqadir tole’ lavhasi...  
Mayli, shunday bo‘lsa! Men o‘z qismatim  
Shu zamondan boshlab taqdim qilaman.  
Qarshingda oqizib yoniq ko‘zyoshim,  
Yolvorib himoyang men o‘tinaman.  
Sen bir faraz qil-chi, men yolg‘iz bir qiz,  
Anglamaydi meni hech kim bu yerda.  
Tushunchamda barbod bo‘lg‘usi erta,  
Halok bo‘lishga-da mahkumman sassiz...  
Men seni kutaman: bir nigoh ila  
Qalbning umidlarin jonlantir, yashat,  
Yo og‘ir ro‘yoni kes, sen achinma,  
Sazoga loyiq bir itob-la, hayhot!

Bitirdim! Dahshatdir ko‘zdan kechirish...  
Uyatdan, qo‘rquvdan qaqshaydi bu dil...  
Lekin, vijdongingiz menga kafilmish,  
Unga topshiraman o‘zimni dadil...

## XXXII

Tatyana uxlamay oh-voh tortadi.  
Maktubi qo‘lida damodam titrar;

Pushtirang konvertni yopishtiradi.  
Qiz lablari qaqroq, yoniq... u dilbar  
Chiroyli boshini egdi kiftiga;  
Yengil ich ko'ynagi tushdi ko'ksiga  
Uning latifgina oq yelkasidan.  
Endi oy botadi... Uzoqda vodiy  
Tumanlar ichidan yorishar... Anhor  
Kumushlandi; cho'pon nayining dodi  
Shu vaqt qishloqining ko'zini ochar.  
Mana tong, odamlar ko'pdan turganlar:  
Ammo Tatyana'miz bundan bexabar.

### XXXIII

Sezmaydi Tatyana tongning nurini,  
Boshni quyi solib o'tirardi qiz,  
Maktubga o'zining o'yima muhrini  
Bosishga qo'llari bormasdi yolg'iz;  
Lekin, sekingina eshikni ochib,  
Kiradi patnisda nonushta olib,  
Sochlari oqargan kampir – enaga.  
«Bolajonim, turgil, vaqt alla-palla:  
Voy, go'zal dilbarim, tayyor ekansan!  
Oh mening saharxez kichkina qushim,  
Tun oqshom qo'rquvdan ketgandi hushim!  
Tangriga shukurki, sog'lom ko'raman!  
Tundagi qayg'ungdan yo'q bironta iz.  
Yuzlaring lolarang yonmoqdadir, qiz!»

### XXXIV

– Voh! Ena, sen menga bir muruvvat qil,  
«Oppog'im, buyurgin, qilaber farmon». –  
– O'ylama... to'g'risi... gumon qilmagil!  
So'zimni qaytarma, lekin, enajon –  
«Jonim, sen aytaber, Xudoyim kafil».

– Mana, nabirangdan maxfiy yuborgil  
Shu xatni ana u... eltsin O...ga...  
Qo‘shnimiz-chi anu... uqdirki, yana  
U yerda bir og‘iz gap gapirmasin.  
Aytib qo‘ymasin u mening otimni...–  
«Yoqimtoyim, kimga, bersin xatingni?  
Shu kunlarda miyam aynagani chin.  
Atrofdada juda ko‘p hamsoyalalar bor;  
Ularni sanashga menda yo‘q mador».

### XXXV

– Munchayam befahm bo‘lgansan, ena!–  
«Aziz jigarporam, endi qaridim;  
Tatyanam, zehnim xit – o‘tmas bo‘lmoqda,  
Bir vaqtlar, o‘tdi-da, men ziyrak edim,  
Janoblar og‘zidan na chiqsa – darrov...»  
– Oh, ena, oh, ena! Shunchami chaynov?  
Ehtiyojim bormi sening aqlingga?  
Ko‘rib turasan-ku, gap Oneginga  
Bir maktub yuborish haqida zotan. –  
– «Tushundim gapingni... qizishma, jonim!  
Bilasan-ku esdan ketayotganim...  
Nima bo‘ldi, ranging qum o‘chdi, nedan?»  
– Hech nima bo‘lgan yo‘q, ena, qo‘yaver,  
Tezdan nabirangni sen yuboraver.

### XXXVI

Bir kun kechdi, lekin, undan yo‘q javob.  
Yana bir kun o‘tdi; yo‘q sira darak.  
Tatyana erta-kech chekib iztirob  
Kutib o‘tiradi, rangi soyadek.  
Kelgandi Olgani sevib topingan,  
Savol yog‘ilgandi uy bekasidan.

«Ayting, oshnangiz qayerda yurar?  
U bizni butunlay unutgan o'xshar».  
Lov yonib qaltirar edi Tatyana.  
– Bu kun kelish edi uning va'dasi,  
Pochtada kechikib qolgan chamasi!–  
Lenskiy kampirga degach, ohista  
Tatyana yashirdi o'z nigohini,  
Go'yo eshitgandek achchiq g'inani..

### XXXVII

Oqshom qorong'isi. Stolda porloq,  
Shaqillab qaynardi kechki samovar,  
Xitoyi choynakni qizdirib uzoq,  
Burqib uchar edi yep-yengil bug'lar.  
Olganing qo'lida toza, xushbo'y choy  
Choynakdan xuddi bir qora uqaday  
Quyulib turardi piyolalarga,  
Qaymoq tortar edi xizmatkor bola;  
Deraza oldida Tatyana yolg'iz,  
Sovuq oynalarga tutib nafasini,  
Fikrga tolardi; birozdan keyin  
Latif barmoq bilan asta yozar qiz  
Tumanli oynaga yuragida jo  
Bo'lgan ikki harf – ya'ni «Ye» ham «O».

### XXXVIII

Siqilar qiz dili, kuyardi joni,  
Xumor ko'zlari ham yosh bilan to'la.  
To'satdan dukurlash!.. Qotdi qiz qoni.  
Mana yaqin! Otlar chopar... qo'raga...  
Yevgeniy!.. «Voh!» deya soyadan yengil  
Qiz boshqa yo'lakka hatlaydi epchil,



Zinadan hovliga, so'ng, to'g'ri boqqa  
Uchadi, uchadi; u orqa yoqqa  
Qarashga botinmas; zumda aylanar  
Gulzorlar, ko'priklar, kichik o'rmonni,  
Ko'lga tutashuvchi bir xiyobonni,  
Siren novdalari yuzin tirmalar,  
Gulzorlardan uchar ekan chashmaga,  
Nafasi tiqilib skameykaga

### XXXIX

Yiqildi...

«Bu yerda hozir u! Bunda Yevgeniy!  
Yo Rabbim! U nima o'yladi ekan!»  
Dard-u hasrat to'la qiz yuragini  
Umidning qorong'i orzusi quchgan,  
Tatyana qaltirar, nafasi yoniq.  
Kelayotganmikan? Kutar; lekin «tiq»  
Etgan bir tovush yo'q. Shul choq bog'chada  
Xizmatchi ayollar terardi meva,  
Buyruqqa binoan qo'shiq aytishar.  
(Barinlar mevasin o'g'rincha tag'in  
Tama'xo'r og'izlar oshab qo'ymasin,  
Degan andishadan chiqqan bir buyruq;  
Bu ham qishloqdagi ayyorlik, quvliq!)

### Qizlar qo'shig'i

Qizchalar, do'ndiqchalar,  
O'rtoqjonlar, sho'x o'ynang,  
Siz yoqimtoy qizchalar,  
Yashnab o'ynang, to'xtamang!  
Cho'zib ayting laparni,  
Dil sevgan ashulani;

Tortinglar yigitchani  
Bizning to'p ashulaga.  
Yigitchani tortgan choq  
Olisdan ko'rib, inoq  
Tumtaraqay qochaylik.  
Olchani, malinani  
Va smorodinani  
Har tomondan otaylik,  
Ko'ngil siri – kuyini  
Zimdan tinglashga yurma.  
Qizlarning o'yinini  
Ko'rish-chun mo'ralama.

#### XL

Ular kuylashadi; juda beparvo –  
Eshitar ularning sho'x kuyini qiz,  
Qolmasin yurakda hayajon aslo,–  
Deb kutib turardi bunda sabrsiz.  
Koshki, yanoqlarning o'chsa otashi,  
Barmoqlarining-da qolmas titrashi.  
So'nmas yuzlarining yallig'i aslo,  
Ravshanroq, yorqinroq yonardi hatto...  
Sho'x maktabbachchaning qo'lida asir  
Bechora kapalak shunday sinadi,  
Guldor qanotlar-la tipirchinadi;  
Shu taxlit shudgorda titraydi zir-zir  
Jimgina bekingan ovchini quyon  
Uzoqlardan payqab qolsa nogihon...

#### XLI

Rostlab nafasini eng so'ng Tatyana  
Qo'zg'oldi o'rnidan; bir necha odim  
Otdi: qayrilarkan bir xiyobonga,

Nogihon bu qizning qarshisidan jim,  
Bir yovuz ko'lkadek, ko'zlari chaqnoq  
Yevgeniy Onegin chiqqandi shul choq.  
Boshidan naq olov quyilgan kabi  
Qiz turgan joyida to'xtagan edi.  
Faqat, kutilmagan bu uchrashuvni,  
Oqibatlarini, do'stlarim, bukun  
Menda to'zim yo'qdir hikoyasi-chun;  
Ko'p uzoq so'zladim, endi men uni,  
Biroz orom olib, biroz yoyilib:  
So'ng tasvir etarman bir iloj qilib.





## TO'RTINCHI BOB

La morale est dans la nature des choses.

*Necrer*<sup>110</sup>

### I. II. III. IV. V. VI. VII

Qancha oz muhabbat qo'ysak xotinga,  
Yoqamiz unga biz shu qadar oson.  
Fusunkor to'rlarga shunchalik inja  
Chulg'ab mahv etamiz uni begumon.  
Muhabbat ilmi deb topgandi shuhrat  
Bir vaqtlar pardasiz buzuqlik albat,  
Har yerda o'zini qilib ovoza,  
Muhabbat qo'ymasdan zavq surdi rosa.  
Lekin bu hashamatli hangoma – o'yin  
Maqtanilgan eski bobolar davri –  
Uchun xosdir, uning chol maymunlari  
Uchun munosibdir. Lavloslar bugun  
Shuhratni yo'qotdi, o'tdi ulug'vor  
Pariklar<sup>112</sup> shuhrati bilan bir qator.

### VIII

Munofiqlik kimni bezdirmas, ayni –  
Narsani turlicha qilaroq takror,  
Ko'p choqdan hammaga ma'lum narsani  
Viqor-la uqtirish kim uchun darkor;  
Bir xil e'tirozlar eshitmoq har choq,  
Xurofotlarini mahv etib yiqmoq,  
Holbukim, bo'lmagan va yo'qdir shu dam  
Endi o'n uch yoshga kirgan qizda ham!

Kimni bezdirmaydi tahdidlar toshi,  
Sajdalar, qasamlar va mavhum qo‘rquv,  
Quloch-quloch qilib nomalar yozuv,  
Aldashlar, g‘iybatlar, uzuk, ko‘zyoshi,  
Xola, onalarning doim tergovlari,  
Er degan zotlarning do‘stlik bo‘g‘ovi!

## IX

Shunday deb o‘ylardi bizning Onegin.  
O‘spirin chog‘ida u bo‘ldi qurbon  
Jo‘shqin gumrohlikka, yana betizgin  
Quturgan hirslarga botib nogihon;  
Hayot rasmi, urfi bilan taltaydi,  
Biriga bir muddat ko‘nglin bog‘laydi,  
Boshqa birisidan ko‘ngilni uzib,  
Orzu-havaslardan ohista bezib,  
Hordi yengil-yelpi g‘alabalardan,  
Ham shovqin, ham sukut ichida hamon,  
Tingladi ruhidan abadiy fig‘on,  
Lanjlikni bosdi u qahqaha bilan:  
U shunday mahv etdi sakkiz yilini,  
Boy berib umrining chechak faslini.

## X

Go‘zallarga ortiq qo‘ymasdi ko‘ngil,  
Surgalib yurardi istar-istamay,  
Rad etsalar, darhol ovunardi ul.  
Xiyonat qilsalar – u shod, dam olgay.  
Dilbarlar ketidan yurar havassiz,  
Tashlardi ularni qilmayin afsus,  
Ishqin va achchig‘in eslab goh bir on,  
Karta o‘yiniga kelgan bir mehmon  
Singari takalluf bilmay kelar u,  
O‘tirib o‘ynaydi; tugagach o‘yin

Chiqib jo'nab qolar hovlidan har tun,  
Uyida tinchgina quchadi uyqu.  
Ertalab turganda bilmaydi o'zi  
Kechqurun qayerni mo'ljallar ko'zi.

## XI

Lekin, Tatyananing olib xatini,  
Onegin yuragin bosdi hayajon:  
Qiz xayollarining samimiy tili  
Fikrlar galasin uchurdi bir on;  
Go'zal Tatyananing o'chiq yuzini,  
Xotirladi uning g'amgin tusini,  
Allaqanday shirin, pokiza xayol  
Quchoqladi uni, u botdi darhol.  
Ehtimol qadimgi hislar qizg'ini  
Uni egalladi bir minutgina.  
Lekin istamasdi aldashni sira  
Ishonuvchan, sodda qizning dilini.  
Endi biz qaytaylik bog'chaga yana,  
Unga uchragandi bunda Tatyana.

## XII

Turishdi so'zlamay ular bir nafas;  
So'ng, qizning yoniga keldi Onegin;  
Va dedi: «Yozgansiz, tonish kerakmas,  
Menga xat; men uni o'qidim, lekin  
O'qidim sodda ruh e'tirofini,  
Pokiza sevgining iztirobini,  
Samimiyatingiz men uchun aziz:  
Qachonlar jim bo'lgan hislarni yolg'iz  
Hayajonga solgan faqat ugina;  
Sizni maqtashlikni men xohlamayman,  
Samimiyatingiz haqin to'layman.  
Ayni ochiq ko'ngil bir iqror ila.

Tavbam – yurak sirim qabul qilingiz:  
O‘zimni topshirdim, nadir hukmingiz?

### XIII

«Agar men hayotni faqat uy ichi –  
Oila debgina orzu qilsaydim,  
Qachon ota va er bo‘lish mehrini,  
Toleim menga-da buyursa, yokim  
Maftun bo‘lib bir kun, loaqal lahza  
Qilsam oilani men mulohaza,  
U choq men qidirmas edim hech qachon  
Sizdan boshqa hech bir qalliqni bir on.  
Maddohlik, gapdonlik qilmasdan yolg‘iz  
Aytayin, bo‘lsaydi avvalgi g‘oyam;  
Faqat siznigina tanlardim u dam,  
Butun go‘zallikka garov o‘zingiz,  
Bu g‘amli umringa siz bo‘lib chin yor,  
Bo‘lardim, armonda qolmay, baxtiyor!

### XIV

«Men yaratilmadim halovat uchun;  
Ruhinga begona xushbaxtlik tamom.  
Sizdagi kamolat behuda butun,  
Men unga sazovor bo‘lishim mahol.  
Inoning (vijdonim kafildir sizga)  
Er-xotin bo‘lishlik azobdir bizga...  
Men sizni naqadar kuch-la sevmayin,  
O‘rgandimmi, sevgim tez so‘nar lekin;  
Boshlaysiz yig‘ini: ko‘zyoshlaringiz  
Mening qalbimga hech to‘qinmayajak,  
Balki, uni battar quturtirajak.  
O‘zingiz bir o‘ylang – bu iqbolimiz,  
Buni hozirlaydi bizga Gimeney,<sup>114</sup>  
Ehtimol, bu narsa ko‘pga cho‘zilgay.

## XV

«Dunyoda yomonroq yana nima bor  
Shunday oiladan, unda ilojsiz  
Bir xotin noloyiq erdan yig‘lab zor,  
Kunduz ham, oqshom ham, o‘tirar yolg‘iz.  
Sho‘r tumshuq er uning bilib qadrini  
(Lekin, xo‘p la‘natlab o‘z taqdirini),  
Hamisha mum tishlab, qovog‘i soluq,  
Jahlidan tushmaydi, rashk etar sovuq:  
Men shunday. Siz toza, yolqin ruh bilan,  
Siz shunday soddalik, shunday aql-la  
Menga u maktubni yozgan damlarda,  
Axtarganmidingiz mendayni chindan?  
Ajabo, siz uchun shunday bir ulush  
Rahmsiz taqdirdan nasiba bo‘lmish?

## XVI

«Xayol, o‘tgan umr ortiga qaytmas,  
Men endi ruhimni yosh qilolmayman.  
Men sizni sevaman akadek xolos,  
Va balki bundan ham nozik sevaman.  
Tinglangiz siz meni g‘azablanmayin:  
Yosh qiz almashtirar ko‘p martaba chin  
Xayollari bilan yengil fikrini.  
Bilasiz, daraxtlar o‘z barglarini  
Yangilab turadi bog‘da har bahor.  
Shunday hukm etganga o‘xshaydi samo.  
Yangidan siz yana sevarsiz: ammo...  
O‘zni tutishni-da o‘rganmoq darkor;  
Har kim tushunmaydi menga shekillik.  
Ofatga eltadi tajribasizlik».



## XVII

Yevgeniy Onegin va'z etdi shunday.  
Ko'zyoshi oralab ko'rmay hech nima,  
Zo'rg'a nafas olib, naq yiqilgunday,  
Indamay eshitib turdi Tatyana.  
Qo'l cho'zdi Onegin, Tatyana mahzun  
(G'ayri ixtiyoriy, shuursiz butun)  
Hech nima so'zlamay, boshin egarak,  
Uning gavdasiga suyaldi andak;  
Polizdan aylanib uyga jo'nashdi.  
Ikkovi kirganda, bularni hech kim  
Ayblamas, ularga bir so'z demaskim,  
Gerdaygan Moskvada bo'lgani kabi –  
Bunda ham qishloqcha sodda, baxtiyor  
Yigit va qiz aro erkinliklar bor.

## XVIII

Bizning oshnamiz xushmuomala,  
G'amli Tatlanaga yaxshilik qildi.  
O'quvchim, qoyilsiz bunga albatta.  
Ruhining chinakam aslligini  
Shuningdek ko'p daf'a qilmish namoyon,  
Insondan badxohlik ko'rib har zamon –  
Qalbida hislari qotgandi garchi:  
Uning dushmanlari, uning do'stlari,  
(Balki, ikkisi ham ayni bir narsa)  
Uni yomonladi har maqom bilan.  
Dunyoda har kimda bo'ladi dushman,  
Faqat, Rabbim, o'zing do'stlardan asra!  
Oh, do'st bo'lmishlarim, do'st bo'lmishlarim!  
Behuda emas bu xotirlashlarim.

## XIX

Nima? Nima bo'lar? Men uxlataman  
Bo'm - bo'sh va qop-qora xayolni faqat.  
Men yolg'iz shuni qayd etib o'taman:  
Bo'lar shundayin chirkin bir tuhmat,  
Uni to'qir qabih yolg'onchi shayton,  
Johil kibor qilar uni xo'b chaqqon;  
Bo'lur shunday tagsiz, puchak uydirma,  
Bo'lur eng beadab, iflos hajviya –  
Uni ham do'stingiz tirjayib beor,  
Oddiy voqeani so'zlagan kabi,  
Dup-durust odamlar ichra har gali  
Bilar-bilmas, yuzlab qiladi takror.  
Holbuki, u siz-chun suyangan tog'day,  
Sizni shunday sevar... naq tug'ishganday.

## XX

Xo'sh, mening qimmatli, nodir o'quvchim,  
Salomatmi sizning qavmi-qarindosh?  
Menga ruxsat eting, lozimdir balkim,  
Qarindoshlar nima ekanini fosh  
Eтайin, o'rganing siz endi mendan,  
Qarindosh-urug'lar shundaydir zotan:  
Biz majbur ularni erkalash uchun,  
Ko'ngildan sevarak hurmatlash uchun,  
Va yana bo'ysunib xalq odatiga,  
Yil boshi haytida hol-ahvol so'rash,  
Yo jilla bo'lmasa xat yozib qutlash;  
Sababi shu: yilning o'zga faslida  
Ular bizni sira o'ylab ko'rmasin...  
Gap shu, Tangri uzoq umrlar bersin!

## XXI

Nafis go'zallarning sevgisi lekin  
Do'stlikdan, urug'dan ishonchliroqdir;  
Qizg'in bo'ronda ham ishqning tizginin  
Qo'ymaysiz va sizning tomonda haqdir.  
To'g'ri gap bu. Lekin moda dolg'asi,  
Yana tabiatning o'zgachaligi,  
Yana kiborlarning tanalari zil,  
Holbuki, latif jins ukparday yengil...  
So'ngra fazilatkor bir xotin uchun  
Erning o'yi, fikri yana begumon,  
Muhtaram bo'lishi kerakdir har on.  
Sodiq rafiqangiz ko'zlari suzgun.  
Ba'zan bir lahzada o'ynoqlar dili.  
Chunki ishq, muhabbat shayton hazili.

## XXII

Kimga ishonaylik? Kimni sevaylik?  
Ayting-chi, xiyonat qilmas kim bizga,  
Har ishni, har so'zni o'ligin tirik  
Qilaroq kim o'lchar bizning gaz ila?  
Bo'hton urug'ini kim bizga sepmas?  
Erkalar kim bizni, mehrin ayamas?  
Kimga ofat emas bizning aybimiz?  
Kim hech qoldirmaydi bizning tab'imiz?  
Sharpa qidiruvchi, ovora, shoshqoq,  
Ey mening muhtaram, asl o'quvchim!  
G'ayratni behuda mahv etmay, balkim,  
O'zingiznigina sevingiz har choq!  
Bu juda soz, bundan o'zgani asti  
Bundan yaxshiroqni o'ylamang asli.

### XXIII

Tungi uchrashuvning oqibati na?  
Hayhot, mushkul emas buni payqamoq!  
Sevgining iztirob, alami telba;  
Hasratga chanqagan yosh ruhni har choq  
Hayajon ichida qaqshatar edi,  
Yo‘q, Tatyana battar o‘rtanar edi.  
Qorong‘i-nash‘asiz his changalida  
Yotog‘idan uyqu qochdi jimgina;  
Sog‘liq, hayot nuri, lazzat, tabassum,  
Qizlik oromlari yo‘qoldi butun,  
Yo‘qoldi barchasi go‘yo bo‘sh bir un,  
So‘nar nozik qizning yoshligi har zum:  
Yorishib keluvchi kun shu‘lasini,  
Bo‘ronning ko‘lkasi o‘ragan kabi.

### XXIV

Hayhotki, Tatyana so‘lar ohista,  
Ranglari siniqar, so‘nar, indamas.  
Uni qiziqtirmas aslo hech narsa,  
Hech narsa ruhini tebrata olmas.  
Qo‘shnilar boshlarni chayqab, o‘zaro  
Shivirlashadilar to‘planib goho:  
Erta-indin demay tez erga tegsin!..  
Lekin, yetar shu gap. Men tezgina chin  
Mas‘ud bir sevgining tasviri ila  
Endi xayollarni bir quvontiray.  
Faqat, azizlarim, ixtiyorsizday,  
Afsus va qizg‘onish sig‘mas ko‘ksimga,  
Kechiringiz meni: chunki shu qadar,  
Sevaman Tanyamni, u shunday dilbar!

## XXV

Yosh Olganing husni har soat sayin  
Lenskiy qalbini ayladi asir.  
Lekin bu tutqunlik uning-chun shirin,  
Butun ruhi bilan berildi shoir.  
Olga bo'lmasida hamisha ular  
Ikkovi xilvatda inoq o'tirar;  
Bog'chada saharlar qo'lma-qo'l bo'lib,  
Kezishar ikkisi baxtlarga to'lib;  
Na bo'ldi? Shoirni sevgi mast etgan.  
Nozik uyalishdan sarosimada,  
Olga tabassum-la berarkan dalda,  
Shunday jasurlanib, Lenskiy ba'zan  
Olganing jingalak zulfini siypar  
Yoki kiyimining bir chetin o'par.

## XXVI

Axloqiy-ta'limiy romanni olib,  
Olgasiga o'qib beradi ba'zan,  
Shatobrian<sup>115</sup> ham ketadi qolib  
Tabiat bilishda u romanchidan;  
O'qib turgan choqda, ikki-uch betni,  
(Qizlarning qalbiga bu joy qo'rqinchli  
Chunki, uydirmalar va talvasalar)  
Lenskiy qizarib, o'qimay o'tar.  
Tinch joyga chekinib hammadan uzoq,  
Bir shaxmat taxtasi uzra ikkisi,  
Stolga yonboshlab, ba'zi vaqt jiddiy  
Chuqur o'yga botib o'ynaylar inoq,  
Lenskiy shuncha ham parishonxotir,  
O'z ruxin piyoda bilan oladir.<sup>116</sup>

## XXVII

Uyga borganda ham Lenskiy yana  
Mashg'ul bo'lar edi Olgasi bilan.  
Albom yaproqlarin o'z yori Olga  
Xotirasi uchun bezaydi o'bdan:  
Goh solar qishloqning manzaralarin,  
Goh qabr toshlari, Kiprid ma'badin,<sup>117</sup>  
Yo qalam va ranglar bilan u bezar  
Liraning ustida bir kichik kaptar.  
Goho esdalikning varaqlariga,  
Boshqa ko'p har turli imzodan keyin  
Yozardi o'zining latif bir she'rin,  
She'rki, xayollar uzra lol jig'a  
Bu, oniy fikrning o'chmas bir izi,  
Ko'p yillar o'tsa-da u aynan o'zi.

## XXVIII

Qishloqi bir qizning albomchasini  
Albatta ko'rgansiz ko'p marta, ancha,  
Buni pastdan, boshdan, gir aylanasi,  
Qoralab tashlagan do'st yori, barcha.  
Imlo qoidasi barbod etilgan,  
Vaznsiz she'rlar naqlan bitilgan.  
Samimiy do'stlikni eslatish uchun  
Yozilgan, yo'nilgan, qisqa va uzun.  
Ilk betda ko'rasan shunday orzuni:  
*Qu'ecrirez vous sur ces tablettes.*<sup>118</sup>  
Yana shu imzoni: *t. a. v. Annette.*<sup>119</sup>  
So'nggi betda esa o'qiysan buni:  
«*Kim mendan ortiqroq sevarkan sani,  
Mendan quyiroqda yozsin-chi, qani*»

## XXIX

Albatta, ko'rasiz albom ichida  
Ikki qalb, mash'ali va gullar, tag'in<sup>120</sup>  
*Qabr toshigacha o'z sevgisiga*  
Sodiq qolish uchun bergan qasamin.  
Bu yerda qandaydir askariy nozim,<sup>121</sup>  
Qabih baytlarini so'qqan befahm.  
Do'stlarim o'zim ham, e'tirof qilay,  
Yozardim bo'lsaydi bir albom shunday,  
Chunki men ishongan bo'lardim chuqur,  
Tirishib so'zlagan bo'sh-bo'g'ov gapim  
Lutfikor nigohni jalb etar, balkim,  
So'ngra, zaharxanda, bema'ni g'urur  
Ila surushtirib o'tirmaslar, xo'sh,  
Yolg'onni qotira bildimmi yo bo'sh.

## XXX

Siz, ey ajinalar kutubxonasi,  
Parishon va tarqoq jildlar, va qiymat  
Chiroyli albomlar, sizlar modali  
Qofiyabozlarni qiynaysiz faqat,  
Siz, ey Tolstoyning mo'jiz bo'yog'i,  
Yo Baratinskiyning tutgan qalami  
Bilan bezatilgan albomlar tor-mor –  
Bo'lingiz, Tangrimning qahriga duchor!  
Porloq va muhtasham bir xonim agar  
Menga uzatganda o'z albomini,  
Bir titroq, bir zarda bosadi meni,  
Ruhimda ilonday qo'zg'alib qolar  
O'sha xonim uchun o'tkir hajviya,  
Sen axir, yozgansan unga madhiya!

### XXXI

Yoshgina Olganing albomchasiga  
Lenskiy madhiya yozmas hech qachon.  
Qalami yashaydi yoniq ishq ila,  
Sovuq gapdonlikdan ozod bu ilhom.  
Nelarki, u Olga haqda eshitar  
Yo ko‘rar, barchasin she‘riga bitar:  
Jonli haqiqat-la to‘lib-tosharoq  
Oqar o‘lanlari xuddi bir buloq.  
Sen esa, Yazikov<sup>122</sup>, ilhomli shoir,  
Qalbingda hayajon mavjlanar ekan,  
Bir Tangri biladi, kimni kuylaysan,  
Butun taqdiringning qissasin, nodir,  
Mungli g‘azallardan qimmatli devon  
Taqdim etajakdir senga bir zamon.

### XXXII

Jim qolgin! Quloq sol! Qat‘iy tanqidchi  
Hissi she‘rlarning gul dastalarin  
Aytib tashlashlikka buyuradiki,  
Qofiyabozlarga ko‘tarib sasin  
Qichqirar: «To‘xtaling yig‘i-sig‘idan,  
Har vaqt ayni gapni vaqillash ekan,  
O‘tmishga, moziyga achinish yetar,  
Boshqa to‘g‘rilarda kuylangiz» – deyar.  
– Sen haqli, ham, to‘g‘ri, sen ko‘rsatasan,  
Karnayni, niqobni, xanjarni biz-chun.<sup>123</sup>  
Fikrlarning o‘lik mablag‘in butun  
Tirgizishga yana farmon qilasan:  
Do‘stim, shundaymasmi? – Hech bir. Hech qachon!  
«Yozing, afandilar, qasidalardan,<sup>124</sup>



### XXXIII

Yozing, burun qanday yozgan bo'lsalar,  
Qadimda u rasm bo'lgani kabi...»  
– Faqat tumtaroqli she'r-qasidalar!  
Yetar, bas, oshnam, birmasmi bari?  
Satirik<sup>125</sup> na degan uni eslab tur!  
Nahotki, sen uchun afzal bo'libdir –  
Xafaqon qofiyabozlardan, balki –  
*Begona ma'noning ayyor liriki?*–  
«Lekin elegiyada har nima puchak;  
Hechdir u ayanchli maqsadi bilan  
Qasidaning esa g'oyasi baland  
Va oliyjanobdir...» bu yerda andak  
Bahslash mumkinku-ya, aytmayman hech bir:  
Istamam talashsin shu ikki asr <sup>126</sup>.

### XXXIV

Qaynoq o'ylarining mavjlanishida  
Shuhrat va erklik oshiqi shoir  
Yoza olar edi qancha qasida,  
Uni o'qimasdi Olgasi, axir.  
Yig'loq shoirlarga to'g'ri kelganmi,  
Sevgililariga asarlarini,  
Ko'zma-ko'z o'qishlik? Aytalar go'yo  
Mukofot yo'q emish bundan ham a'lo.  
Ishqni, qo'shiqlarni tug'dirgan jonon  
Yoqimli, xumorko'z bir malikaga,  
O'z xayollarini o'qib bermak-la,  
Kamtar oshiq sezar bir lazzat har on.  
Holbuki, ehtimol o'sha sevgili –  
Boshqa xayol ila o'ynaydir dili...

## XXXV

Ohangdor o'ylarim va xayollarim  
Samaralarini avval men o'zim:  
Qari enagamga o'qiyman doim <sup>127</sup>,  
U edi bolalik chog'imda do'stim.  
Yo tushki ovqatdan keyin zerikib,  
Tentirab bosh suqqan qo'shnini sezib,  
Etagidan nogoh ushlab olaman,  
Tragediyam-la xippa bo'g'aman,  
Yoki (bunisida sira yo'q hazil),  
Qofiya va qayg'u bilan men tolib;  
Bir ko'l yoqasida kezaman gangib,  
Yovvoyi o'rdaklar cho'chiydi yengil:  
Tinglashib xush sado sozim qo'shig'in,  
Sohillardan uchib ketishar shoshqin.

## XXXVI. XXXVII

Xo'sh, Onegin qalay? Og'alar, payti!  
So'rayman sizlardan, qilingiz sabr:  
Nimadir har kungi mashg'uliyati,  
Men uning tavsifin qilay birma-bir  
Go'shanishin bo'lib yashar Yevgeniy,  
Soat yettida u turar yoz kuni,  
Ham yengil kiyinib jo'naydi yakka,  
Tog'lar etagida jo'shqin daryoga.  
Gulnor shoiriga taqlid qilaroq <sup>128</sup>.  
Ushbu Gellespontdan <sup>129</sup> suzib kechardi.  
Bir yomon jurnalni varaqlab, qaynoq  
Qahvasini keyin asta ichardi,  
So'ng kiyinardi...

## XXXVIII. XXXIX

Kezishlar, o'qishlar va qattiq uyqu,  
O'rmonlar ko'lkasi, suvlarning sasi,  
Qora ko'z kapalak butun beqayg'u,  
Tegib o'tgan tirik, toza bo'sasi,  
Nozik va ham laziz har tushki ovqat,  
Jilovga o'rgangan yugurik bir ot,  
Bir shishada tiniq, shu'larang vino,  
Odamlardan uzoq – jimjit bir dunyo:  
Mana Oneginning ezgu hayoti;  
Bunga u berildi hissiz, beparvo,  
Beg'am rohat ichra yo'q edi hatto,  
Go'zal yoz kunlarin sanashga tobi;  
Unutildi do'stlar va shahar butun,  
Bayramlardagi bo'sh hangoma-shovqun.

## XL

Lekin, bizning shimol yozlari tamom –  
Janub qishlariga karikatura,  
Lip etib o'tadi, o'chadi hamon,  
E'tirof qilmaymiz – bu ma'lumku-ya.  
Mana ko'kda kezar kuzning nafasi,  
Siyrak yaltiraydi quyosh shu'lasi.  
Kunduz borgan sari qisqarar edi;  
Hazin shovqin bilan ochilar edi,  
O'rmonlarning sirli, quchog'i. Yog'in.  
Dalaga cho'zilib yotardi tuman,  
Qaqildoq g'ozlardan uchdi bir karvon  
Janub tomonlarga: kelardi yaqin  
Yurak qizdiruvchi hazin bir palla;  
Noyabr eshikni qoqadi ana.

## XLI

Sovuq qorong'ini yoradi shafaq;  
Tindi ish shovqini ekinzorlarda;  
Och ona bo'rini yetaklab shu vaqt  
Yo'lga chiqqan, mana u ovda  
Yo'lchining ayg'iri yirtqich izini  
Sezib pishqiradi, tadbirli kishi  
Orqa-o'ngga boqmay chopar tog' tomon.  
Tong shafaq yoyganda uyg'onib cho'pon,  
Haydamas og'ildan endi sigirlar,  
Kun yarim bo'lganda bir doiraga  
To'plamas ularni o'z nayi ila.  
Kulbasida kuylab qiz ip yigirar <sup>(22)</sup>,  
Yonida miltirar dudli jinchiroy  
Qishki kechalarda qizga bu o'rtoq.

## XLII

Mana charsillaydi izg'irin sovuq,  
Dalalar bag'riga sochdi kumush gul...  
(O'quvchi kutadi bunga muvofiq  
Qofiya; mana tez olaqol: bulbul!)

Porlaydi muz kiyim kiygan bir anhor;  
Moylab tozalangan parket singari.  
Bir to'da sho'x, o'ynoq erkak bolalar  
Konkida g'izillab kesadi yaxni <sup>(23)</sup>.  
Panjalari qizil og'ir – lappos g'oz  
Suvlar og'ushida istaydi yuzmak,  
Muzga qadam qo'yar, yurmasdan andak  
Sirg'anib yiqilar; ko'klarda parvoz  
Qilib tinmay uchar birinchi sho'x qor,  
Yulduzlar singari qirg'oqqa yog'ar.

### XLIII

Qishloqda netasan shunday faslda?  
Kezishmi? Qishloqning bu qishki payti  
Yalang'och va bir xil manzarasi-la  
Ko'zni beixtiyor zeriktiradi.  
Ot minib chopishmi sovuq sahroda?  
Muzni tishlayolmas yeyilgan taqa.  
Ot mingach, har onda kutib tur birdan  
Sirg'anib muk tushib yiqilmasmikan.  
Kulbang, boshpanangda o'tiraber tin.  
O'qi: ana Pradt<sup>130</sup> mana V. Scott<sup>131</sup>  
Istamaysan? Chiqim daftarin ol bot,  
Tekshir va achchig'lan, yo ich, uzoq tun  
Bir navi o'tadi; shunday qil erta,  
Qishni o'tkazasan zerikmay sira.

### XLIV

Chayld Garold o'zi Onegin go'yo,  
O'ychan tanballikka sho'ng'igan butun:  
Uyqudan ko'z ochib muzday vannaga  
Tushar, so'ng hovlida qolar butun kun.  
Qo'lda uchi to'mtoq bilyard tayog'i,  
Mo'ljallab urmoqning yo'qdir sanog'i.  
Yolg'iz o'zi tongdan bilyard o'ynar,  
Faqat ikki sharni bir-biriga urar.  
Sekingina cho'kar qishloqqa oqshom,  
Bilyardni qoldirar, tayoqni tashlar,  
Kaminning oldida dasturxon yashnar.  
Yevgeniy kutadi: keladi shu dam  
Lenskiy uch otli o'z chanasida:  
Ovqatlanmoq kerakdir tezda!  
Kliko tullari yoki Moeta<sup>132</sup>

## XLV

Chiqargan tabarruk sharobi shu choq  
Shoir Lenskiy-chun yaxdek shishada  
Tez olib kelinar,— ochalar chanqoq,  
Epokrenadek<sup>133</sup> yarqirar nuri,  
Bu may tovlanishi, yana ko'pigi  
(Yana u boshqa ko'p xislatlari-la)  
Meni asir etgan: men unga esa  
Bir vaqtlar eng so'nggi chaqam berardim,  
Balki, xotirlarsiz do'stlarim, buni?  
Mayning eng sehrli oqish uchquni  
Uh, qancha sho'xliklar tug'dirardikim...  
She'rlar, hazillar, bahslashuv, kulgu —  
Va quvnoq tushlarni bag'ishlardi u.

## XLVI

Lekin, qaynab toshgan ko'pigi ila  
Bu sharob me'damni buzar shu mahal,  
Qaynamas va yuvosh *Bordonigina*<sup>134</sup>  
Ko'nghlim undan endi ko'radi afzal.  
*Aiga*<sup>135</sup> qolmadi sira toqatim (<sup>24</sup>);  
*Ai* naq o'xshaydi ma'shuqaga kim,  
U yorqin va porloq, jonli, ishvakor,  
Yengiltak va o'jar, lekin puch, beor.  
Ammo, sen ey *Bordo*, do'stga o'xshaysan,  
Bir do'stki, yuz bersa qayg'u, andisha —  
Vafokor jo'rasan bizga hamisha,  
Bizga xizmat, yordam bermoqqa shaysan;  
Yoki bo'sh chog'larda otamlashar u.  
Biz bilan: yashasin do'stimiz *Bordo*!

## XLVII

O't so'ndi; oltin cho'g' usti kul ila  
Salgina qoplanib qoraygan chog'i;  
Ilinar-ilinmas ko'z qiriniga  
Bug'lar ham burqiydi, kamin o'chog'i  
Kuchsiz yallig' berar. Quvurchalardan  
Tutun quvurlarga kirar. Qadah shan,  
Stolda vishillab turadi hali.  
Oqshom qorong'isin kelgandi gali...  
(Sevamen do'stona sho'x hangomani,  
Sevamen do'stona qadahda mayni,  
Ayniqsa bir paytki, shu paytni ayni –  
Deydilar bo'ri-yu it aro payti,  
Nega shunday deyarlar, bilmayman faqat)  
Mana endi do'stlar qiladi suhbat:

«Qo'shni qizlar qalay? Qalay Tatyana?  
Sening u o'ynoqi, sho'x Olgang qalay?»  
– Yarim stakan quy menga may yana...  
Yetadi, azizim... oila shunday  
Sog'-salomat; senga salom ulardan,  
Uh, bilsang, azizim, Olga yetilgan;  
Undagi to'lishgan kift va go'zal ko'krak!  
Bormi unday ko'ngil? Biror kun andak  
Kirib chiqaylik biz: bu sendan lozim;  
Bo'lmasa, o'zing ham bir o'ylab qara:  
Bir-ikki bosh suqding ularga, so'ngra  
Soyangni ko'rsatmay ketaberding jim.  
E-he... qara meni, fahmi kaltaga!  
Seni chaqirishgan kelar haftaga –

## XLIX

«Menimi?» – Ha, seni; kelar shanbada  
Bo'lar Tatyanning imeninasini <sup>136</sup>.

Olganing, onaning bu da'vatiga  
Bormasang, buning yo'q uzri – ma'nosi.–  
«Lekin unda bo'lur juda ko'p odam,  
So'ngra, har qandayin qurama avom...»  
– Bilaman, begona bo'lmaydi aslo!  
Kim ham bo'lar edi? O'sha oila.  
Boramiz, lutf ayla! Xo'sh, nima deyay?–  
«Roziman borishga» – Qanday tanti san! –  
Shu so'zni aytib u sipqirar birdan  
Stakandan mayni, bundan so'ng ichmay,  
Boshlaydi so'zini qayta boshdan u  
Olga to'g'risida, ishq degani shu!

## L

Shod edi Lenskiy. Ikki haftadan  
So'ngra kelar uning eng baxtli chog'i.  
Nikoh visolining sirlari bilan  
Sevgining gultoji, shirin quchog'i –  
Kutardi kuyovni, sevinchni katta.  
Uning tushiga ham kirmasdi hatto –  
Oila turmushin sonsiz zahmati,  
Hafsala pir bo'lib esnash, hasrati...  
Holbuki, bunday bir taqdirga dushman –  
Bizlar oilada ko'ramiz qator  
Faqat zeriktirgich, xunuk lavhalar  
Lafonten zavqida yozilmish roman <sup>(25)</sup>.  
Bechora Lenskiy, yuragi-didi  
O'shanday umr uchun tug'ilgan edi.

## LI

Sevilar edi u... jilla bo'lmasa  
Shunday xayol qilar, u baxtiyordi.  
Kim sovuq idrokni yuvoshlantirsa,  
Ishonchga berilsa uning yo'q dardi.



Mast yo'lchi musofirxonada yotib  
Orom olganiday huzurga botib,  
Bahorning gulini qucharoq emgan  
Kapalak singari, u mas'ud va shan  
Kimki har nimani oldindan sezsa,  
Boshi mast bo'lmasa, butun harakat  
Va butun so'zlarning ma'nosin faqat  
Yalang'och anglasa, qalbin tajriba  
Sovutsa, qaqshatsa, tolg'in va hushsiz  
Bo'lishni man'etsa, u inson ojiz!





## BESHINCHI BOB

Bu qo'rqinchli tushlarni bilma sen,  
Ey mening Svetlanam!

*Jukovskiy*<sup>137</sup>

### I

O'sha yili kuzak havosi faqat  
Hamma yilgidan ham cho'zildi uzoq,  
Qishga ko'p muntazir edi tabiat,  
Yanvarning uchinchi kechasi biroq  
Qor yog'di... Uyg'onib saharda, erta,  
Derazadan qarab ko'rdi Tatyana,  
Tong chog'i oqargan katta qo'rani,  
Qor bosgan tomlarni, devor, gulzorni;  
Oynalarga nozik naqshlar chizilgan,  
Og'ochlar kiyimi – qishning kumushi.  
Qo'rada hakkalar, toshar sevinchi,  
Qishning yarqiragan oq mavji bilan  
Uzoqlarda tog'lar qoplangan mayin.  
Hammayoq oppoqdi, hammayoq yorqin.

### II

Mana qish!.. Dehqon ham tantana ila  
Chetan aravada yo'lni yangilar.  
Uning oriq oti qor iskabgina  
Zo'r-bazo'r sudralib lo'killab yurar.  
Iz soladi yumshoq qorni ag'darib,  
Soyabonli chana uchadi qalqib.  
Oldinda o'tirar haydovchi uni,  
Belda qizil belbog', ustda po'stini.  
Chanaga ot bo'lib o'zini qo'shar,

Kuchugin o'tqazib, bir dehqon bola,  
Qorlarda o'ynaydi u chopa-chopa;  
Bu sho'xning barmog'in izg'irin yalar:  
U og'riq ham sezar, kuladi ham shan.  
Onasi koyiydi uni oynadan...

### III

Ehtimol, sizlarni bunday tasvirlar,  
Manzaralar sira qiziqtirmaydi:  
Oddiy tabiatni ular aks etar,<sup>138</sup>  
Ularda nafislik ozroq uchraydi.  
Tangri ilhomlari bilan ruhlangan  
Bir shoir ziynatli uslubi bilan  
Go'zal tasvirlagan birinchi qorni,  
Qish nash'asidagi nozik ranglarni (<sup>26</sup>):  
Chanalarda maxfiy kezishlarni u  
Yolqinli she'rida chizarkan gulgun,  
Ishonaman, sizni qiladi maftun,  
Lekin men hozircha kurashni orzu  
Qilmayman u bilan, na-da sen ila  
Ey yosh fin qizining kuychisi, tingla (<sup>27</sup>)!

### IV

Tatyana (rus qizi butun qalbi-da,  
Bilmasdi o'zi ham hech sababini)  
Sevardi qahraton go'zalligi-la,  
Sevardi Tatyana shu rus qishini,  
Oftobda qirovni, izg'iriqli kun  
Chanani; shafaqlar yonsa kechqurun  
Qorlarning pushtirang yarqirashini,  
Muqaddas oqshomlar qorong'isini...  
Ularning uyida shunday oqshomlar,  
Qadimgi zamonday bo'lar tantana.  
Butun qo'radagi cho'ri-xodima  
Yetilgan qizlarga follar ochishar –

Berishar ularga har yil xushxabar:  
Harbiy kuyovlar-u ko'p uzoq safar.

## V

Burungi avomiy afsonalarga,  
Tushlarga, ham karta bilan fol ochish,  
Oyning ta'biriga, nishonalarga  
Tatyana sezardi chuqur ishonish.  
Hayajonga solar edi ramzlar,  
Har turli narsalar bu qizga sirlar  
Aralash bir nima bayon qilardi.  
Allanechuk hislar qalbin siqardi.  
Karashmali mushuk o'choq boshida,  
Xurullab tumshug'in u yuvsa agar;  
Bu belgi shubhasiz mehmondan xabar  
Berar edi unga; agar Tatyana  
Nogoh ko'rib qolsa keng osmondagi  
Chap tomondan chiqqan yosh o'roq oyni,

## VI

Qaltirar edi qiz, o'chardi rangi.  
Agar ko'kda yulduz yashinday porloq,  
Ucharkan yirtaroq qora pardani,  
Ana shu zamonda bosadi titroq  
Sarosima bo'lib qolar Tatyana.  
Uchar yulduz oqar ekan samoda,  
Oshiqar edi u qalbning orzusin  
Unga shivirlashga... ko'ngil tugunin.  
Qora kiyim kiygan bir rohib agar  
Uchrab qolsa unga, yo chopqir quyon,  
Dalada yo'lini kessa nogihon.  
Qo'rquvdan ko'z oldi darhol qorayar,  
Qalbini musibat dardi tutardi,  
Biron falokatni aniq kutardi.

## VII

Ne qilsin? Topardi sirli nafosat  
Tatyana dahshatning o'zidan, dilshod:  
Zotan ziddiyatga moil tabiat  
Bizlarni shu taxlit aylamish bunyod.  
Mana hayit keldi, uh, qancha shodlik!  
Fol ochadi yengil va mas'ud yoshlik.  
Uning hech narsaga kelmaydi zori.  
Uning qarshisida hayot diyori  
Go'yoki, bepoyon porloq bir dala...  
Qarilar fol ko'rar ko'z oynagidan,  
Butun borlig'idan mangu ayrilgan,  
Tobut taxtasining ro'baro'sida.  
Baribir ularni umid va armon,  
Go'dakday g'ujullab aldadi har on.

## VIII

Tatyana qiziqqan bir boqish ila  
Erib yonayotgan shamga telmurar;  
Uning ajib – quyma naqshi bir nima  
Ajib sirdan qizga berardi xabar;  
Suv bilan liq to'la bir laganchadan  
Uzuklar ketma-ket chiqadi ravshan;  
Mana suvdan chiqdi bir kichik uzuk,  
Aytilib turarkan shu eski qo'shiq:  
*«U yerda mujiklar bari badavlat;  
Kuraklab kumushdan yasaylar xirmon;  
Kimga qo'shiq aytsak, unga sharaf-shon,  
Mol-mulk!»* va'da etar talaf – musibat  
Bu qo'shiqning hazin maqomi biroq.  
Qizlarning qalbiga «mushuk» yaqinroq<sup>139</sup>. (28)

## IX

Ayozli bir kecha: osmon ravshan;  
Ko'kdagi yulduzlar fusunkor dasta,

Yulduzlar jimirlar sokit, hamohang...  
Yengil ko'ylagida chiqar birpasda  
Tatyana qo'raga yolg'iz bir o'zi,  
Mohtobga ro'para qo'lda ko'zgusi,  
Oynaning ichida titrab ko'rinar,  
Faqat bir mahzun oy... G'ijillaydi qor...  
Kimdir u? O'tkinchi... oyoq uchida  
Chopib boradi qiz u kishi tonon,  
Tovushi ko'p mayin jaranglar shu on,  
Nayning kuyidan ham latif ingichka:  
Ismingiz nimadi <sup>(29)</sup>?U kishi boqar,—  
Agafon!<sup>140</sup> – Shu damda javob qaytarar.

## X

Enaga kengashi bilan Tatyana  
Istadi kechasi xayrli fol ochish,  
Ikki kishi uchun bir dasturxoncha  
Hammomda yasashga berdi farmoyish.  
Lekin dahshat bosdi qizni to'satdan...  
– Men Svetlanani shu dam o'ylarkan,  
Meni-da o'radi qo'rquv – qo'y nuqta...  
Biz folni ochmayik Tatyana ila.  
Tatyana ham ipak kamarchasini  
Yechdi va yechindi, kirdi ko'rpaga.  
Sevgi ilohasi boshida asta  
Aylanar; yumshoq paryostiq tagini  
Band etib bu qizning oynasi yotar.  
Har narsa jimidi. Tatyana uxlar.

## XI

Tatyana uyquda ko'rar qiziq tush.  
Tushida u go'yo yolg'iz boradi  
Qor bosgan daladan. Uni qurshamish  
Qandaydir huzunli oqshom zulmati;

Qorli tepalarda uning oldidan  
Qishning qo'li ila kishanlanmagan,  
Jo'shqin va oq sochli bir toshqin oqar,  
To'lqinlari burqib, sapchib hayqirar;  
Ikki cho'p, jipslashgan yupqa muz ila,  
Liqillab, liqillab arang turuvchi,  
Bu – toshqin ustidan o'lim ko'prigi:  
Hayqirib qaynovchi girdob labida  
To'xtab qolgan edi Tatyana hayron,  
Bilmasdi ne qilsin, titrardi nolon.

## XII

Noo'rin Hijronning boisi kabi  
Zorlanar irmoqqa qarab Tatyana,  
U yoqda hech kimsa ko'rinmaydiki,  
Unga qo'lin cho'zib so'ylassa: mana!  
Lekin, qimirladi qor tepa birdan;  
Kim uning tagidan ko'rinish bergan?  
Yunglari hurpaygan, kattakon ayiq;  
Tatyana, voh, dedi baqirib qattiq  
Tirnoqlari o'tkir qo'pol panjani  
Uzatdi u qizga; dami kesilgan  
Tatyana qaltiroq qo'llari bilan  
Suyaldi. Atak-chechak qilganlar kabi  
Irmოდan o'tadi qiz qo'rqa-qo'rqa,  
Jo'nadi, ayiq ham kelar orqada...

## XIII

Botinmay orqaga tashlashga nazar,  
Tatyana qadamin qo'yadi ildam;  
Lekin u qocholmas, chopsin naqadar,  
Orqada keladi seryung malay ham;  
Tasqara u maxluq harsillab chopar;  
O'rmon duch keladi; sokin archalar

Turardi huzunli go'zalligi-la;  
Hamma butoqlari qor chodiri-la  
Egilgan yog'ochlar – qarag'ay, qayin  
Uchlaridan siljib porlar kechasi  
Osmon qandilining toza shu'lasi.  
Yo'llar yo'q. Tik jarlar to'qaylar sokin,  
Barchasini kuchli bo'ron bosgandir.  
Chuqur qor ostida bari botgandir.

#### XIV

O'rmonga kirar qiz; orqadan ayiq;  
Tizzasidan kelar edi yumshoq qor;  
Dam uzun butoqlar tegadi qattiq  
Tatyana bo'yniga; dam yulib olar  
Oltin isirg'asin quloqlaridan.  
Dam tushadi nozik oyoqlaridan  
Toza, mo'rt qorlarda botib ho'l kafshi,  
Dam u tushiradi ro'molchasini.  
Olishga vaqti yo'q; chunki qo'rqadi,  
Sezadi ayiqni yana orqada,  
Titroq qo'li bilan etagin hatto  
Ko'tarib olishga qiz uyaladi;  
Tatyana yugurar, ayiq orqadan,  
Chopish uchun qizda darmon qolmagan.

#### XV

U qorga yiqildi; ayiq tezgina,  
Qizni ko'taradi, yana jo'naydi;  
Tatyana butunlay behush, asira,  
Qimir ham etmaydi, nafas olmaydi.  
Ayiqlik ko'targancha o'rmondan chopar.  
Yog'ochzorda nogoh bir chayla uchrar,  
Atrof tin, bu faqir chayla o'ralgan  
Har yog'idan sokit oppoq qor bilan,



Faqat derazani chaylaning ravshan,  
Ichidan kelardi qiy-chuv va shovqin,  
*Ayiq der: bu joyda amakim turg'un.*  
*Bu yerda bir qadar isinib ol san.*  
Ayiq to'ppa-to'g'ri kirar yo'lakka,  
Qizni ostonada qo'yar chekkaga.

## XVI

Hushga kelgandan so'ng Tatyana boqar:  
Ayiq yo'q; qolibdi yo'lakda yolg'iz;  
Ko'mish marosimi kabi qadahlar  
Jaranglar, chaylaning g'alvasi so'ngsiz;  
Anglamas ma'nosin, bo'ladi hayron,  
Boqar sekingina tirqishdan bir on,  
Nima bu! Stolni qurshab olganlar  
Qandaydir dahshatli maxluq-hayvonlar;  
Birining shoxi bor, kuchuk tumshuqli,  
Ikkinchining boshi xo'rozga o'xshar,  
Echki soqolli bir alvasti ham bor;  
Bir yoqda skelet mag'rur qiliqli,  
Ana unda turar dumli ajina,  
Anov yarmi mushuk, yarmi qush – nima?

## XVII

Bundan ham ajoyib, bundan vahimali:  
Ana qisqichbaqa o'rgimchak mingan,  
Ana g'oz bo'ynida odam kallasi,  
Qizil qalpoq kiyib aylanar chindan;  
Yel tegirmon esa tinmay raqs etar,  
Qanotlari bilan galdirar, yelpar.  
Hurish, kulgi, qo'shiq, chapak g'alvasi,  
Otlarning dukuri, odam ovozi, <sup>(30)</sup>  
Nimalar bosar qiz o'y-xayolini,  
Mehmonlar ichidan tanigan zamon

Qoʻrqinch ham sevimli bir shaxsni shu on,  
Yaʼni romanimiz qahramonini!  
Onegin stolda oʻtirar edi,  
Eshikka goh-goh koʻz yugurtar edi.

### XVIII

Ishorat qilar u: hamma urinar;  
U ichar: hammasi ichar qichqirib;  
U kular: hammasi qahqaha urar;  
Chimirar qoshini: hamma jim turib  
Qaraydi. Bu yerda udir xoʻjayin...  
Qiz sal unutadi bu yer dahshatin.  
Biroz tetiklanib, maroqlanadi,  
Eshikni shu damda biroz ochadi...  
Yolqinlanib yongan tun chiroqlarin  
Esib oʻchiradi shamol toʻsatdan;  
Jinlarning shaykasi gʻazablanarkan  
Onegin hayqirar, nigohi chaqin;  
Turadi oʻrnidan: turar hamma ham;  
Onegin tashlaydi eshikka qadam.

### XIX

Tatyana juda qoʻrqib titraydi,  
Shoshib urinadi qochishga bundan,  
Lekin hech iloj yoʻq, sabri bitadi,  
Qichqirmoq istaydi, dami boʻgʻilgan,  
Ovozi chiqmaydi, Yevgeniy ochar  
Eshikni... Doʻzaxdan bu tasqaralar  
Koʻzlarini tikar, qaltiraydi qiz.  
Vahshiy bir qahqaha portlar omonsiz.  
Oʻt koʻzlar, tuyoqlar, qiyshiq xartumlar,  
Xunuk, qoʻrqinch tishlar, chochvoqli dumlar,  
Osilgan moʻylovlar va tillar qonli,  
Shoxlar, nuqul suyak barmoqlar bari

U qizni ko'rsatar, ko'z olaytirar,  
Meniki! Meniki! – qichqirib turar.

## XX

Meniki!..– O'qrayib, dedi Onegin,  
Shunda g'oyib bo'ldi shayka nogihon;  
Qorong'i, sovuqda qiz turar sokin,  
Faqat uning do'sti turar yonma-yon.  
Onegin jalb etib, iydrib asta <sup>(31)</sup>  
Tortar Tatyani qarshi go'shaga.  
Qaltis bir kursiga o'tqazar uni  
Qizning yelkasiga qo'yar boshini,  
Nogihon Olga ham kirib qoladi,  
Ketidan Lenskiy; porladi ziyo;  
Onegin qo'lini ko'tarib, g'avg'o  
Boshlaydi; ko'zlari vahshiy yonadi;  
So'kar kutilmagan mehmonlarni u,  
Tatyana yotadi nimjon, serqayg'u.

## XXI

Janjal zo'rayadi; birdan Yevgeniy  
Sug'urar bir uzun pichoq; lahzada  
Lenskiy yiqilar; qo'rqinch qorong'i  
Yana quyuqlashdi; qichqiriq, nola  
Yuksaldi, lopillab ketdi chayla ham,  
Dahshatdan Tatyana uyg'onar shu dam.  
Qaraydi haryoqqa, uy ichi yorug',  
O'ynar tongning qizil shu'lasi yallig'  
Bergan darchaning muz oynaklariga,  
Eshik ochiladi, qushdan ham yengil,  
*Shimol Avrora*<sup>141</sup> kabi qipqizil,  
Olgasi kiradi uning yoniga;  
Va deydi: «Xo'sh, qani, gapir-chi shu tun  
Tushingda sen kimni ko'rding, ayt butun?!»

## XXII

Lekin payqamasdan u singlisining,  
Tushagida yotar. Qo'lida kitob,  
Varaqlaydi uni, tushmas ko'z qiri,  
Olgaga qaramas va qilmas xitob.  
Bu kitob ichida garchi yo'q edi  
Na shoirning shirin fikri, na dardi,  
Na chuqur haqiqat, na tasvir; lekin  
Qizga na Vergiliy, na adib Rasin,  
Na Skott, na Bayron va na Seneka<sup>142</sup>  
Na-da xonimlarning Moda Jurnal<sup>143</sup>  
Hech qaysi qiziqmas u kitob kabi.  
U edi, do'stlarim, Martin Zadeka, <sup>(32)</sup>  
Xaldey<sup>144</sup> donishmandlar ahlining piri,  
Asari: folbinlik, tushlar ta'biri.

## XXIII

Mana shu hikmatli asarni bir gal  
Ko'chkinchi savdogar olib kelgandi  
Bu tanho qishloqqa; Tanya shu mahal  
Kitobni qiziqib sotib olgandi.  
Savdogar bir shaloq *Malvina* ila<sup>145</sup>  
Rozi bo'lgan edi uch yarim so'mga,  
Va pulning ustiga olgandi yana  
Ko'cha masallar<sup>146</sup>in tergan majmua,  
Ikki Pyotr<sup>146</sup>noma, til qoidasin,  
Marmontel<sup>147</sup> kitobin shular ustiga.  
Keyingi vaqtlarda Marten Zadeka —  
Tatyana sirdoshi... butun nash'asin,  
Qayg'u, alam chog'in unga baxsh etar,  
Ajralmas, u bilan uyquga ketar..

## XXIV

Ko'nglini g'ash qilar edi ro'yosi,  
Qanday tushunishni bilmasdi sira;  
U qo'rqinch xayolning nedir ma'nosi,  
Istardi kitobdan bir surushtirsa.  
Tatyana muxtasar mundarijadan  
Topadi alifbe sirasi bilan:  
O'rmon, ham jin archa va tipratikon,  
Zulmat, ko'prik, ayiq, qasirg'a – bo'ron,  
Va hokazo so'zlar. Butun shubhani  
Bu Marten Zadeka yecha olmadi.  
Lekin u mash'um tush talqin qiladi  
Qayg'uli va foje ko'p mojaroni.  
Tatyana o'yladi yana qancha kun,  
Tashvish tortar edi o'sha tush uchun.

## XXV

Mana alvon qo'li bilan ol shafaq<sup>(33)</sup>  
Tonggi vodiylardan qilar armug'on  
Quyosh ila birga juda xushchaqchaq  
Imenina degan bayramni xandon.  
Larin xonadoni ertadan buyon  
Mehmonlarga to'la; qo'shnilar har yon  
Bola-chaqa bilan kelmoqda yana,  
Har xil aravalar va chanalarda.  
Dahlizda tiqilish, qiy-chuv va g'ovg'a:  
Mehmonxonalarda uchrash, tanishish.  
Itlar hurar, qizlar olardi o'pish,  
Bo'sag'ada shovqin, kulgi, qah-qaha,  
Mehmonlar duvuri, salom, ta'zimi,  
Sut-ena tovushi, go'dak yig'isi.

## XXVI

Durkun, serkillagan xotini bilan  
Bu yerga kelgandi Pustyakov – yo‘g‘on;  
Qashshoq mujiklarning Gvozdin degan  
Puxta xo‘jayini bu yerda mehmon.  
Oq sochli chol-kampir Skotininlar  
O‘ttiz yoshdan boshlab to ikki yashar  
Bola-chaqagacha sudrab kelishgan.  
Uyaz oliftasi Petushkov degan,  
Mening amakvachcham bo‘lgan Buyanov<sup>148</sup>,  
Parga ag‘anagan, qalpog‘i katta <sup>(34)</sup>  
(U sizlarga tanish bo‘lgay albatta),  
Iste’foga chiqqan to‘ra Flyanov,  
Ko‘p dag‘al g‘iybatchi va eski shayton  
Poraxo‘r, qiziqchi, ochko‘z, o‘larmon.

## XXVII

Panfil Xarlikovning oilasi-la  
Mosye Trike ham bo‘lgandi hozir,  
Oynakli, mallarang sochli, yaqinda  
Tambovdan kelgan bir askiyabozdir.  
Haqiqiy fransuz kabi kissada  
Tatyanaga kuplet keltirmish hadya,  
Buni bolalar ham bilardi garchi:  
*Reveillez vous, belle endormie*<sup>149</sup>.  
Bu, to‘zondan shunday chiqdi yuzaga:  
Mana shu kupletki, bosilgan bir choq;  
Ziyrak shoir Trike chiqargan uzoq  
Almanaxdagi ko‘hna qo‘shiqlar ichra,  
*Belle Nina*<sup>150</sup> so‘zi o‘rniga, ana  
Aslo tortinmasdan: *Belle Tatiana*<sup>151</sup>.

## XXVIII

Yetilgan qizlarning aziz sanami,  
Qo'shinlar turguvchi yaqin dahadan  
Kentli onalarning oromi-joni  
Rota komandiri ham yetib kelgan;  
Uh, qanday yangilik, so'ramang, qanday!  
Polkning musiqasi bo'lajak, hay, hay!  
Polkovnikning o'zi uni yuborgan.  
Shodlikning cheki yo'q, bal bo'lur chindan!  
Sevinib sakraydi hamma qizchalar <sup>(35)</sup>  
Mana taom tayyor. Juft-juft bo'lishib,  
Mehmonlar yurishar qo'lni ushlab.  
Qizlar Tatyani qurshab olalar,  
Erkaklar qarshida: cho'qinib hamma  
Ustalga cho'kishar g'ovur-g'uvur-la.

## XXIX

Tingandi gap-so'zlar bir lahzagina.  
Ovqat chaynashadi. Va har tomondan  
Sharaqlar har turli asbob, talinka.  
Qadahlar cho'qishar, jarang har yondan;  
Mana birin-sirin mehmonlar hozir  
Umumiy gurungga singar bahuzur.  
Bir-birin tinglamas, qichqirishadi,  
Kulishib, bahslashib chuvullashadi.  
Ochilib ketadi eshiklar birdan,  
Lenskiy, Onegin kirar shu palla,  
«Oh, egam! oxir!» der beka baralla.  
Qisilar mehmonlar va tezlik bilan  
Harkim stul, asbob taklif qiladi,  
Va ikki do'st darhol o'tqiziladi.

### XXX

Xuddi Tatyananing ro'baro'siga  
O'tqazishar, lekin tonggi oyday qiz  
Rangsizdi; quvg'indi ohudan xiyla  
Titroqdi; qoraygan ko'zlarin hargiz  
Yerdan uzolmasdi; dilda chayqalar  
Ehtiros olovi, boshi ay lanar.  
Ikki do'st tabrigin eshitmaydi u;  
Ko'zlardan yoshlari shu choqda duv-duv  
To'kilmoq istardi; qiz boyaqish tayyor  
Yuz tuban tushishga ketib hushidan.  
Lekin, idrok bilan, iroda bilan  
O'zin bazo'r tutib, jimgina aytar  
Bir-ikki so'zni u yamlab, ohista,  
O'tirar o'ziga zo'r berib, xasta.

### XXXI

Og'ir, fojeona, asabiy holat,  
Qizlar hushsizligi, ko'zyoshin ko'rish  
Bunga Oneginda yo'q sira toqat;  
Chunki bularni ko'p boshdan kechirmish.  
Katta ziyofatga ilingan hamon,  
Jahli chiqqan uning; lekin parishon  
Qizdagi larzani u sezgandan so'ng,  
Pushaymon ko'zlarin yerga tikdi to'ng.  
Qovog'ini soldi g'azablanaroq  
Lenskiyning jahlin chiqarib shu tun  
Va undan o'xshatib o'ch olish uchun  
Qasam ichdi. Mana kekkayib shu choq  
Fikran chizaboshlar u birin-ketin  
Hamma mehmonlarning karikaturasin.



## XXXII

Tatyanada bo'lgan sarosimani  
O'tirganlar bari bilaolardi;  
Chunki, muhokama, ko'zlar nishoni  
Shu topda tortilgan moy somsalarni  
(Baxtga qarshi, somsa bo'lgan sho'rtangroq);  
Jarkob bilan manje orasida yoq<sup>152</sup>  
Keltirib qo'yishar simlyanskiyni<sup>153</sup>,  
Puxta berkitilgan may shishasini;  
So'ng, uzun, ingichka ryumkalar qator;  
Sening beling kabi nozik va xipcha,  
Ey Zizi,<sup>154</sup> qalbimning sof guli, g'uncha,  
Ma'sum she'rlarimning parisi, ey yor,  
Sevgining sehrli sen piyolasi.  
Meni mast qilarding visol pallasi.

## XXXIII

Probka otilar, shishadan shu on  
May toshar, vishillar, she'r o'qish uchun  
Trike turadi, u ko'pdan buyon  
Bu paytni kutardi kekkayib butun.  
Unga ko'z tikishib majlisdagilar  
Chuqur bir sukunat kuzatadilar.  
Tatyana nimtirik; Trike mana,  
Bir parcha qog'ozni ushlab qo'lida  
Kuylaydi qalbaki. Chapaklar, saslar  
Uni olqishlaydi. Tatyana esa  
Majburdir shoirga ta'zim etishga;  
Ulug' bo'lsa hamki shoir xo'b kamtar,  
Qizning sog'lig'iga ichadi oldin,  
So'ngra taqdim etar qizga kupletin.

### XXXIV

Boshlandi tabriklar, qutlashlar qator  
Tatyana hammaga tashakkur etar,  
Oneginga navbat yetganda, xumor  
Va g'amgin qiz sari tashlaydi nazar.  
Qizdagi horg'inlik, parishon holat  
Yevgeniy qalbiga soldi marhamat:  
Qizga ta'zim etdi, so'zsiz Onegin,  
Uning ko'zlarining boqishi, lekin  
Negadir muloyim edi, fusunkor,  
U ta'sirlandimi chinakam, yoki  
Bu narsa sho'xlig-u noz edi balki;  
Xohishi bilanmi, yo beixtiyor,  
Harqalay mehribon bu boqish darhol:  
Tatyana qalbiga keltirdi majol.

### XXXV

Surilgan stullar taqirlar ekan,  
Xalq yopiriladi mehmonxonaga:  
Bolari guvillab chuchuk uyadan  
To'p-to'p uchgan kabi erkin dalaga.  
Laziz ovqatlardan topib qanoat,  
Qo'shnilar kekirib boshlaydi suhbat.  
Xonimlar kaminga yaqin o'tirar,  
Yosh qizlar burchakda shivirlab turar.  
Mana yashil rangli stollar yoyiq<sup>155</sup>.  
Chaqirar qizg'in qimorbozlarni,  
*Boston* hamda *Lomber*<sup>156</sup> – chollarning dardi,  
Bugunga qadar ham mashhur *vist* aniq  
Surushtirsang bir xil o'yindir bari,  
Zerikkan bekorlar suygan ermagi.

## XXXVI

Vist qahramonlari o'ynashgan edi  
Sakkiz qayta o'yin va sakkiz daf'a  
Ular o'z joylarin almashgan edi;  
Choy hozir. Sevaman tushki ovqat-la  
Choy ham kechki ovqat orasin ta'yin  
Etishni; qishloqda bu emas qiyin.  
Dahmaza kerakmas bunga hech qachon.  
Qornimiz – eng to'g'ri soatdir hamon;  
Fursati kelganda qistirib ketay,  
Ko'p vaqt men o'zimning baytlarim aro –  
Gap ochib bazmdan, bo'ldim ovora,  
Kuyladim taomlar, probka va may  
Haqida; ilohi Gomer,<sup>157</sup> sen kabi,  
Ey o'ttiz asrning ulug' sanami!

## XXXVII. XXXVIII. XXXIX

Mana choy berishar: qizlar odob-la  
Dasturxonga endi qo'l uzatarkan,  
Eshik orqasidan uzun bir zalda  
Musiqa guldirab yuksalar birdan.  
Ohangdor sadolar bilan sevingan,  
Choyini qoldirib qiyomi bilan  
Chet yoqa yerlardan bir paris<sup>158</sup> mana  
Petushkov yondoshib kelar Olgaga;  
Lenskiy raqs etar Tatyana bilan,  
Qallig'i qari qiz Xarlikovani  
Tambovli shoirim qo'ltiqlagandi,  
Buyanov ajralmas Pustyakovadan.  
Zalga sepilgandi shu choq hamma ham.  
Butun shavkati-la bal chaqnar ko'rkam.

## XL

Men bu romanimgning ibtidosida  
(Birinchi daftarga qilingiz nazar)  
Tasvir qilmoqchidim Alban<sup>159</sup> tarzida,  
Peterburg balini, rassomdek chevar.  
Berildim ko'ngilning bo'sh xulyosiga,  
Tanish xonimlarning nafis poyiga  
Doir xotiralar fikrim qoplamish,  
Ey nafis oyoqlar, yetar adashish  
Sizning u sehrli izlaringizda!  
Modomiki, yoshligim qilmadi vafo,  
Aqlimni yig'mog'im lozim mutlaqo,  
Ishlarim, uslubim tuzatay tezda;  
Ham romanning ushbu beshinchi bobin,  
Lirik chekinishlardan men tozalayin..

## XLI

Yosh umr quyuni, to'liqini kabi  
Bir rangda, bir turda, lekin sho'x, jo'shqin  
Valsning sho'x girdobi gir aylanadi;  
Juft bo'lib, juft bo'lib xalq boshlar o'yin.  
O'ch olish paytiga yaqinlasharoq,  
Onegin ichidan iljayib bir choq  
Yondoshar Olgaga. U bilan keyin  
Mehmonlar oldida raqs etadi chin.  
O'tqazib stulga keyin Olgani,  
Uyoqdan-buyoqdan so'z ochar asta,  
Bir-ikki minutdan keyin yanada  
Boshlanar qiz bilan valsning<sup>160</sup> davomi.  
Hamma ham hayratda... Lenskiy o'zi  
Ishonmas: bu tushmi yo aldar ko'zi...

## XLII

Mazurka gurladi. O'tmish zamonda –  
Mazurka gurlasa jadal, ketma-ket,  
Kattakon bir zalda, bir xonadonda –  
Poshnadan qarsillab ketardi parket,  
Qaqshab derazalar silkinar edi;  
Hozir unday emas! Xonimlar kabi  
Sip-silliq pollarda biz sirpanamiz.  
Shaharlarda shunday, qishloqda yolg'iz  
Mazurka hozir ham saqlagan tamom  
O'zining qadimgi ruhin, chiroyin:  
Mo'ylovlar, poshnalar, sakrash maqomin,  
O'zgartirmagandir ularni ayyom,  
U bizga jafokor moda balosi –  
Eng yangi rusiyalilar havasi.

## XLIII. XLIV.

Jasoratli mening Buyanov og'am  
Keltirdi Tatyana bilan Olgani  
Bizning qahramonga: shosharoq shu dam  
Onegin Olgani qo'ltiqlagandi.  
U bilan raqs etar beparvogina  
Engashib shivirlar qizga jimgina,  
Qandaydir tuzsizroq bir madhiyani,  
Qo'lini siqadi shul choq Olgani.  
Qizning bino qo'ygan yuzi gulgunday,  
Yonadi, Lenskiy ko'rdi hammasin,  
Qizishdi, tutashdi o'zin bilmayin;  
Rashk, g'azab ichida u yiqilgunday,  
Mazurka bitsin deb kutadi hali,  
Qizni keyin raqsga taklif qilgali.

Lekin, mumkin emas. Mumkinmas? Nechun?  
Oneginga Olga so‘z berib qo‘ygan.  
Yo Rabbim, yo Rabbim! Axir qanday kun!  
Na tinglar Lenskiy? Mumkin Olgadan...  
Mumkinmi? Ona sut og‘zida hali,  
U tannoz bo‘libdir, yoshlik mahali  
Hiylaga sinashta bo‘lmish halitdan,  
Halitdan xiyonat qilishni bilgan!  
Zarbani daf’ etish uchun mador yo‘q,  
Xotinlar makriga la‘nat sovurar,  
Chiqib tashqariga otini so‘rar,  
Minadi-chopadi. Ikki dona o‘q  
Va bir juft to‘pponcha – shu o‘zi faqat –  
Lenskiy taqdirin hal etar albat.





## OLTINCHI BOB

La, sotto igiorni nubilosi e brevi,  
Nasce una gente a cui'l orir  
non dole.

*Petr* <sup>161</sup>

### I

Onegin sezdiki Lenskiy g'oyib,  
Yanadan dilgirlik qo'ymaydi sira,  
Olgan qasosidan qanoatlanib  
Olganing yonida cho'mdi fikrga.  
Uning orqasidan Olga esnadi,  
Ko'zi jovdiraydi, Lenskiy qani?  
Va uzoq cho'zilgan so'nggi, o'yini,  
Og'ir bir tush kabi, hordirdi uni.  
So'ng raqs bitdi. Tayyor kechki ovqat ham.  
O'rin soladilar; endi mehmonlar  
Bilan hamma uylar dahlizga qadar  
Band bo'lgan. Shu topda hamma uchun dam,  
Tinch uyqu lozimdir. Faqat Onegin  
O'z uyiga jo'nab ketadi sekin.

### II

Hammayoq tinchidi: mehmonxonada  
Xurрак otar edi og'ir Pustyakov  
Zil-zambil va lappos xotini ila.  
Gvozdin, Buyanov hamda Petushkov,  
Jilla sog' bo'lmagan Flyanov, bari  
Yetishdi suyanib stullar sari.  
Polda yotar edi Trike janob,  
Fufayka va eski qalpoqda ag'nab.  
Qizlarni oromli uyqu quchgandi.

Tatyana va Olga uyi to'la qiz,  
Deraza ostida o'tirar yolg'iz,  
Bechora Tatyana uxlamagandi,  
Oy shu'lasida u yarqirab tanho,  
Qaraydi dalaga, jim dala, dunyo.

### III

ning birdan qang'ib keluvi,  
Ko'zlarida yongan oniy bir mehr,  
Olgaga nisbatan ajib qilig'i  
Uning yuragiga chuqur – bir ta'sir  
Qoldirib ketgandi...  
Lekin Tatyana  
Tushunolmas edi bu hodisaga.  
Qizni rashk qayg'usi to'lqinlatadi,  
Qandaydir sovuq qo'l qalbin siqadi,  
Qandaydir o'pqqonlik uning tagidan  
Shuvullab, qopqora girdob o'tganday...  
«Halok bo'laman, – der Tatyana, – Netay,  
U tufayli halok bo'lish o'zi shan,  
Men hech zorlanmayman: nechun zorlanay?  
U menga saodat bera olmagay».

### IV

Olg'a bos, tarixim! Shu sahifadan  
Bizni yangi bir shaxs aylaydi da'vat.  
Lenskiy qishlog'i, Krasnogoryedan  
Besh chaqrim narida sog'-u salomat –  
Yashab kelmoqdadir bugunga qadar,  
Falsafiy xilvatda beg'am, bekadar  
Zaretskiy; o'zi bir vaqtlar shaloq,  
Kartaboz shaykaga qo'rboshi; sayoq –  
Shumlarning boshlig'i, maypurish durust,  
Bu kunlarda halim, xush xulq va sodda;  
Oila bobosi, bo'ydoq bir ota,  
Shumlarning boshlig'i, maypurish durust,



Hattoki, u endi halol bir odam:  
Shunday tuzalmoqda bizning asr ham!

## V

Bir vaqt xushomadgo'y kibor olami  
Yovuz botirligin uning maqtagan:  
U chindan besh sajin naridagini  
Urardi mo'ljallab to'pponcha bilan,  
Bir marta, darvoqe bag'oyat sarxush  
Urush maydonida g'ayrat ko'rsatmish:  
Es-hushin yo'qotgan mast Zaretskiy  
Qalmoqi otidan, jonsiz singari,  
Balchiqqa yiqilgan va tushgan asir  
Fransuzlarga u: bebaho garov!  
Har tong Verida<sup>162</sup> uch shishani darrov<sup>(36)</sup>  
Qarzga ichar edi; shu uchun hozir  
Yana tutqun bo'lsa rozidir butkul:  
Bu nomus Tangrisi, bu yangi Regul<sup>163</sup>.

## VI

Goho u masxara qilardi qiziq,  
Ahmoqni o'xshatib tovlab qo'yardi,  
Yoki zimdangina, yoki op-ochiq,  
Dononi o'xshatib ahmoq qilardi,  
Garchi, hazillari uning ba'zi choq.  
O'ziga bersa-da ko'pgina saboq,  
Garchi, ba'zi vaqtda o'zi go'l-bayov  
Singari tuzoqqa tushsa-da darrov;  
Talasha bilardi Zaretskiy shan,  
Uning o'tkir-o'tmas javobi tayyor,  
Ba'zan tadbir ila indamay turar,  
Tadbir-la to'polon qiladi, ba'zan,  
Buza olar ikki yosh do'st orasin  
Duelga<sup>164</sup> yetkizib so'ng mojarosin.

## VII

Yoki yarashuvga majbur qiladi,  
Nonushtani ko‘rar uchovi baham,  
So‘ngra, hazil, yolg‘on gap tarqatardi,  
Ular obro‘cini to‘kardi har dam.  
Zamonlar o‘zgardi! Yigit mardligi  
(O‘zga bir sho‘xlikdir ishq dardi kabi)  
Quvnoq yoshlik ila kechadi qaytmay,  
Bizning Zaretskiy, men aytganimday,  
Oqibat voz kechdi bo‘ronlardan ham,  
Shumurt, akatsiya soyasiga band,  
Yashaydi misoli asl donishmand,  
Goratsiy singari ekadi karam,  
O‘rdak, g‘oz boqish-la ovora bo‘lar,  
Alifbe o‘qiydi undan bolalar.

## VIII

U ahmoq emasdi; bizning Onegin  
Qilmasa ham uni shaxsan ehtirom,  
Yoqtirar bu zotning muhokamasin,  
Ba‘zi to‘g‘rilarida qarashin sog‘lom.  
Onegin u bilan ko‘rishsa ba‘zan –  
Mamnun bo‘lar edi, shu-uchun ertan  
Uning kelganini ko‘rganda bir on,  
Onegin hech nima qilmadi gumon.  
Zaretskiy salom-alikdan keyin,  
Darrov kesib qo‘ydi o‘zga gap-so‘zni,  
O‘ynatib ayyorlik bilan yuz, ko‘zni,  
Oneginga berdi shoirning xatin,  
Onegin deraza yoniga kelib,  
O‘qidi ichida xatni tikilib.

## IX

Bu maktub yoqimli va asilona  
Qisqacha da'vatdan berardi xabar:  
Sovuq haqiqat-la, ta'zimkorona,  
Lenskiy duelga do'stin chaqirar.  
Onegin qayrildi cho'chimay sira,  
Shunday topshiriqning bu elchisiga  
Yuzini o'girdi, o'zga so'z darkor  
Emasdek, dediki: *u harvaqt tayyor!*  
Uyida yumushi ko'p bo'lgan uchun  
Zaretskiy uzoq qolish istamay  
Turdi, izohlarni ortiq ko'rganday,  
Chiqdi tashqariga; Yevgeniy shu kun  
Tanho surishtirib qalbini o'zi  
Harholda o'zidan bo'ldi norozi.

## X

Bu holat nojo'ya; qat'iy tekshirib,  
Chaqirdi o'zini vijdon hukmiga.  
Shunda ma'lum bo'ldi o'zidadir ayb.  
Birinchidan: haqsiz edi u kecha,  
Nozik va pokiza ishqni shu qadar  
Masxara qildiki, butunlay beor.  
Ikkinchidan: mayli, o'ynasin shoir,  
O'n sakkiz yoshlarda sevgiga doir  
Yoshlik havaslarin afv etish mumkin.  
Ko'ngildan sevarak shu yosh yigitni,  
Yevgeniy taassub quroli kabi,  
Yo qizg'in nizochi va sho'x o'spirin  
Ko'rsatmay o'zini, aql va nomus  
Egasi bo'lishi kerakdi... Afsus.

## XI

Bir yirtqich singari hurpaymay, balki,  
Ko'rsatsa bo'lardi asl hislarin;  
Unga lozim edi qurol tarkini  
Yosh qalbga o'rgatish... «Endi ish lekin  
Kechikdi, vaqt o'tdi... o'ylaydi yana,  
Shunisi yomonki, ishga bu daf'a  
Aralashib qoldi eski duelchi;  
U yomon, g'iybatchi, u so'zga epchil...  
Qaytsa, Zaretskiy har yerda uni  
Qattiq masxaralab yuradi har choq,  
Ivir-shivir qilar, kular har ahmoq...»  
Mana buni derlar fikri umumiy <sup>(37)</sup>!  
Nomus prujinasi, bu bizning Xudo!  
Mana, buning bilan aylanar dunyo!

## XII

Chidamsiz dushmanlik bilan bag'ri qon  
O'z uyida javob kutardi shoir;  
Mana ketgan qo'shni, bu ezma inson,  
Tantana-la javob keltirar oxir.  
Rashkchi uchun endi xuddi bir bayram!  
U qo'rqqan ediki, hazilkash oshnam  
Biron iloj topib hazil qilmasa,  
To'qimasa edi biron bahona,  
Olib qochmasaydi ko'ksini o'qdan,  
Butun shubhalari yechildi hozir:  
Erta tongga qadar yetib boradir  
Tegirmon bo'yiga ikkov uzoqdan;  
Bir-biriga qurol dast ko'tarishar,  
Chakkadan, yo beldan nishon olishar.

### XIII

Nozchini nafratga loyiq deb, o'ynoq  
Olgani ko'rishni duel oldidan  
Istamagan edi Lenskiy – qaynoq;  
Boqardi quyoshga, soatga ba'zan,  
Eng so'ngida shoir siltadi qo'lni.  
Qo'shni qizlar tomon boshladi yo'lni.  
Istadi Olgani hayratga solsin,  
O'z kelishi bilan qizarta olsin  
Kutganday bo'lmadi: avvalgi kabi  
Bechora kuychini qarshilash uchun  
Sakradi zinadan Olgasi gulgun,  
Yengil va havoyi umid singari,  
U edi o'ynoqi, sho'x-shan va beg'am,  
Avval qanday bo'lsa, shunday hozir ham.

### XIV

«Tez qochib ketdingiz kecha siz nechun?»  
Olgasining edi bu ilk savoli.  
Barcha tuyg'ulari burqugan tutun,  
Lenskiy indamas, yo'qdi javobi.  
Yo'qoldi shoirning rashki, dardi-da  
Bu tiniq ko'zlarning nuri oldida.  
Bu latif soddalik qay go'zalda bor,  
Uning o'ynoq ruhi qanday sho'lador!  
Boqadi shirin shavq ichida shoir,  
U ravshan ko'radi: yana sevilar;  
Qalbida shu zamon o'kinch sezilar.  
Kechir, deb Olgadan so'rashga hozir  
U ichdan titraydi, so'z topolmaydi,  
U baxtli, u endi qariyb sog'aydi...

## XV. XVI. XVII

Yana-da u o'ychan, yana xafa u,  
Go'zal Olgasining ro'baro'sida  
Vladimirda yo'q edi kuch, tuyg'u  
Tungi voqeani eslatay desa;  
O'ylaydi: «Men qizga bo'lgum xaloskor.  
Chidash mumkinmiki, buzuqi, ayyor  
Maqtashlar, oh-vohlar otashi ila  
Yosh qalbni aldagay qurib bir hiyla;  
Zaharli va chirkin bir qurt sunbulning  
Novdasin kemirib qo'ymasin tag'in;  
Atigi ikki tong o'pgan g'unchasin  
So'lg'inlik quchmagay – yosh umrin gulning».  
Do'stlarim, chiqadi bundan shu ma'ni:  
Oshnam-la duelga chiqurman ya'ni...

## XVIII

Tatyana qalbini qanday bir yara  
Kuydirayotganin bilsaydi bir on!  
Oh, koshki, xabardor bo'lsa Tatyana,  
Koshki, u bilsaydi erta nogahon –  
Vladimir Lenskiy bilan Yevgeniy  
Talashar qabrning tin ko'lkasini;  
Ehtimol, Tatyana ishqiy yanadan  
Qovushtirarmidi do'stlarni qalban!  
Bu ehtirolarni hech kimsa lekin  
Tasodifan bo'lsin kashf qilolmadi,  
Onegin butunlay og'iz ochmadi;  
Tatyana jim ingrar edi yashirin,  
Bila olar edi enaga yolg'iz,  
Lekin u juda ham edi fahmsiz.

## XIX

Butun kech parishon edi Lenskiy.  
Goh sukut qiladi, dam u shod yana,  
Agar erkalatsa ilhom kishini,  
Har vaqt shunday bo'lar: Lenskiy xafa,  
Chalardi klavikord,<sup>165</sup> solib qovog'in  
Yolg'iz akkordlarni olardi lekin.  
Dam u ko'zlarini tikib Olgaga,  
«Men baxtli, to'g'rimi» derdi ohista.  
Kech bo'ldi; jo'namoq payti ham yetdi  
Qalbi siqiladi, dard-u g'am ulkan.  
U yosh qiz ila xayrlasharkan  
Ko'ngli go'yo chil-chil sindi-da ketdi.  
Qiz unga der: «Sizga nima bo'ldi-a?»  
Eshikda u javob berar: Hech nima.

## XX

Uyiga qaytib u pistoletini,  
Nazardan o'tkazib, yana yashikka  
Joyladi, so'ngra u yechib kiyimni,  
Sham yoqib, Shillerni ochdi ohista.  
Lekin, unga hokim yolg'iz bir fikr;  
Hasratli qalbini mudroq bosmaydir:  
Tasvir qilib bo'lmas go'zalligi-la  
Olgani ko'radi ko'zi o'ngida,  
Shunda Vladimir kitobni yopar,  
Qo'lga qalam olar; ishqiy safsata  
Ila sug'orilgan misralar esa  
Kumushdek jaranglar, ko'ngildan oqar.  
Ziyofatlarda mast Delvig singari<sup>166</sup>  
U o'qir she'rlar – o't va dard bari.

## XXI

She'r tasodifan saqlangan, mana  
Men uni sizlarga etayin taqdim:  
«Qayga uzoqlashib ketdingiz, qayga,  
Bahorimning oltin kunlari, baxtim?  
Menga kelajak kun nima hozirlar?  
Chuqur qorong'ida yashirin sirlar,  
Nigohim behuda qidirar uni,  
Hojat yo'q: haqlidir taqdir qonuni.  
Teshib o'tgan o'qdan men yiqilaman,  
Yoki yondan uchib o'tadi qiyo,  
Barchasi ne'matdir: uyg'oqlik, ro'yo,  
Bordir har biriga soat – muayyan;  
Muborakdir zahmat, tashvishli kun ham,  
Muborakdir zulmat yopingan tun ham!

## XXII

Sho'lalar yarqirab yonadi tongda,  
Kunduz yorqin jilva qiladi birdan;  
Men esa – ehtimol, erta sog'ona  
Sirli zulmatini quchib yotarman.  
Yoshgina shoirning xotirasini  
Qamrar unutilish – zamon daryosi,  
Meni unutadi jahon; sen lekin,  
Ey nafosat qizi, kelasanmi chin,  
Shu bevaqt, mozorim ustida ko'zyosh  
Quyib o'ylarsanmi: u sevdi meni,  
Jo'shqin bir umrning dardli tongini  
Yolg'izgina menga baxsh etdi sirdosh!  
Sevgili dildorim, azizim mening  
Kelaqol, kelaqol: men ering sening! ...»



### XXIII

U shunday yozgandi mubham va so'lg'in,  
Buni romantizm deya ataymiz,  
Garchi romantizm bunda bus-butun  
Ko'rmayman, ham uni nima qilgaymiz?  
Nihoyat, yoyilgan vaqtda tong nuri,  
Charchagan boshini solar u quyi,  
Ideal<sup>167</sup> deb atalgan modali so'zda,  
Mudroq paydo bo'ldi jimgina ko'zda;  
Uyqu lazzatini totib u ozroq,  
Jimjit kabinetga kiradi chaqqon.  
O'zni unutmadi, qo'shnisi shu on  
Uyg'otar shoirni u turtib qistoq:  
«Turing, soat yetti, vaqt o'tib qoldi.  
Onegin bizlarni naq kutib qoldi».

### XXIV

Ammo, yanglishardi: chunki Onegin  
Dang qotib uxlardi xuddi shu choqda.  
Yorishib borardi tun asta-sekin.  
Xo'roz tong yulduzin qutlar uzoqda;  
Onegin bemalol uxlab yotardi.  
Mana quyosh chiqib yuksala bordi.  
Havoda bo'ronlar guvlab aylanar,  
Oftobda yarqirab qor uchar, o'ynar,  
Yotoqdan Yevgeniy turmagan ammo,  
Hali ham yelpiydi uyqu qanoti.  
Mana ko'zlarini ochdi nihoyat.  
Pardani ko'tarar, chaqnaydi samo.  
Ko'rarki, qo'radan jo'nash mo'ljali  
Allaqachon o'tgan, shoshar turgali.

## XXV

Darhol ching'irlatar. Yugurib kirib,  
Uning xizmatchisi Fransuz Gilo,  
Joma va tufisin tez taqdim etib,  
Ichki kiyimni ham qilar muhayyo.  
Kiyinishga shoshar shu choq Onegin.  
Giloga buyurar – tez tayyorlansin  
Birga borish uchun, ham olsun qo'lga  
Qurol-o'q solingan bir yashik. Yo'lga  
Mana tayyor bo'ldi chopqir chanalar.  
Onegin o'tirib, tegirmon tomon  
Uchadi: Yetdilar. Qarolga shu on.  
Qurolni olib yur, deb u buyurar.  
Otlarni daraxtga bog'lab xizmatkor,  
Onegin ortidan jo'nar bosib qor.

## XXVI

To'g'onga suyanib ko'pdan Lenskiy  
Kutib turar edi bunda besabr.  
Qishloq mexanigi quv Zaretskiy  
Tegirmonda har xil nuqson topadir.  
Afv so'rab yetib keldi Onegin,  
Zaretskiy hayron, buradi labin:  
«Qani axir, qayda sizning sekundant?»<sup>168</sup>  
Duel sohasida klassik, pedant,  
Usulboz edi aslida xulqan,  
Hatto odamzodni o'ldirmoqda ham  
Qoida, shartlarin so'rardi hardam,  
Bu san'at shartlarin buzmay qat'iyon,  
Qadimgi odatin raso bajarar,  
(Mana bu sifatini maqtasak bo'lar).

## XXVII

«Mening sekundantim?» dedi Onegin:  
«Mana u: rafiqim, Gilo afandi.  
Mening namoyandam uchun men taxmin  
Qilamen e'tiroz bo'lmagay endi:  
Garchi bu noma'lum kishi esa-da,  
Lekin o'zi juda vijdonli kimsa».  
Zaretskiy labin tishlab qolarkan,  
Onegin so'raydi Vladimirdan:  
«Xo'sh, endi boshlaymiz?» – Boshlasak bo'lar, –  
Deb aytdi Lenskiy, ketdi ikkisi  
Tegirmon ortiga... Va Zaretskiy  
Ham vijdonli kimsa – xizmatkor tuzar –  
Ekan nariroqda shartnoma<sup>169</sup> muhim,  
Dushmanlar turardi yerga boqib jim.

## XXVIII

Dushmanlar! Ko'pdanmi qonning chanqog'i  
Ayirdi ularni bir-birisidan?  
Yaqinda ularning butun bo'sh chog'i  
Suhbatda, taomda sheriklik bilan  
O'tmasmidi axir? O, ular hozir  
Dahshatli, tushunib bo'lmas bosiriq  
Ichra tayyorlashar sokin, op-ochiq,  
Bir-birlari uchun balo chuqurin.  
Belanmay qonlarga qo'llari hali,  
Ular xandon urib, naq do'stlar kabi,  
Topishib ketmasmi yana bir-birin?  
Biroq kiborlarning dushmanligin ko'r,  
Qalbaki uyatdan qo'rqadilar zo'r.

## XXIX

Mana to'pponchalar birdan yarqirar.  
Bolg'acha gurladi tegib sumbaga:  
Yarqiroq o'qdonga o'qlar joylashar,  
Tepki shiqilladi birinchi daf'a.  
Mana to'kiladi o'qdonga kulrang  
Oqimcha singari porox: ana jang!  
Mustahkam buralgan tishli chaqmoq tosh  
Hozircha tikkaygan; parishon, dilg'ash,  
Bir to'nka ortida Gilo turadi.  
Ust to'nni tashlaydi ikki dushman ham.  
Zaretskiy o'ttiz ikki teng qadam  
Juda aniq, tekis qilib o'Ichadi,  
Do'stlarni ayirdi har ikki tomon,  
Oldi to'pponchasin ikkisi shu on.

## XXX

«Endi yaqinlashing» – Sovuq qon, vazmin,  
Nishon olmay hali bu ikki dushman  
Keskin odim otar, tekis va sokin  
To'rt qadam qo'yadi ikki tomondan,  
O'tishdi o'limning to'rt bosqichini.  
Oldinga bosishdan to'xtamay hali,  
O'z to'pponchasini Yevgeniy shu on  
Ko'tara boshladi asta, beomon;  
Mana tashladilar besh qadam tag'in.  
Lenskiy so'l ko'zin biroz qisaroq,  
Nishon ola boshlar – shu zamon biroq  
Onegin o'q uzdi... Taqdirning tayin  
Etgan soati ham urildi hozir,  
To'pponchani qo'ldan tushirar shoir.

## XXXI

Qo'lni ko'kragiga sekin qo'yadi,  
Yerga yiqiladi... Bulutli nigoh  
G'amnimas, o'limni tasvir qiladi.  
Tog'larning sirtidan ba'zida nogoh,  
Quyoshda uchqunlar chaqnatgan qorlar —  
Bo'laklanib shunday asta yumalar.  
Oniy izg'irindan qalbi titragan  
Onegin chopadi shoirga birdan,  
Boqar va chaqirar, faqat behuda:  
Chunki endi u yo'q. Navqiron shoir  
Bemahal o'limni quchdi, ming chaqir!  
Bo'ron nafasidan tong shafag'ida  
Go'zal, toza chechak so'ldi bemahal,  
So'nib qoldi birdan mehrobda mash'al!..<sup>170</sup>

## XXXII

Qimir etmay yotar, ajib juda ham,  
Manglayida horg'in va so'nggi armon,  
U ko'krak ostidan yarador, shu dam  
Oqardi tinmasdan yarasidan qon.  
Bir nafas ilgari bu qalb ichida  
Urrib turar edi ilhom va gina,  
Dushmanlik va umid, muhabbat, har on  
O'ynar edi hayot, o'ynar edi qon:  
Endi u tashlandiq g'arib uy kabi,  
Ichi qop-qorong'i va jimjit faqat,  
Uni quchgan endi mangu sukunat,  
Pardalar yopilgan, derazalari  
Bo'r bilan suvalgan. Yo'q uy bekasi.  
Qayda, Xudo bilar. O'chgan qorasi.

### XXXIII

Yaxshi bo'lar yozib o'tkir hajviya  
Befahm dushmanni quturtirish chin.  
Ahmoq shoxlarini o'jarchasiga,  
Egaroq oynaga uning qarashin  
Tomosha qilishlik juda yaxshiku;  
O'zini tanishga ko'p uyalsa u,  
Hammadan yoqadi, do'stlar, u agar –  
Ahmoqcha baqirsa: menmi bu magar!  
Yana ham yaxshiroq bo'lardi, zimdan  
Unga tayyor qilib bir parcha mozor,  
Yaxshi masofadan turib, purviqor  
Nishon olsang rangsiz peshonasidan;  
Lekin darxon qilish uni bus-butun,  
Jilla ham yoqmasa kerak siz uchun.

### XXXIV

Na bo'ladi, agar o'qingiz bilan  
Yiqilsa yoshgina qalin do'stingiz,  
Sizga tavozesiz boqib, yo birdan  
May ichish bazmida tamom sababsiz,  
Bir bahona topib qilsa haqorat.  
Yo qizg'in achchig'dan o'zi betoqat,  
Jangga da'vat etgan bo'lsa u mag'ur,  
Ayting: ruhingizni qanday his bo'g'ur,  
Agar u do'stingiz jim quchsa yerni,  
Qarshingizda yotsa qimirlamay zum,  
Sho'rlikning boshini silasa o'lim,  
Tosh singari asta qotsa badani?  
Boshida enkayib ming qichqirsangiz,  
Lekin undan sado chiqmasa hargiz?

### XXXV

Ko'ngil azobining iztirobidan  
Mahkam siqib qo'lda to'pponchasini,  
Yevgeniy shoirga nazar tashlarkan,  
«Na bo'ldi? O'libdi!» dedi qo'shnisi.  
O'libdi! Dahshatli bu xitob bilan  
Tosh qotib Onegin qaltirar, birdan  
Chekinar; chaqirar odamlarni u,  
Yaxlagan jasadni Zaretskiy shu –  
Zamon bir chanaga avaylab qo'yar;  
Uyga u eltadi mudhish xazina  
O'likni payqagan otlar jimgina  
Turmaydi; urunib, ko'piklar sochar.  
Po'lat so'liqlarni chaynashar tinmay.  
So'ngra, ular uchib ketadi o'qday.

### XXXVI

Ehtimol, shoirga siz achinasiz:  
Nash'ali umidlar gullagan payti.  
Dunyoga ulardan qoldirmay bir iz,  
Go'daklik kiyimin tashlamay hali,  
U so'ldi! Qayerda qizg'in hayajon,  
Qayerda yosh, yuksak, nozik va mardon  
Hislar, fikrlarning nodir va asl  
Intilishlari u? Qayerda, aytgin?  
Qani muhabbatning toshqin havasi,  
Bilimga, mehnatga bo'lgan chanqoqlik,  
Qabih ish, uyatdan qo'rquv va poklik?..  
Qaydasiz, muqaddas she'r ro'yosi!?  
Qaydasiz, samoviy hayot soyasi,  
Qaydasiz, dil suygan xayol sharpasi?

## XXXVII

Ehtimol, jahonning saodati-chun,  
Yoki shuhrat uchun tug'ilgandi u;  
Sukut etgan sozi ohangdor kuyin  
Va go'zal sadosini dunyoda mangu  
Yuksalta bilardi. Kim bilgin, balki,  
Kiborlar olami narvonidagi  
Oliy bir martaba, izzat poyasi  
Uni kutar edi. Shoir soyasi –  
Muqaddas sirini o'zi-la birga  
Qabrga eltgandur; endi biz uchun  
Hayot bag'ishlovchi sozni quchdi tun.  
Qabrda yotar u, va unga sira  
Yetmas zamonlarning madh-u sanosi,  
Kelgusi nasllar ishq, duosi.

## XXXVIII. XXXIX

Bu ham bir ehtimol: shoirni, balki,  
Kutib turar edi oddiy bir taqdir.  
O'tib ketgach qizg'in yigitlik davri,  
Sovurdi ruhining o'ti, kim bilar?  
O'zgarardi balki, u sekin-sekin  
Ijoddan ayrilar, olardi xotin,  
Qishloqda taltayib yashardi so'qim,  
Egnida qavilma choponi to'qim,  
Hayotni anglardi balki chinakam,  
U qirq yoshida bod kasalga uchrar,  
Yer, ichar, zerikar, semirar, ozar,  
Nihoyat yotoqda, ajal kelgan dam,  
O'lgan bo'lar edi – bunga ne chora,  
Bolalar, kampirlar, tabiblar ora.



## XL

O'quvchim, har nima bo'lmasin, mayli,  
Lekin, afsuski, u yoshgina oshiq,  
U shoir, tafakkur, xayol timsoli  
Halok bo'ldi do'stning qo'lida yoziq.  
Ilhomning farzandi yashagan joydan,  
So'l tomonda bordir bir kichik maskan,  
Bu yerda qo'sh archa o'sar yonma-yon,  
Archaning tagidan oqadi haryon  
Buloq suvi kumush uqa singari;  
Bunda qo'shchi orom olishni sevar,  
To'lqinga botirish uchun kelishar  
Pichanchilar olib jarang ko'zani;  
Quyuq soyalikda, buloq yonida,  
Tikilgan kichik va sodda obida.

## XLI

Bahorning yomg'iri qir ekinini  
Tomchilab yashnata boshlarkan, cho'pon  
Haykalning ostida o'z shippagini  
To'qib, baliqchilar haqida doston  
Kuylaydi; yoshgina shaharlik xotin,  
O'tkazib qishloqda issiq yoz chog'in,  
Otini qamchilab ucharkan yolg'iz,  
Uchi ko'rinmagan dalada g'amsiz,  
Qayish tizginini birdan tortaroq,  
Haykalning oldida otni to'xtatar.  
Shlyapadan mayin to'rini tortar,  
Ko'zini yugurtib o'qirkan shu choq  
Bir sodda bitikni – ma'yus bo'ladi  
Va nafis ko'zlarga yoshlar to'ladi.

## XLII

Top-toza dalada jo'narkan sekin,  
Bu xotin xayolga sho'ng'iydi chuqur.  
Ruhi uzoq zamon yo'qotib erkin  
Lenskiy taqdiri bilan lim to'lur.  
O'ylaydi: «Olganing holi na bo'ldi?  
Qancha vaqt qalbiga g'am-g'ussa to'ldi,  
Yoki tez o'tdimi motam pallasi,  
Qayerda turarkin endi opasi?  
Satang go'zallarga u satang dushman,  
Nash'a va insonlar qochqini qayda?  
Qayda mudom dili ziq bo'lgan telba?  
Yosh shoir qotili qayerda sarson?»  
Bu haqda hisobot berurman: faqat  
Batafsil so'zlashga zolimdir fursat.

## XLIII

Lekin, hozir kutmang. Sevsam-da uni –  
O'z qahramonimni men butun qalban,  
Garchi qaytsam-da unga bir kuni,  
Biroq hozir aslo qarayolmayman.  
Yillar nasr sari sudraydi meni,  
Yillar quvayotir sho'x qofiyani,  
Men esa – oh chekib bo'layin iqror, –  
Ketidan sudralib boraman beor.  
Qadimiy qalamning yo'qdir havasi,  
Tarqoq varaqlarni qoralash uchun;  
O'zgacha va sovuq xayollar, butun  
O'zgacha zahmatning g'am-andishasi  
Hayot bazmida ham, jimjitlikda ham  
Qalbim ro'yosini tinch qo'ymas bir dam.

## XLIV

Tanidim o'zgacha orzu sasini,  
Tanidim endi men yangi qayg'uni,  
Orzular qaynatmas qalb nash'asini,  
Eski qayg'ularning dilda tuguni  
Xayollar, sizdagi sirdoshlik qani?  
Mangu qofiyasi u *yoshlik* qani?  
Ajabo, yoshlikning gultoji chindan  
So'lganmi, nihoyat, so'lganmi birdan?  
Inonish mumkinmi, shumi haqiqat,  
Qayg'uli har qanday sho'xlikdan xoli,  
O'tarmi umrimning bahor ayyomi?  
Shu choqqacha hazil derdim men faqat,  
Nahotki, yoshligim qayta bermas yuz?  
Nahotki, yoshim ham bo'libdir o'ttiz?

## XLV

Demak, umrimning-da o'tmishidir yarmi,  
Ko'raman, lozimdir iqror etishim.  
Xo'p, taqdir shu ekan: endi samimiy  
Xushlashaylik, yengil yoshligim menim!  
Minnatdorman sendan zavq-safo uchun,  
Qayg'u, dard, yoqimli u jafu uchun.  
Sho'xliklar, qaynashlar, bazmlar, surur –  
Baxsh etgan bor tuhfang uchun tashakkur.  
Rahmatlar o'qiyman, sen bilan har on  
G'avg'olar ichida, sukut, ichinda,  
Kayflar surgandim... Qongunchagina. . .  
Bas, yetar! Bugun men yangi yo'l tomon  
Ravshan ko'nglim bilan qadam tashlayman,  
O'tmishdan men orom ola boshlayman.

## XLVI

Orqamga qarayin kechir, maskanim,  
O'ychan ruhim tushi, qizg'in xayoli,  
Shirin tanballik-la to'la kunlarim  
Qo'yningda bir zamon kechdi vafoli.  
Sen esa, sen ham, ey yosh jo'shqin ilhom,  
Mening xayolimni to'lqinlat mudom,  
Sust, mudroq qalbimni sen jonlantirgil;  
Maskanimga tez-tez sen uchib kelgil,  
Shoir ruhi uchun aslo qo'yma yo'l,  
Sovushga, qurishga, yovvoyilanishga,  
Nihoyat, tosh kabi qotib qolishga,  
Kiborlar hayoti bo'g'uvchi bir qo'l,  
Bu girdob ichida, siz bilan, do'stlar,  
Afsuski cho'milib keldik barobar<sup>(38)</sup>!





## YETTINCHI BOB

Moskva, Rossiyaning sevikli qizi,  
Qaydan topish mumkin mislingini sening?  
*Dmitriyev*

Sevmasdan bo'lurmi ona Moskvani!  
*Baratniski*

Moskvaga quvg'in bo'lish! Demak jahonni ko'rish!  
Qayer yaxshiroq?  
Biz bo'lmagan joy.  
*Griboyedov<sup>171</sup>*

### I

Chaqnagan bahorning nafasi bilan  
Tevarak tog'larning sirtidan qorlar  
Erib, loyqalanib oqadi birdan,  
Suvga lim to'ladi dala-o'tzorlar.  
Uyqudan ko'z ochib tabiat, yorqin –  
Tabassum-la qarshi olar yil tongin.  
Zangori tus bilan porlaydi samo,  
O'rmonlar ko'karar po'rsillab go'yo,  
Ranglari tovlanar toza va tiniq.  
Dalaning bojini yig'ish-chun ari,  
Mo'm hujradan uchar o'tloqlar sari.  
Vodiylar sergiydi, tovlanar iliq.  
Podalar ma'rashar va bulbul bunda  
Sayraydi tunlarning jimjitligida.

### II

Kelishing naqadar hasrat baxsh etar,  
Bahor, oh bahor! Ey sevgi fasli!

Qanday intizorlik, hayajon, kadar  
Ruhimga singadi, bilsayding, asli!  
Men qanday og‘ir bir yupanish bilan  
Zavqlarga botaman, bahorning esgan,  
Yuzimni silagan nafasi ila,  
Qishloq sukutining sof og‘ushida!  
Zavqlarmi begona, yo menim uchun,  
Har nakim baxsh etar hayot va surur,  
Har nakim yashnatar, sochar ziyo-nur,  
Allaqachon o‘lgan ruhimga so‘lg‘in  
Uzilish, zerikish, horg‘inlik berar?  
Har nima u uchun qora ko‘rinar?

### III

Yoki kuz faslida to‘kilgan barglar  
Yana qaytib kelsa, bo‘lmaymizmi shod,  
O‘rmonlarning yangi qo‘shig‘in tinglar  
Bo‘lsak kechmishlarni etmaymizmi yod?  
Yoki qayta kelmas o‘tar umrimiz  
Astagina so‘lib borishini biz,  
Dard chekib o‘ylaymiz, jonli, yashnagan  
Tabiat oldida tuyamiz ravshan?  
Ehtimolki yodga tushadi tag‘in,  
Shoirona ro‘yo ichida dildor,  
O‘zgacha bir bahor, eski bir bahor,  
Bu bahor uzoq bir diyoy va oydin  
Ajoyib tun, sevgi xayoli shunda  
Qo‘zg‘atmasmi to‘lqin yurak ichida...

### IV

Mana qanday fasl: tanti yalqovlar,  
Epikur<sup>172</sup> muridi – hakimlar, yana  
Beparvo, baxtiyor, beg‘am anqovlar,  
Levshin maktabining qushchalari-la (39),

Siz ham, ey qishloqning o'tog'alari,  
Sizlar ham, sersezgi xonimlar, qani,  
Sizni chaqiradi qishloqqa bahor,  
Iliqlik, gul va ish fasli ko'p dildor,  
Ilhomlarga to'lib kezishlar payti,  
Chaqiradi sirli, oydin kechalar,  
Do'stlarim, dalaga! Tez chiqing, kechar.  
Chiqing, og'ir yukli karetdami,  
Pochtovoy yo oddiy aravalarda,  
Shahar qopqasidan chiqingiz barcha.

## V

Ha, siz-chi lutfkor o'quvchim, keling,  
Chetdan xarid qilgan aravangizda,  
G'ovur-g'uvur to'la shaharlardan keting,  
Qish chog'i unda xo'b zavqlandingiz-da;  
Boraylik bilarmon bu muzam bilan  
Ismsiz u daryo bo'yida turgan  
Qishloqqa, tinglaylik o'rmon gurlashin;  
Bekorchi, noxushnud bir go'shanishin –  
Mening Oneginim yaqin zamonda,  
Xuddi shu yerlarda qishni kechirgan;  
Xayolchan, suyukli Tatyana bilan  
Yashagan butun qish bo'lib hamsoya.  
Lekin, endi uning qorasi o'chgan,  
Bu yerga u g'amli iz tashlab ko'chgan.

## VI

Yarim bir doira shaklida yotgan  
Tog'lar orasida kichik buloqqa  
Boraylik, suv oqib yashil uvadan  
Daraxtlar oralab yetar irmoqqa.  
Bu yerda bahorning oshig'i bulbul  
Butun kecha kuylar; va na'matak gul

Ochilgan; buloqning tovushi mayin;  
Qartaygan qo‘sh archa soyasi sarin;  
Bu yerda ko‘rinar bir qabr toshi,  
Yozuvi so‘zlaydi o‘tgan kimsaga:  
«Falon bir tarixda, falon sanada,  
Botirlar o‘limi bilan yosh chog‘i  
O‘lgan Vladimir bunda yotadir,  
Qabringda orom ol, yosh yigit – shoir!»

## VII

Keksaygan archaning butoq-shoxida,  
Bir choqlar, sahargi shabboda sarin,  
Xokisor mana shu qabr boshida,  
Tebratardi sirli gultojni sekin.  
Bir mahal, quyilgach kech g‘ira-shira,  
Bu yerga kelishib ikki hamshira,  
Qabr tepasida quchoqlasharoq,  
Yig‘lashar edilar oydinda inoq.  
Faqat, hozir esa... bu g‘amli haykal  
Unutilgan butun. Unga borgan iz  
O‘chgandir. Butoqlar endi gultojsiz,  
Mo‘ysafid va yupun cho‘pon har mahal,  
Bunda avvalgiday qo‘shiq aytadi,  
Kambag‘al chorig‘in bunda yamaydi.

## VIII. IX. X

Bechora Lenskiy! Biroz vaqt Olga  
Ichidan ingradi, yig‘ladi piq-piq.  
Hayhot! Yosh qalliqqlar o‘z qayg‘usiga  
Bo‘la olmas ekan uzoq vaqt sodiq!  
Boshqasi jalb etdi uning diqqatin,  
Boshqasi bu qizning dard-u hasratin –  
Sevgi xushomad-la yupatdi tamom  
Bu harbiy odamdi, xullasi kalom,



Jalb etdi Olganing muhabbatini,  
Mana qiz u bilan mehrob qoshida  
Turardi jimgina, gultoj boshida,  
Boshin quyi solib kutar baxtini.  
Suzuk ko'zlarida o't yonar lim-lim,  
Lablarida uning yengil tabassum.

## XI

Bechora Lenskiy! O'lim bag'rida,  
Soqov abadiyat quchog'ida u,  
Qayg'uli kuychining yoniq ko'ksida,  
Xiyonatning mash'um xabari tuyg'u –  
G'azab to'ldirdimi? Yo uyquda kar,  
Hushsiz va sezgisiz rohatda yotar?  
Jahli chiqmadimi hech nimadan ham,  
Uning uchun yopiq va gungmi olam?  
Naq shunday! Parvosiz bir unutilish  
Qabrga kirganda bizni kutadi.  
Sevgililar, do'stlar, dushmanlar sasi  
Nogahon kesilar. Merosxo'rlar tish  
Qayrashib birgina mulk uchun, essiz,  
Bir janjal boshlashar tezdin hayosiz.

## XII

Tez kunda Olganing jarang ovozi  
O'chdi Larinlarning xonadonidan.  
Xizmati tufayli o'z Olgasini  
Kuyov olib polkka jo'naydi rasman.  
Kampir, qizi bilan vidolashgan chog',  
Yoniq ko'zyoshlarin oqizdi buloq,  
Joni naq bo'g'ziga tiqilgan kabi.  
Yolg'iz bir Tatyana yig'layolmadi,  
Faqat, uning shu on yuzlari mahzun,  
Qoplendi o'limning o'chiq rangi-la;

Hamma ham eshikka chiqqan paytda  
Kelin va kuyovning atrofin butun  
Qurshab olib hamma vidolasharkan,  
Tatyana ularni kuzatdi qalban.

### XIII

Ularning qorasi o'chguncha bu qiz  
Qaradi, go'yoki tuman ichidan...  
Mana qoldi yolg'iz, Tatyana yolg'iz!  
Hayhot! Shuncha yillar dugona bo'lgan,  
Uning bu qumrisi, do'st-sevgilisi,  
U bilan tug'ishgan aziz singlisi  
Tole' yeli uni uchirdi yiroq,  
Undan ayrilgandi abadiy shu choq  
Soyadek tentirab yurar bekorga,  
Xarob bog'chalarga ba'zan qaraydi...  
Hech yer, hech narsadan orom olmaydi.  
Bosib tindirilgan u ko'zyoshlarga  
Na taskin topadi va na tasalli,  
Yurak qoq yorilib ketguday hali.

### XIV

Mudhish yolg'izlikda kuchliroq yonar  
Tatyana ko'ksida sevgi otashi  
Onegin uzoqda. Lekin zo'rayar  
Qizning yuragida sog'inch, qo'msashi.  
Endi hech ko'rmaydi uni Tatyana,  
Va o'z qardoshining qotili yana  
Qizning yuragida nafrat ham qo'zg'ar,  
Shoir halok bo'ldi... Yodiga olar  
Biron kishi yo'qdir. Mana birpasda  
O'zgaga berildi yosh mahbusasi.  
Moviy samodagi bir tutun kabi  
Shoir xotirasi qolmadi esda.

Ehtimol, shoirga ikki qalb hanuz  
Qayg'urar... Qayg'uda ne bor, aytingiz!

## XV

Oqshom payti. Osmon qoraygan. Suvlar  
Sekin oqar... Qo'ng'iz vizillab qolar.  
Laparchilar tingan – tarqalgan ular,  
Daryoning narigi bo'yida yonar  
Baliqchilar o'ti. Tatyana shu choq  
Sof dalada yolg'iz sayr etdi uzoq.  
Xayollarigina chulg'agan uni,  
Quyulardi sekin oy kumush nuri.  
Yurdi, yurdi. Qirdan ko'rdi quyida:  
Onegin qo'rasin ko'rdi nogahon,  
Tepaning ostida qishloq va o'rmon,  
Bir bog'cha tip-tiniq daryo bo'yida.  
Boqarkan ularga Tatyana dili  
Bir zumda tez urib, dukullab ketdi.

## XVI

Uni sarosima qilar gumoni:  
«Oldinga yuraymi, orqaga qaytay?..  
U-ku bunda emas, bilmaslar meni...  
Shu uyga, shu boqqa bir qarab o'tay...»  
Bazo'r nafas olib Tatyana shu on  
Tushadi tepadan, atrofga hayron  
Yugurtar qarorsiz boqishlarin qiz...  
So'ng kirar hovliga, hovli kimsasiz.  
Kuchuklar uvullab unga yugurdi.  
Qo'rquvdan bu qizning dod-faryodiga  
Atrofdan chuvullab bir to'da bola  
Bir zumda yig'ilib itlarni urdi,  
Va quvdi har yoqqa ko'tarib suron,  
Himoya qilishdi qizni shu zamon.

## XVII

«Ko‘rishim mumkinmi barinning uyin?»  
So‘radi Tatyana. Tezda bolalar,  
Kalitini olib keltirish uchun,  
Anisya qoshiga duv yugurdilar;  
Darhol qiz yoniga kelar Anisya,  
Eshik ochiladi qiz qarshisida.  
Tatyana bo‘sh uyga kirar; bir zamon  
Bu yerda yashagan bizning qahramon.  
Tatyana ko‘radi: zalda qarovsiz  
Bilyardning ustida tayoq dam olar,  
G‘ijimlangan, yumshoq kursida yotar  
Chavandoz qamchini. Uzoq boqar qiz;  
Kampir unga dedi: «kamin mana bul,  
O‘tirardi barin shu yerda nuqul».

## XVIII

Bu yerda u bilan qilardi ovqat  
Qo‘shnimiz Lenskiy marhum qish payti.  
Ketimdan bu yoqqa qiling marhamat,  
Mana bu janobning o‘z kabineti.  
Bunda rohat qilib ichardi qahva.  
Prikazchiklaridan tinglar ma’ruza,  
Kitob ham o‘qirdi ertalab ba’zan...  
Eski barin o‘zi shunda yashagan;  
Shu yerda men bilan yakshanba kuni  
Deraza oldida taqib ko‘zoynak,  
Qarta ham o‘ynagan u keksa andak  
Tangrim yorlaqagil qabrida uni,  
Sovuq yer bag‘rida unga rahm qil,  
Bir kaft suyagiga sen tinchlik bergil!»

## XIX

Ixloskor bir boqish ila Tatyana  
Hamma narsalarga qunt bilan qarar.  
Bebaho ko'rinar unga har narsa;  
Hammasi siniqqan ruhni jonlatar,  
Bir azob aralash sevinch-la hardam:  
Qandillari so'nib qolgan stol ham,  
Qalangan kitoblar, gilam to'shalgan  
Krovat va oyning xira aksidan  
Derazalardagi go'zal manzara,  
Shu yarim oydinlik, qoramtir bir nur,  
Lord Bayron surati devorda mag'rur;  
Qalpog'i ostida yovuz peshona,—  
Qo'llari chalkashib siqilgan mahkam,  
Cho'yandan ishlangan u qo'g'irchoq ham<sup>173</sup>.

## XX

Modali xonada Tatyana uzoq  
Turadi, u maftun bo'lganday go'yo.  
Kech bo'lib qolgandi. Sovuq yel uyg'oq,  
Vodiylar qorong'i, tumanli daryo  
Tepasida uxlar sokin daraxtzor,  
Tog'ning orqasiga oy yashirinar.  
Ziyoratchi qizga uyga jo'nash-chun  
Ko'pdan vaqt yetgandir, bosdi qora tun.  
Tatyana bildirmay o'z hayajonin,  
Xo'rsinadi yolg'iz, mana u qayta  
Kelgan yo'li bilan jo'naydi yana.  
Lekin, Anisyadan so'raydi tag'in  
Kimsasiz qasrni qilib ziyorat,  
Shunda mutolaa uchun ijozat.

## XXI

Darvozadan chiqib kalidchi xotin  
Bilan xushlashdi u. Bir kun Tatyana  
Erta bilan barvaqt kelgandi tag'in,  
Tashlanib ketilgan bu oromgohga;  
Shu jimjit kabinet ichida nolon,  
Dunyoda barchani unutib bir on  
Nihoyat, qolgandi endi bir o'zi,  
Ancha vaqt qaynoq yosh quyadi ko'zi.  
So'ngra, mashg'ul bo'ldi kitoblar ila.  
Dastavval bularga yo'q edi mayli,  
Lekin kitoblarda mavzu tufayli  
Ularga qiziqdi. Mutolaaga  
Berildi Tatyana, uning ko'p chanqoq  
Ruhiga ochildi bir olam shu choq.

## XXII

Garchi, bilar edik, ko'pdan Onegin  
Ko'ngli qolgan edi mutolaadan,  
Tashlangan kitoblar ichidan lekin  
Bir necha asarni istisno qilgan:  
Gyaur va Juanni<sup>74</sup> yozgan kuychini,  
Yana romanlardan ikki-uchini;  
Aks etgandir zamon bu asarlarda,  
Asrdosh inson ham chinligi ila  
Tasvir etilgandir. Uning xayollar  
Ketidan poyonsiz ravishda quvgan  
Axloqsiz, past, buzuq va qovjiragan  
Xudbin ruhi tamom tasvir etilar,  
Ko'rinar bo'sh amal ichida qaynoq,  
Uning g'azablangan aqli yarqiroq.

### XXIII

Bir ko'p sahifalar saqlab qolganlar  
Tirnoqlarning keskin belgilarini.  
Diqqatli bu qizning ko'zi tikilar  
Tiyraklik bilan u chiziqlar sari.  
Tatyana zir titrab ko'rar birma-bir  
Qaysi qayd, tanbehlar va qaysi fikr  
Oneginni faqat hayratga solgan,  
Va qaysi fikrga u qoyil qolgan.  
Kitoblar chetida uchratadi qiz  
Uning qalamining chiziqlarini,  
Har yerda Onegin ruhi, yuragi  
Ifoda qiladi o'zini erksiz,  
Goho qisqa bir so'z, goho bir chiziq,  
Savol alomati bilan op-ochiq.

### XXIV

Tushuna boshlaydi, Tangriga shukur,  
Tatyana, Onegin kim ekanini,  
Hukmron taqdir-la qiz boyaqish bir qur  
U uchun yoqmadi o'z yuragini?  
Kimdir u, eng xavfli dardkash savdoyi,  
Do'zaxmi yaratgan, osmonmi yoki,  
Malakmi, yoki u takabbur mal'un,  
Nima u? Ajabo taqlidchi zabun,  
Ko'zga ilinmagan sharpa misoli,  
Yoki u Garoldning kiyib libosin,  
Ta'bir etmak uchun o'zgalar aybin,  
Butun lug'atini tanlab modal<sup>175</sup>.  
So'zlar-la to'ldirgan moskvalimi?  
Yoki u maynavoz, nayrang ahlimi?

## XXV

Ajabo, bu sirni qiz etdimi hal?  
Ajabo, topildi kerakli bir so'z?  
Soat yuguradi: qiz unutdi sal.  
Uyda uni kutib turishar to'rt ko'z.  
Hozir hovlisida qo'shnilar faqat  
Tatyana ustida qilishar suhbat;  
Kampir pixillaydi ololmay nafas:  
– Na qilay? Tatyana yosh bola emas.  
Unga qaraganda Olga-ku kichik;  
Shu qizni uzatsam: ayni vaqti-ya,  
Nima qilay endi qizi tushkurni, a?  
Hammaga bir xilda javobi kesik:  
Tegmayman! Ham o'zi hamisha ma'yus,  
Tentirab yuradi o'rmonda yolg'iz.–

## XXVI

«Sevgiga duchormi?» – Kimni sevar u?  
Buyanov sovchilar yuborgandi: rad...  
Ivan Petushkovga – javob xuddi shu.  
Gusar Pixtin<sup>176</sup> qanday qildi xushomad!  
Aylandi, o'rgildi... Bizga mehmondi,  
Xuddi quv shaytonday yalindi-yondi,  
Ha endi tegar deb o'ylagan edim;  
Qayoqda! Sovruldi yana umidim.–  
«Xo'sh, gapir, buvijon, na qoldi endi?  
Moskva bor, qalliqlar yarmankasiga,  
Uzatarsan unda birontasiga»  
– Oh, jonim, o'rgulay! Kirim ozaydi.–  
«Moskvada qishga puling yetsa, bas.  
Bo'lmasa, qarz ham berarman, kuymas».



## XXVII

Ma'qul va xayrli mana shu kengash,  
Kampirga juda ham yoqib qoladi;  
Ham shunda qish fasli Moskvaga jo'nash  
Uchun kampir qat'iy qaror qiladi.  
Yetdi Tatyana bu yangi xabar.  
Talabkor va injiq muhitga eltar  
Taqdim etmoq o'zin qishloqcha sodda,  
Ochiq ruxsorning latofatin-da,  
Vaqti o'tib ketgan ziynatlarini,  
Nutqini, eskirgan uslubini ham;  
Jalb etishi kerak u yerda har dam  
Har xil oliftalar diqqatlarini!  
Oh, dahshat! Yo'q, tiptin o'rmonda butkul  
Qolmoqlik u uchun yaxshi ham ma'qul.

## XXVIII

Tongning ilk nurlari bilan uyg'onib,  
Dala sayriga qiz oshiqar shu tob.  
Mehrli ko'zlar-la tomosha etib,  
Tatyana ularga qiladi xitob:  
«Alvido, ey tip-tinch, sokin vodiylar,  
Siz ham, ey oshno tog'lar, cho'qqilar,  
Sen ham, ey ko'p choqlar qadrdon o'rmon,  
Alvido, sen ham, ey sho'x-shan tabiat:  
Alishaman latif, jimjit dunyoni,  
Yiltiroq hayotning shovqin-suroni  
Badaliga... Kechir, ey erkim, faqat!  
Qayga, nima uchun men intilaman?  
Taqdirim ne va'da qiladi ekan?»

## XXIX

U dalada kezib uzoq sayr etar,  
Goho bir tepacha, goho bir chashma,  
Ixtiyorsiz endi uni to'xtatar,  
Jalb etar bir dam o'z latofati-la...  
Qiz o'z chakalagi va maysalari  
Bilan eng qarddon do'stlar singari,  
Dardlashib qolishga oshiqar biroz,  
Lekin hu deguncha o'tib ketar yoz,  
Va yetib keladi oltin kuz mana.  
Tabiat zir titroq va rangi so'ngan,  
Qurbon bo'lar qizday ko'rkam kiyingan...  
Mana shimol quvib bulutni yana  
Hansirab uvladi – jodugar, botir  
Ana qishning o'zi ham kelayotir.

## XXX

Qish keldi-yu, cho'kdi; qor guli uchib  
Daraxtlar shoxiga osilib qoldi;  
Qirlar, adirlarni dalani quchib  
Oq mavjli gilamday u yotib oldi.  
Tosh qotgan daryoning qirg'oqlarin qish  
Yumshoq, oq pardaga o'rab chirmamish.  
Chaqnadi izg'irin. Xo'p sevinamiz  
Suyukli bu qishning sho'xligiga biz.  
Faqat qizning dili emasdi xursand.  
Tatyana bu qishni qarshilab olmas,  
Sovuq uchqunlar-la olib keng nafas,  
Tomdan oqqan ilk qor suvlari bilan  
Yuvmaydi kiptin-u, yuzini va ko'ksin:  
Qish yo'li xatarlik Tatyana uchun.

### XXXI

O'tib ketdi safar muhlati ana,  
Eng so'nggi muddat ham o'tmoqda edi,  
Tamom unutilgan arava yana  
Ko'zdan kechirildi, tayyor etildi.  
Uch soyabonlikdan iborat karvon;  
Yuklandi ro'zg'orning lash-lushi: qozon,  
Tovoq, qoshiq, kursi, quti – sandiqlar,  
Bankalarda qiyom, va par yostiqlar,  
To'shaklar; xo'rozlar o'z qafasida;  
Xurma, xurmachalar, toslar va ro'zg'or  
Qaqir-ququridan yana ko'pi bor.  
Izbada, xizmatkor xalq orasida  
Ko'tarildi shovqin, vido yig'isi,  
Haydaldi otlardan o'n sakkiztasi.

### XXXII

Ko'rkam aravaga qo'shilar otlar,  
Oshpazlar nahorlik hozirlashadi,  
Yukni ortadilar xuddi tog' qadar,  
Kucherlar, ayollar xo'p qarg'ashadi.  
Op-oriq, hurpaygan otga tezgina  
Sersoqol forreyter<sup>177</sup> qo'nqaydi mana;  
Darvoza oldiga xizmatkor ahli  
Xo'jayinlar bilan xayrlashgali  
Yig'ildi; sharafi bu aravaga  
O'tirdi qiz, ona; yuradi karvon.  
«Xayr endi, alvido go'zal, tinch makon!  
Yaxshi qol safoli ey xilvatxona!  
Qayta ko'rarmanmi?» – so'zlar ekan qiz,  
Chashmaday ko'z yoshi oqar to'xtovsiz.

### XXXIII

Xayrli urfonning chegaralarin  
Yana ham birmuncha biz kengaytira,  
O'z navbati bilan (falsafa taxmin  
Jadvallari tuzgan hisobga ko'ra,  
Besh yuz yildan keyin) yo'lni, shubhasiz,  
Biz ham o'zgartirib olarmiz hadsiz:  
Qayoqqa qarasang tosh yo'llar, bari  
Kesib o'tar, qo'shar shu Rossiyani.  
Daryolar ustidan tashlaydi qadam,  
Cho'yan ko'priklar ham tashlaydi qadam,  
Yoy kabi, daryolarni – kesib ustida,  
Tog'larni suramiz, suvlar ostida  
Quramiz haybatli peshtoqlarni ham,  
Iso dinidagi shu mamlakatda.  
Oshxona bo'lg'usi har bir bekatda.

### XXXIV

Hozir esa bizning yo'llar ko'p yomon <sup>(40)</sup>,  
Tashlandiq ko'priklar chirimoqdalar,  
Ko'zlarga uyquni keltirmas bir on  
Bekatlarda bo'lgan kana, burgalar;  
Oshxona yo'q. Hujra muzlab qotadi,  
Devorda qup-quruq ovqat ro'yxati –  
Xo'ja ko'rsin uchun uni osishar,  
Ishtahang uyg'otar, og'zing suv ochar;  
Temirchilar – qishloq sikloplari<sup>178</sup>  
Vatan yerlarining o'nqir-cho'nqirin,  
Past-balandin maqtab, bir zum tinmayin  
Ishlaydi jim yongan o't ichra bari:  
Rusiya bolg'asi bilan shifosin  
Qilar Yevropaning nozik matoyin.

### XXXV

Shunisi ham borki, sovuq qish fasli,  
Yengil va huzurli bo'larmish safar,  
Modali qo'shiqning ma'nosiz nazmi  
Singari qish yo'li sip-silliq ketar.  
Jasoratli bizning avtomedonlar <sup>179</sup>,  
Bizning troykalar tolmasdan chopar.  
Ko'zga tashlanadi tutashib qator,  
Chaqirim ustunlari bamisli devor <sup>(41)</sup>.  
Qimmat yo'lkiradan qo'rqib Larina  
Pochtovoy yollamas, baxtiga qarshi,  
Sudradi uni o'z aravalari.  
Yo'lning zahmatidan bizning Tatyana  
To'yguncha qoniqdi, ayladi maza:  
Yetti kun yo'l bosdi xonimlar rosa.

### XXXVI

Mana yaqin qoldi. Moskva oq marmar,  
Oltin butlar yongan qadimgi, ko'hna  
Qubba-minoralar shavkati ila  
Ularning ko'ziga birdan ko'rinar.  
Tinglang, qardoshlarim! Menga daf'atan  
Butxonalar va zang qullalar bilan  
Bog'lar, saroylarning manzarasi jim  
Ochilganda qanday sevingan edim!  
Aynib shum toleim, benavo hijron  
Ichinda yasharkan, alamlar ila  
Seni o'ylagandim... Seni, Moskva!  
Moskva... Bu sadoda qancha hayajon.  
Qancha tuyg'u singgan rusning qalbiga!  
Aks etmish xotira undan manguga!

### XXXVII

Daraxtzorlar bilan tamom qurshalgan  
Mana Pyotr qasri. O'shshayib turar,  
Faxr etar yaqingi shuhrati bilan.  
So'nggi toleidan mast va beqaror.  
Napoleon zavqlanib kutdi behuda  
Tiz cho'kib, zorlanib bunda dilida:  
Moskva Kremli kalidin tutdi;  
Yo'q, mening Moskvam boshini quyi  
Solaroq bormadi Napoleonga.  
Taqdim-chun to'y emas, in'omlar emas,  
Moskva tayyorladi bir yong'in xolos <sup>180</sup>,  
Sabru qarori yo'q bu qahramonga  
Shu choqda Napoleon o'yga toladi,  
Shiddatli yolqinlar sari boqadi.

### XXXVIII

Alvido'ey o'chgan shuhrat guvohi  
Bo'lgan Pyotr qasri! Tez yur, to'xtama.  
Jo'nab qol! Qopqaning ana peshtoqi  
Oqarib ko'rinar; Tverskoyda  
Baland-pastliklardan arava chopar.  
Yondan yalt-yult kechar budka, ayollar.  
Bolalar, do'konlar, fonarlar, yana  
Saroylar, bog'chalar, monastir, chana;  
Buxorolilar<sup>181</sup> ham ko'k polizlari,  
Tujjorlar, dehqonlar, qancha dahmalar,  
Bulvarlar, kazaklar va minoralar,  
Apteklar, moda magazinlari,  
Balkonlar, tosh sherlar darvozalarda,  
Butlarga qo'nishgan galalab qarg'a.

## XXXIX. XL

Bu tomosha kishin bezdirib juda  
Cho'zildi ancha vaqt, arava keyin  
Xariton oldida, kichik ko'chada  
Bir uy darvozasi oldida sekin  
To'xtadi. To'rt yildan beri bo'lib sil,  
Kampir xola bunda turar muttasil,  
Larinlar qo'ndilar bu xonadonga.  
O'ralib eski va yirtiq kaftanga  
Eshikni dong ochib qiladi qulluq,  
Ko'zida oynagi, qo'lida paypoq,  
Uyning xizmatkori, mo'ysafid qalmoq.  
Knyagina qichqirar sevinchga to'liq.  
Kampirlar quchishib ko'rishar darhol,  
Yig'i-sig'idan so'ng so'rashar ahvol.

## XLI

– Bekajon – «Pashenka!» – Alinajonim! –  
«Kim o'ylay bilardi? Qancha vaqt o'tgan!  
Uzoq turasizmi? Jonim! Egachim!  
O'ltirgin, qanday bu ajib ish ekan!  
Xudo haqi, go'yo romandan sahna...»  
– Bu menim qizimdir, ismi Tatyana –  
«Oh, jonim Tatyana! Menga kel, qani –  
Men go'yo shu topda tush ko'rgan kabi...  
Grandisonni sen yodlarsan, jonim?  
Qaysi Grandison? Ha... Grandison!  
Yodimda, qayda u yashar bu zamon?–  
«Moskvada... Semyonda yashaydi doim?»<sup>182</sup>  
Menga kelib ketdi arafa kuni,  
Uylantirdi u yaqinda o'g'lini,

## XLII

Anovi... qo'y, keyin so'zlarmiz yana,  
Durustmi? Ertayoq biz Tanyamizni  
Tanitib qo'yamiz xesh-aqraboga.  
Afsuski, zaiflik qaqshatdi tizni,  
Oyoqni zo'r-bazo'r sudrab bosarman.  
Qiynalib kelgansiz uzoq safardan;  
Qani yuring, birga olaylik orom,  
Voy, siynam charchagan... kuchim ham tamom.  
Yolg'iz qayg'u emas... Men uchun hamon  
Shodlik ham og'irdir endi, oppog'im...  
Endi hech narsaga yo'q yaroqligim...  
Hayot shunday xunuk qartaygan zamon...»  
Shundayoq butunlay u charchab qoldi,  
Ko'zyoshi aralash kampir yo'taldi.

## XLIII

Bu kasal xolaning silab-siypashi  
Tatyanaga ta'sir qiladi: ammo  
Ko'ziga ko'rinar uyi dilkashi,  
Yangi maskan unga yoqmaydi aslo.  
Shoyi pardalar-la o'ralgan butun  
Yotog'ida uyqu kelmaydi bir tun.  
Ertalabki ishdan beradi xabar  
Barvaqt jaranglovchi ko'p qo'ng'iroqlar,  
Yotog'idan erta qo'zg'atar uni.  
Deraza oldiga kelar Tatyana,  
Zulmatlar yorishar, ammo u yana  
Qo'msaydi o'zining dala, qirini;  
Uning ko'z o'ngida qo'ra – begona:  
Ko'rinar otxona, devor, oshxona.



## XLIV

Mana, qarindoshlar ziyofatiga  
Endi har kun qizni olib yurishar.  
Bobo, buvilarga parishongina  
Bu erinchak qizni taqdim qilishar.  
Uzoq yerdan kelgan qizga marhamat,  
Har yerda ochiq yuz, kutish va izzat,  
Ofarinlar o'qish, mehmondorchilik.  
«Qiz qanday o'sibdi! Mendim shekillik  
Senga ism qo'ygan tug'ilgan kechang?  
Men esa shunday bir qo'lga olgandim!  
Men esa qulog'ing cho'za qolgandim!  
Men senga shirinlik bergandim, bilsang!»  
Bir og'izdan tasdiqlashar buvilar:  
«Umrimiz qanday tez uchar-yugurar!»

## XLV

Lekin, ularda yo'q o'zgarish, yana  
Eski qolipdadir ular o'shandoq:  
Mana, xola – knyaz xonim Yelena  
Boshida hali ham u doka qalpoq;  
Hali upa surar Lukerya L'vovna,  
Hali ham lof urar Lyubov Petrovna,  
Va Ivan Petrovich hali ham ahmoq,  
Xasisdir Petrovich Semyon o'shandoq...  
Palageya xonimga hali ham xushtor  
Ayni o'sha ko'rgan Finmush afandi,  
O'sha zotli kuchuk, eri ham ayni,  
O'sha klubiga<sup>183</sup> haliga qadar  
Chin a'zo; o'shanday mo'min va garang,  
O'shanday yer, ichar, o'shanday barzang.

## XLVI

Tatyanani quchar hamma qizlari...  
Moskvada yashagan bu yosh parilar  
Dastlab sukut qilib Tatyana sari  
Boshdan oyoqqacha solishar nazar;  
Tatyana ko'rinar bir navi ajib,  
Qishloqiday sodda, nozli va latif;  
Rangi ham qandaydir o'chiq, qotma-yu,  
Shuning bilan birga chakki emas u;  
So'ngra, qizlar xulqi ochilgan sayin –  
U bilan do'stlashar va chaqirishar,  
O'pishib, qo'llarin nozik siqishar.  
Modaga muvofiq hurpaytib sochin,  
Ko'ngil sirlarini, qizlar sirini,  
Ochadilar unga juda samimiy.

## XLVII

Aytishar birovlar, o'zlarining ham  
Umid orzularin, sho'x xayollarin.  
Yengil g'iybat, tuhmat aralash har dam  
Ma'sum suhbatlari oqadi sokin,  
So'ng, sayraganlari uchun qizchalar  
Nazokat-la, qalban talab qilishar,  
Uning chin ko'ngildan e'tirofini.  
Go'yo tush ko'rgandek, ular gapini  
Tatyana tinglaydi hissiz, beparvo;  
Hech nima anglamas; lekin saqlar u,  
Bir sukut ichida sevikli – mangu  
Ko'ngil sirlarini; ular bebaho,–  
Baxtning, ko'z yoshining xazinasidir,  
Bularni hech kimga aytmaydi hech bir.

## XLVIII

Suhbatni, umumiy mukolamani  
Tatyana uqishga orzu qiladi,  
Mehmonxonalarda lekin hammani  
Tuturiqsiz, puch gap mashg'ul etadi;  
Ularda har narsa loqayd va so'lg'in;  
Hatto bo'htonlari rangsiz va yupun;  
Puch, qovjiroq gaplar, surishtirishlar  
G'iybatlar, jo'yishlar, har xil mish-mishlar  
Butun kun cho'zilsin yalt etmas fikr,  
Loaqal qo'qqisdan, loaqal birdan  
Tolg'in fikr chiqmas bunda hech kimdan  
Hazil-la yurakka etolsin ta'sir.  
Kulgiga arzigur ahmoqlik hatto,  
Senda uchratilmas, puch, kibor dunyo!

## XLIX

Arxiv yigitlari<sup>184</sup> bo'lib bir gala  
Tatyanaga boqar hech mensimasdan,  
Bu qiz to'g'risida ta'nalar ila  
Yoqimsiz gaplarni to'qirlar qasddan.  
Qandaydir noma'lum bir ojiz qiziq,  
Qizning kamolotin topar muvofiq,  
Eshikka suyanib yozmoqda shu payt  
Tatyana sha'nida oshiqona bayt.  
Nash'asiz xolaning uyida bir choq  
Qizga Vyazemskiy yo'liqib qoldi,  
Yoniga o'tirib ko'nglini oldi.  
Uning yaqinida qizni payqab, oq  
Qalbaki sochlarin pardozlab bir chol  
Qizni surishtirar, sekin, bermalol.

## L

Lekin, Melpomena<sup>185</sup> cho'ziq nidosi  
Yuksalgan yerlarda, hissiz alamon

Qarshisiga chiqib sun'iy ridosi  
Bilan jilva qilgan yerlarda bir on,  
Do'stlik olqishlarin tinglamay lekin,  
Taliya<sup>186</sup> mudragan joylarda sokin,  
Terpsixoraga, yolg'iz uning-chun  
Har yosh tomoshabin bo'larkan maftun,  
(Xuddi shunday bo'lar edi ilgari,  
Sizlarning, bizlarning zamonimizda)  
Ya'ni teatrda bu sodda qizga  
Tushmas xonimlarning rashkli oynagi;  
Mashhur bilimdonlar durbin qaratmas  
Loja, kursilardan unga bir nafas.

## LI

Majlisga ham qizni olib kelishar<sup>187</sup>.  
Tiqilinch, shoshqinlik, hayajon qizg'in,  
Musiqqa gurlaydi, porlaydi shamlar,  
Juft-juft bo'lib ildam uchishar yorqin;  
Porlar jononlarning zeb-pardozlari;  
Xalq bilan yashnagan balkonlar bari,  
Qalliqalar keng yarim doira chizgan,  
Barcha tuyg'ularni mot etar birdan.  
Mashhur oliftalar bunda ko'rsatar  
O'z surbetligini, o'z nimchasini,  
Xotiri parishon durbinchasini...  
Bu yerga, muvaqqat bo'shagan gusar –  
Oshiqar, maqsadi – guvullash, quchish,  
Yalt etib, dil uzib, yana pIRR uchish.

## LII

Kechaning ko'p latif yulduzlari bor,  
Jononlar Moskvada yashar behisob,  
Ko'kdagi qizlardan yorqinroq porlar  
Lojuvard havoda faqat bir mohtob.

Bu yerda edi u – ajoyib bir qiz,  
Sozim-la qalbini yoqmadim yolg'iz.  
Ugina xotinlar va barcha qizlar  
Ichida yarqirab u oyga o'xshar.  
U qanday ilohiy tamanno bilan,  
Qanday hasham bilan yurar va yashnar!  
Ko'kragida qanday sevgi, noz yonar!  
Dillar titrar uning shahlo ko'zidan.  
Bas yetar, bas yetar; sadong to'xtagay:  
Sen-da majnunlikka boj berding talay.

### LIII

Qiy-chuv, qahqahalar, ta'zim, salomlar,  
Har xil raqs – mazurka, vals, aylanuv.  
Hech kimga sezilmay Tatyana turar,–  
Ikki xolasining o'rtasida u.  
Tatyana qaraydi, olmaydi lazzat,  
Kibor g'avg'osidan qiladi nafrat,  
Unga bu yer bo'g'iq... U xayolida  
Intiladi hozir qir hayotiga,  
Qishloqqa, kambag'al dehqonlariga,  
Qo'msaydi u hozir xolis go'shani,  
Sharqirab qaynagan kumush chashmani;  
Intilar gullari, romanlariga,  
Intilar ko'lkador xiyobon sari,  
Unda uchrashgandi dil olgan yori.

### LIV

Qizning fikri shunday tentirar uzoq;  
Jahonni unutdi, esdan chiqdi bal,  
Holbuk, bu qizdan ko'z uzmas shu choq  
Qandaydir sersavlat, mag'rur general.  
Xolajonlar darhol ko'zni qisishdi,  
Tatyanani tirsak bilan turtishdi,

Va har biri unga pichirlar shu choq:  
– So‘l tomonga qara, tezgina bir boq!  
«So‘l yoqqa? Qayerda? U yerda nima?»  
– Mayli, na bo‘lmasin, qarayber axir...  
Anovi to‘dada, ko‘rdingmi hozir...  
Ana, ikki kishi hali mundirda...  
Mana, nari ketdi... aylandi mana.  
«Kimdi? Anov yo‘g‘on generalmi, a?»

## LV

Bu yerda qutlaymiz g‘alabasi-la,  
Mening bu sevikli Tanyamni bugun,  
Yo‘limizni chetga buramiz picha  
Kimni kuylashimni unutmashlik-chun...  
Bu haqda bir-ikki og‘iz so‘z kerak:  
*Kuylayin yosh oshnam madhin qizg‘inrak*  
*Va uning ko‘pgina ajib sifatini.*  
*Davomli mehnatim sen qil duosin,*  
*Sen ey, rivoyalar to‘quvchi ilhom,*  
*Topshirgil eng sodiq bir aso qo‘lga,*  
*Adashtirma meni egri bir yo‘lga.*  
Yetar. Yelkamdan yuk yo‘qolsin tamom!  
Klassitsizmga berdim men salom:  
Garchi kech esa-da bor muqaddimam <sup>180</sup>.

---



## SAKKIZINCHI BOB

Fare thee well, and if for ever  
Still for ever, fare thee well.

*Byron*<sup>189</sup>

Litsey<sup>190</sup> bog'larida betashvish va tinch  
Gullagan, yashnagan choqlarimda man,  
Sitseronni<sup>191</sup> aslo o'qimay, sevinch –  
Shavq-la Apuleyni<sup>192</sup> o'qib yurarkan,  
U kunlar, sir to'la u vodiylarda  
Oq qushlar qiyqirgan choqda, bahorda,  
Porloq suv bo'yida va shu jimjit dam  
Ko'rilish bermoqqa boshladi Muzam.  
Mening talabalik hujram nogihon  
Nurga to'lgan edi: bu yerda ilhom  
Qurdi yosh sho'xliklar bazmini tamom,  
Tarannum qildi u qadimgi zamon  
Bizning shonimizni, go'daklik nozin,  
Dilimdagi larzon tushlar parvozin.

## II

Muhit kutib oldi tabassum ila;  
Bizni ilk g'alaba qanotlantirdi;  
Bizni chol Derjavin<sup>193</sup> ko'zga ildi-da,  
Fotiha o'qigach qabrga kirdi.

.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....

.....  
.....  
.....

### III

O'zimga qoida singari tutib  
Hirslarning qaynovchi bebosh parvozin,  
Hisni alamon-la men baham ko'rib,  
O'ynoqi sozimni keltirdim yaqin  
Janjallar, bazmlar to'poloniga –  
Soqchi-mirshablarning tegib joniga:  
O'sha devonavor bazmlarga deb  
Ilhomim sovg'alar keltirdi erib,  
Sharob parisiday o'ynadi sernoz,  
Qadah orqasidan mehmonlar uchun  
Kuyлади; kechmishning yoshlari u kun  
Ketidan qiziqib yugurishdi boz.  
Men esa beqaror mahbubam ila  
Bazm aro iftixor qilardim xiyla.

### IV

Biroq, bu ulfatdan men uzoq zamon  
Ayrilib qolgandim... va qochdim uzoq.  
Orqamdan chopdi soz – Muzam mehribon,  
Jimjit yo'lni menga yashnatdi ko'p choq  
Sirli ertaklarni qilib rivoyat!  
Kavkaz tog'larida u necha navbat  
Oydin kechalarda Lenora kabi <sup>194</sup>,  
Men bilan yurdi u, ot surdi daydi!  
Qrim sohilida, tun qorasida  
Ko'p daf'a biz yurdik: dengiz shovqini,  
Suv parilarining shivirlashini,  
Dunyolar otasi haqda qasida,  
Tinimsiz to'lqinlar ashulasini,  
Birga tinglab oldik biz – jumlasini.



## V

Unutgandi uzoq poytaxtni ham,  
Suronli bazmlar va dabdabani,  
Dardli Moldaviya cho'lining pasqam  
Yerlarida ko'chma har qabilani  
Faqir chodirlarin qildi ziyorat,  
Ular orasida avomlashdi bot.  
Yodidan chiqardi Tangrilar nutqin,  
Sehr etdi qalbini ajib va miskin  
Tillar va yoqimli cho'l qo'shiqlari...  
Nogahon o'zgarib ketdi hammayoq:  
Ana mening bog'im ichida inoq  
Ko'rindi qishloqi bir qiz singari,  
Ko'zlarida, g'amli fikrlar shu tob,  
Qo'lida fransuz tilida kitob.

## VI

Men bugun Muzamni birinchi daf'a  
Kibor yig'iniga olib boraman;  
Va uning sahroyi latofatiga  
Jur'atsiz rashk ila qarab qolaman.  
Harbiy oliftalar, aslzodalar,  
Diplomat va mag'rur xonimlar – qator,  
Bular orasidan ohista o'tar;  
Jimgina o'tirar, boqar, sayr etar,  
Yoqtirib suronli duvurni, yana  
Xonim ko'ylaklarin, so'zlar jumlasin,  
Mehmonlarning sekin, vazmin jilvasin  
Yosh beka oldida; qaraydi Muza:  
Xonimlar atrofin erkaklar qurshar,  
Bu – surat solingan ramkaga o'xshar.

## VII

Kiborlar gapining tekis navbati  
Mansab va yoshlarda bo'lgan qurama,  
Sokin mag'rurlikning bu rasmiyati  
Hammasi ham yoqar edi Muzaga.  
Kiborlar guruhi ichida u kim,  
Ko'zlari tumanli, turar so'zsiz, jim?  
Hammaga begona tuyuladi u;  
Ko'z o'ngidan shaxslar o'tadi duv-duv,  
Bir qator dilozor xayol yoki jin;  
Yuzidan dard yog'ar, xafaqon, unda  
G'amli kibr bormi? Nechun u munda?  
U kimdir? Ajabo, nahot, Onegin?  
Chindan ham o'shami?.. Naq uning o'zi.  
Ko'pdanmi bizlarga qo'shilmish ro'zi?

## VIII

Hali ham o'shami? Yo shaxtdan tushgan?  
Yo o'zin telbaga solarmi yana?  
Aytingiz, qaytmish u ne sifat bilan?  
Bu gal bizga nelar qilur iona?  
Qanday ko'rinmoqchi? Melmotmi<sup>195</sup> magar,  
Kosmopolitmi<sup>196</sup> u, yo vatanparvar?  
Garoldmi, dinchimi yoki riyokor,  
Yo o'zga bir niqob ila maqtanar?  
Yo siz va men kabi, bor jahon kabi  
Soddacha beozor, xushfe'ldir u?  
Loaqal u uchun maslahatim shu:  
Eski modalardan chekinmoq payti!  
Muhitni ko'pgina aljitdi u zot...  
– U sizga tanishmi? – ham tanish, ham yot.

## IX

– Nimaga shunchalik qattiq va salbiy  
Uning to‘g‘risida bergan fikringiz?  
Shuning uchunmiki tinmay, asabiy  
Har nima haqida jon koyitamiz:  
Qizg‘in ruhlardagi ehtiyotsizlik  
Xudbin pastkashlarning ko‘zida xunuk,  
Haqorat va yoki kulgi sanalar,  
Kenglikni sevgan aql yurakni siqar.  
Har qanday gap-so‘zni juda ko‘p zamon  
Chinakam amal – ish deya taniymiz,  
Ahmoqlik, yomonlik erur qarorsiz,  
Takabbur shaxslarga yarashar yolg‘on?  
Biz uchun oddiylik ko‘p mos keladi,  
Bu holat emasmi, ayting, g‘alati?

## X

Xushbaxtdir, kim agar yoshdir – yoshlikdan,  
Xushbaxtdir, yetilsa kimki vaqtida,  
Hayot izg‘irinin bardoshlik bilan  
Kimki o‘z umrida yengsa ohista;  
Kim ajib tushlarga bo‘lmamish maftun,  
Kim kibor avomdan tovlamas bo‘yin,  
Kim yigirma yoshda frant, yo olg‘ir,  
O‘ttizda manfaat ila uylanur;  
Kim ellik yoshida qutulib olsa  
Xususiy va o‘zga qarzi-qurzidan,  
Kimki osoyishta, navbati bilan,  
Shuhrat, aqcha, mansab qo‘lga tutolsa,–  
U haqda bir asr deydilar bardam:  
Falonchi judayam ajoyib odam.

## XI

Lekin, yoshligimiz o'tdi behuda,  
Xiyonat qildik biz yoshlikka har on,  
Bizning qalbimizni aldadi u-da;  
Bizdagi eng go'zal orzu va armon,  
Va bizning top-toza xayollarimiz  
Bir-birini quvib to'kildi yolg'iz  
Kuz fasli chirigan xazon singari.  
Ko'z oldingda hayot xunukliklari:  
Har kuni ketma-ket ziyofat, taom,  
Hayotga qarasang marosim kabi,  
Mansabdor guruhning na tushunchasi  
Va na hislariga qo'shilmay tamom,—  
Uning orqasidan ergashib yurmak  
Juda ham xunukdir o'ylasang andak.

## XII

Qizg'in gap-so'zlarga bo'lib bir qurol,  
Mo'min va axloqli odamlar ichra.  
Sun'iy bir savdoyi, yo parishonhol,  
Devona, yo mal'unsifat tasqara.  
Hattoki, bu mening Demonim<sup>197</sup> kabi  
Tanilish ko'p xunuk (siz ham deng bali),  
Onegin (qaytaman unga yanadan)  
Do'stini duelda o'ldirib, zotan  
Beg'oya, bemehnat hayot kechirar;  
Naq yigirma olti yoshiga qadar,  
Tanbal, harakatsiz, dili ziq yurgan,  
U ishsiz, xotinsiz, biron xizmitsiz,  
Har qanday yumushga tamoman ojiz.

### XIII

Qamrab olgan edi betinchlik uni,  
Makon o'zgartishga uyg'ondi orzu  
(Ba'zilarning g'oyat mushkul udumi –  
Ko'ngilli ravishda tark dunyo qiluv).  
Tashladi Onegin o'z qishlog'ini,  
O'rmon, dalalarning tin quchog'ini,  
Chunki bunda har kun qonli bir soya  
Ketidan quvardi poyama-poya,  
Endi bir tuyg'uga berilib faqat  
Boshladi chetlarda daydib kezishni,  
Zotan dunyodagi har narsa kabi,  
Bu ham zeriktirdi uni nihoyat.  
Onegin qaytdi, Chatskiy<sup>198</sup> kabi  
Kemadan to'p-to'g'ri balga tushgandi.

### XIV

Chayqalib ketadi birdan alamon,  
Ivir-shivirlarga to'lib ketar zal...  
Borar shu choq uyning bekasi tomon  
Bir xonim, ketidan mag'rur general.  
U xonim yengiltak emasdi, yana –  
Sovuqqon emasdi va mahmadona.  
Uning qarashlari emas hayosiz,  
Zafar qozonishga u iddaosiz,  
Ko'z va qoshlarining yo'q uchurmasi,  
Yo'q edi soxta noz, sun'iy ifoda,  
Turishi-yurishi sokin va sodda.  
Du comme il faut ning<sup>199</sup> u chin nusxasi  
Bo'lib ko'rinardi. Shishkov<sup>200</sup>, kechir san.  
Tarjimasi qanday bo'lur, bilmayman.

## XV

Xonimlar yaqinroq unga kelishdi;  
Kampirlar qilishdi unga tabassum;  
Erkaklar quyiroq boshni egishdi,  
Boqishini har kim ilmoqchi bir zum.  
Yonidan jimgina qizlar o'tardi;  
Bu yerda hammadan juda yuqori  
Tutardi uning-la bu zalga kirgan  
General o'zini – u ko'p gerdaygan.  
Hech kim u xonimni go'zal, deb balki  
Ayta olmas; lekin butun siymoda  
Hech kim topolmagay biron nishona,  
Nishonaki, hokim modaning tili  
Londonda, yuksak bir guruhda to'liq  
Vulgar<sup>201</sup> deb ataydi. Tarjimasi yo'q...

## XVI

Men o'zim sevaman bu so'zni juda,  
Lekin, tarjimasin qila olmayman:  
Hozircha bizlarda yangidir u-da,  
Bu so'z bizda izzat qilinarmikan?  
U balki ketadi hajviy nazmga...  
Xo'sh, endi kelaylik xonimimizga,  
Ulug'vor husni-la u dilbar edi,  
Stolning yonida o'tirar edi  
Nina Voronskaya bilan yonma-yon,  
Bu go'zal – Nevaning Kleopatrasi:  
Lekin u o'zining marmar chehrasi  
Ila hamsoyasin bosolmas bir on,  
Jamoli ko'zlarni qamashtirsa-da,  
Unga yeta olmas edi, albatta.

## XVII

«Mumkinmi?» – ichida o‘ylar Onegin:  
«Ajabo o‘shami? Xuddi u... Emas...  
Cho‘ldagi qishloqlar ichidan kelsin...»  
Qo‘lidan qo‘ymaydi durbinni birpas,  
Qaraydi u bilan har daqiqada  
U xonimga; uning yuzi yodiga  
Solar unutilgan chehrani birdan.  
«Knyaz, boq, ayt menga, balki, bilarsan,  
Qirmizi beretli xotin kimdir u,  
Ispan elchisi-la gaplashib turgan?»  
Oneginga knyaz tikilar birdan.  
– Ehe! Ko‘pdan beri sen yo‘q eding-ku.  
To‘xta, senga uni tanitish lozim. –  
«Aysang-chi, kimdir u?» – Mening xotinim.–

## XVIII

«Uylandingmi! Bilmas edim ilgari!  
Ko‘p bo‘ldimi?» – Yaqin ikki yil.–  
«Kimga?» – Larinaga. – «Tatyanagami!»  
– Sen unga tanishmi? – «Bizlar qo‘shni, bil».  
Bo‘lmasa, boraylik. – Xotini sari  
Knyaz uni birga olib boradi –  
Onegin do‘stidir, qarindoshdir ham.  
Knyaginya unga qaraydi bir dam...  
Qalbini ezmasin shu choq qancha his,  
Qanchalik hayratga u chulg‘anmasin,  
Shu choqda u qanday mahtal qolmasin,  
Biroq ko‘rinmasdi unda o‘zgarish,  
Unda saqlangandi ayni u siymo,  
Burungiday asl ta‘zimi, hatto.

## XIX

Tatyana seskanish, yoki to'satdan  
Rang o'chish, qizarish nadir bilmadi.  
Turardi labin ham tishlab olmasdan, –  
Hattoki, qoshlari chimirilmadi.  
O'tkir diqqat bilan unga boqsa-da,  
Tatyananing eski izlarin yana  
Seza olmagandi bizning Onegin.  
Uning-la so'zlashish istadi, lekin  
Gapira olmadi. So'rdi Tatyana:  
Ko'pdanmi bunda u, qayerda edi,  
Ehtimolki, ular yurtidan keldi?  
So'ng, horg'in ko'zi-la eriga qiyo  
Qaradi; chekilib ko'zdan yo'qoldi...  
Onegin qaqqayib o'rnida qoldi.

## XX

Bizning romanimiz boshlanishida  
O'shami, u bilan yuzma-yuz turib  
Eng olis, eng pasqam diyor ichida,  
Axloqning xayrli o'tida kuyib,  
Nasihatlarini bir vaqt tinglagan,  
Rostdan ham, bu xonim Tatyanamikan?  
Bunda saqlanadi uning bir xati,  
Bu xat boshdan oyoq qalb hikoyati,  
Hamma gap ayondir, butun sir zohir.  
Bu o'sha qizchami... Yo bu bir ro'yo?  
Benasib umrida bir vaqtlar aslo  
Nazar solmagani u qizcha, hozir  
Shu qadar beparvo, shu qadar jasur  
Tutadi o'zini, juda ajibdir?



## XXI

Tiqilinch yig'inni qoldiradi u,  
Uyiga jo'naydi tolib fikrga;  
Qochgan edi undan hattoki uyqu  
Goh g'amli, goh latif bir xayol ila.  
Uyg'ongan chog'ida xat tutishadi:  
Knyaz N. o'tinch-la taklif qiladi  
Ziyofatga. «Rabbim! Uning uyiga!..  
Boraman, boraman!» – der. Darhol unga  
Nazokatli javob yozib yuborar.  
Nima bo'ldi! Qanday ajib ro'yoda!  
Uning sovuq, tanbal ruhining qora  
O'pqinida birdan ne porlar?  
Hasratmi? Puch xayol? Yangidan yoki  
Yoshlikning tashvishi – muhabbat, balki?

## XXII

Onegin soatga qaraydi har on,  
Kunni kech qilishga sabri yo'q yana.  
Soat o'n uradi, chiqar shu zamon,  
Otni surib ketar; mana ostona,  
Knyaginya oldiga qaltirab birdan  
Kirar, Tatyani yolg'iz ko'rarkan,  
Birga o'tirishar birqancha minut.  
Onegin so'zlamas, qiladi sukut.  
Onegin siqilgan, g'am zo'r siynada.  
Tatyana so'ziga javob qaytarar  
Urinib, zo'r-bazo'r; boshidan uchar  
O'jar fikrlari butun bir gala;  
Onegin tikilib qaraydi: xotin  
O'tirar qarshida bemalol, erkin.

### XXIII

Eri kirib kelib, kesib qo'yadi  
Mana bu noqulay suhbat zahmatin,  
Onegin bilan u yodga oladi  
Kechmish sho'xliklarni, hazillar paytin.  
Ular kulishardi. Kirar mehmonlar.  
O'z aro gaplar ham endi jonlanar  
Kiborlarga maxsus achchig'lik bilan.  
Beka huzurida yarqiraydi shan  
Bema'ni yengil gap – benoz va ko'rkam,  
Yana o'zga suhbat boshlanar, ammo  
Mangu haqiqatlar yarqirar go'yo  
Yuza mavzu'lardan ozod bir olam.  
Erkin bir jonlilik ko'rsatib lekin  
Cho'chitmadi bu gap hech kim qulog'in.

### XXIV

Bu yerda to'plangan poytaxtning guli,  
Moda nusxalari hamda ayonlar,  
Har yerda yo'liqqan zotlar vujudi,  
Umuman kerakli bo'lgan nodonlar;  
Bor edi yoshlari ulug' xonimlar,  
Qalpoqli, gul taqqan, yuzlari zahar,  
Bu yerda bor edi allaqancha qiz,  
Yuzlarida yo'qdir tabassumdan iz.  
Bu yerda bor edi yana bir elchi,  
Davlat ishlaridan faqat lof urar;  
Bunda edi oppoq sochi muattar,  
Burungicha hazil qilgan chol kishi:  
Hazili ma'nodor va nozik g'oyat;  
Bu kun-chun bir qadar kulgili faqat,

## XXV

Kelgandi hajvparast va har narsaga  
Diqqati oshuvchi bir tajang janob:  
Bekaning ko'p shirin choyidan xafa,  
Yengil ayollardan, erlardan xunob.  
Sirli ish haqida g'avg'oga diqqat,  
Opa-singil olgan savg'oga diqqat.  
Jurnallar yolg'oni, urushdan xafa,  
Qordan, xotinidan, turmushdan xafa.

.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....

## XXVI

Bu yerda hozirdi Prolasov degan,  
Olchoq ruhi ila qozongan shuhrat,  
Hamma albomlarda sening xitlangan  
Qalamlaring uchrar, St.-Priest, albat<sup>202</sup>...  
Eshikda o'zga bir bal diktatori –  
Jurnalda bosilgan suratdek turi,  
Bayram farishtasi kabi qip-qizil,  
Qaqqaygan, indamas, harakatsiz – zil;  
Bor edi qo'nimsiz sayohatchi ham,  
Kraxmal yoqalik shilqim – bezori,  
Zeb berib o'ziga, qaddi, siymosi –  
Bilan mehmonlarni kuldirar har dam.  
Ko'zlarning o'zaro imlashi jim-jim,  
Uning uchun edi umumiy hukm.

## XXVII

Mening Oneginim oqshom tamoman  
Mashg'ul bo'lgan edi Tatyana ila,  
Jasoratsiz, nochor ishqqa berilgan  
Bir sodda qiz bilan emas, aksincha  
Band edi shohona, og'ir, serhasham –  
Nevaning daxlsiz ilohasi, ham  
Beparvo, yosh suluv knyaginya bilan.  
Insonlar! Barchangiz o'xshaysiz ekan  
Birinchi onamiz Momo Havoga:  
Sizga nima qismat bo'lsa jalb etmas;  
Ilon chaqiradi sizni har nafas,  
Imlar sirli daraxt, sirli mevaga.  
Man' etilgan meva istaysiz faqat,  
Usiz jannat sizga emasdir jannat.

## XXVIII

Uh, qanday o'zgarib ketmish Tatyana!  
Qanday pishiq kirgan o'z roliga ul!  
Mushkul lavozimning butun qoida,  
Yo'llarini qanday tez etmish qabul!  
Zallarning parvosiz, ko'rkam, ulug'vor  
Bu malikasini ko'rib, u dildor –  
U nafis qizchani kim eslar qani?  
Onegin yoqqandi bir choq qalbini!  
Oneginni eslab qorong'i tunda  
To uyqu kiprigin bosguncha, bir choq  
Qizlarcha chekardi hasrat va firoq.  
Xumor ko'zlarini suzib oydinda,  
U xayol qilardi: Onegin bilan  
Hayotning osoyish yo'lin kechaman!

## XXIX

Sevgiga bo'ysunar hamma – yosh, qari.  
Lekin, yosh va toza qalblarga, bahor  
Yomg'iri qirlarni yashnatgan kabi,  
Ishqning jo'shislari go'zal, xayrkor:  
Sevgi yomg'irida bo'lib toptoza,  
Qalblar yangilana, yetilar rosa,  
Va qudratli hayot bag'ishlar ko'rkam,  
Chiroyli gullar ham, shirin meva ham.  
Yosh ulg'ayib, darmon ketganda lekin,  
Bizning umrimizning burulishida,  
O'lik ehtirosning izi fojia:  
Sovuq kuz faslida bo'ron va yog'in  
Ko'm-ko'k o'tloqlardan botqoq yasaydi,  
Yashil o'rmonlarni yalang'ochlaydi.

## XXX

Hayhot! Shak-shubha yo'q! Yevgeniy bola  
Kabi Tatyana qo'yimish muhabbat;  
Tun-u kun ruhida savdo-yu nola,  
Sevgi dardlariga sho'ng'igan faqat.  
Kuchli afsuslarni tinglamas zehn,  
Uning bo'sag'asin, darcha, dahlizin  
Ziyorat qilishdan to'yimas har kuni;  
Ketidan soyadek quvlardi uni:  
Tatyana kiftiga u ila bilsa  
Yumshoq qunduzini – shoddir Onegin,  
Yo issiq qo'liga tegsa u sekin,  
Yo uning oldida xodim, xodima  
Dastasini yorib yo'l ochar ekan,  
Yoki ro'molchasin ko'tarsa yerdan.

### XXXI

U qancha urunsin, qiynalib o'lsin,  
Payqamagan bo'lar Tatyana uni,  
Qabul qiladi u uyida erkin,  
Ziyofatda ikki-uch so'z etgusi,  
Ba'zan yolg'iz salom ila qarshilar,  
Ba'zan u butunlay sezmagani bo'lar:  
Ishva-noz yo'q edi unda zarracha,  
Bunga toqat qilmas yuksak doira—  
O'chmoqqa boshlaydi Onegin rangi:  
Tatyana yo ko'rmas, yo etmas rahm.  
Onegin qovjirab ketadi, balkim,  
Silmikin mubtalo bo'lgan kasali.  
Hamma unga deydi: doktorlarga bor!  
Doktorlar: «shifobaxsh suvga bormoq darkor!»

### XXXII

Lekin, u jo'namas; u, bobolarga  
Tez kunda uchrashish haqida bir xat  
Yozishga hozirdir; faqat Tatyana  
Parvosiz (bu jinsda yo'qdir marhamat);  
Chekilish istamas, Onegin qaysar,  
Yana umidlanar, yana urinar;  
Sog'dan jasurroqdir kasal esa-da,  
Kuchsiz qo'li bilan u Tatyana  
Bir noma yozadi hislari jo'shqin.  
Garchi bu narsaning ozdir ma'nosi.  
Tegarmikan deydi xatning foydasi.  
Bilindiki, yurak dardi busbutun  
Oneginga endi qilmish g'alaba,  
Mana uning xati nuqta-banuqta.

Oneginning Tatyana ga  
xati

Sezaman oldindan: tahqir etadi  
Alamli sirlarning bayoni sizni.  
Qanday mag'rurona nafrat-la bizni  
Ko'zingiz hukm etib dog'lab ketadi!  
Men nima istayman? Va qaysi g'oya  
Bilan men ruhimni sizga ochaman?  
Va qanday g'azabli sevinch, xandaga,  
Ehtimolki, sabab beraman shundan!

Bir vaqtlar uchrashib men tasodifan,  
Mehr uchqunlarin sizda tuyarkan.  
Lekin ishonishga botinmagandim:  
Yaxshi odatga bo'ysunmadim u kun,  
Bezdirgan erkimni qo'limdan butun  
Yo'qotib qo'yishni xohlamagandim.  
Ayirdi bizlarni yana bir narsa...  
Lenskiy mahv bo'ldi – tolesiz qurbon...  
Jahonda qalbimga nima xush esa  
Undan men qalbimni uzdim shu zamon;  
Hammadan yotsinib, beqayd, beg'ovg'a  
O'ylagan edimki, erkinlik, uzlat  
Baxtning adashidir. Rabbim, na zillat!  
Qanday adashganman, bu qanday jazo!

Siznigina ko'rish har minut sayin,  
Har yerda soyangiz kabi ergashish,  
Lablar tabassumin, ko'zlar chiroyin  
Sevgiga tutilgan ko'zlar-la ilish,  
Sizni uzoq tuyish va ko'ngil ila  
Kamolotingizni anglash, so'ng albat  
Oldingizda qotish, qiynoq ichinda  
Siniqish va so'nish... mana shavq, lazzat!

Men bundan mahrumman: siz uchun faqat  
Har yerda bosh urib surkalanaman,  
Menga har kun qimmat, har soat qimmat:  
Men esa ziqliqda isrof qilaman  
Umrinning sanoqli kunlarin bekor,  
Busiz ham ulardan yuragim bezor.  
Bilaman: hayotim yo‘li o‘lchangan,  
Lekin menim umrim davomi uchun,  
Har tongda ishongan bo‘layki chindan  
Siz-la ko‘rishaman kunduz – shu bugun...

Qo‘rqaman: yolvorish, ojiz nolamda  
Qahrli ko‘zingiz ko‘rajak birdan  
Chirkin bir hiyladan kirdikorgina,–  
Kinli itobingiz ham eshitarman.  
Bir on bilsaydingiz na qadar dahshat,  
Ishqning chanqog‘ida horg‘in dard yutish,  
O‘rtanish va aql bilan har soat  
Qondagi isyonni bosish, tinchitish;  
Yana tizingizni quchish armoni,  
Sizning oyoqlarda ho‘ngrab yig‘lamoq,  
E’tirof, nadomat, o‘tinch, nidoni,  
Nima aytaolsam – barchasin demoq,  
Holbuki, men vazmin, yasama bir tur  
Berib so‘zimga ham, ko‘zlarimga ham,  
Sokin suhbatlashish va sizga har dam  
Shod bo‘lib qarashga bo‘lamen majbur!

Taqdirim shu ekan o‘z-o‘zimga man  
Qarshi turish uchun yo‘q menda mador,  
Gap tamom: men taslim, bizda ixtiyor,  
Men endi beraman taqdirimga tan.



### XXXIII

Javob yo‘q. Yozadi yangi nomalar:  
Ikkinchi, uchinchi xatlariga ham –  
Javob kelmaydi hech. Onegin borar  
Bir kuni yig‘inga; qo‘yarkan qadam  
Uchrashar Tatyana. Yuzda g‘azabi!  
Unga og‘iz ochmas, ko‘rmagan kabi;  
Uh! Qahraton qishning sovug‘i bilan  
Tatyana shu choqda qandayin to‘lgan!  
O‘shshaygan lablari g‘azablarini  
Qanday tutib qolish ila ovora,  
Onegin tikildi – bormi deb chora:  
Parishonlik qani, dardkashlik qani?  
Qani ko‘zyosh dog‘i?.. Ular yo‘q, hech yo‘q!  
Uning yuzlarida g‘azab izi, do‘q...

### XXXIV

Ehtimol, sirli ish qo‘rquvi bordir:  
Sho‘xlik, tasodifiy zaiflik bilan  
Onegin ma‘lum yana qancha sir,  
Er yoki jamoat bilmasin degan...  
Umid yo‘q! Onegin bundan jo‘naydi,  
O‘z tentakligin endi qarg‘aydi –  
Lekin yana chuqur botadi dardga,  
Dunyodan yuzini o‘girur chetga.  
Jimjit kabinetda o‘tirgan zamon  
Xotirga kelgandi o‘tmish davr ilk:  
U vaqtdagi zolim xafagazaklik  
Qaynagan hayotdan haydab beomon,  
Yoqasidan tutib bo‘g‘gandi mahkam,  
Qorong‘i burchakka qamagandi ham.

### XXXV

Yana o'qiy boshlar qo'lga na tushsa,  
O'qib chiqdi Gibbon<sup>203</sup> Russo, Manzoni,<sup>204</sup>  
Gerderni,<sup>205</sup> Shamforni,<sup>206</sup> Bishani,<sup>207</sup> yana.  
Madame de Stayol<sup>208</sup> bilan Tissoni,<sup>209</sup>  
O'qib chiqqan edi u shakkok Belni<sup>210</sup>  
O'qib chiqqan edi u Fortenelni,<sup>211</sup>  
Bizdan ham o'qidi ba'zi birlarin,  
Hech bir narsani rad etmas Onegin:  
O'qir almanaxlar, jurnallarni ham,  
Bular yo'l-yo'riqlar uqtirishadi,  
Bugun meni ular xo'p so'kishadi.<sup>212</sup>  
Ba'zan uchratardim o'z haqimda ham,  
Afandilar, shunday madhiyalarni:  
E sempre bene<sup>213</sup> o'taylik, mayli.

### XXXVI

Nima chiqdi? Yolg'iz o'qidi ko'zi,  
Lekin fikrlari uchardi uzoq;  
Uning xayollari, orzu, qayg'usi  
Ruhiga, ko'ngliga berardi qiynoq.  
Bosma satrlarning oralaridan  
O'qirdi ma'naviy ko'zlari bilan  
Boshqa satrlarni. Bular tamoman  
Onegin dilini qilgan edi band.  
Bular esa qalbga yoqimli, faqat, –  
O'tmishdan fusunkor hikoyalardi,  
Beparvo va erkin tush-soyalardi,  
Tahdidlar, ta'birlar, fol va karomat,  
Yo ertakning po'chak hangomalari  
Yoki bir yosh qizning ishqnomalari.

### XXXVII

Hislar ham, o'ylar ham ohistagina  
Madorsizlanardi, mudrardi yengil.  
Uning ko'z oldida xayol bir lahza  
Manzarasin yoyib tashlardi xil-xil.  
Goh ko'rar: erigan qorda cho'zilib,  
Qimir etmay yotar bir yigit tinib,  
Tosh qotib uxlaydi, eshitar yo'ldan:  
Bir tovush chiqadi: Xo'sh, nima? O'lgan!  
Goh ko'rinar eski dushmanlar bir on,  
Bo'htonchilar ila razil qo'rzoqlar,  
Bir gala bevafo jononlar o'tar,  
Va chirkin o'rtoqlar – bir guruh yomon!  
Goh bir qishloqcha uy – deraza yonida  
O'tiradi bir qiz... u har vaqt unda!

### XXXVIII

Parishonlikka u shunday o'rgandi,  
Ketayozgan edi aql, hushidan,  
Yo shoir bo'lishga yetib qolgandi.  
E'tirof qilaylik: bu edi monand!  
To'g'risi: magnetik bir quvvat ila<sup>214</sup>  
Ruscha she'rlarning tuzilishiga  
Tutinayozgandi u zamon kam-kam  
Menim bu fahmsiz nodon talabam.  
Shoirlarga u o'xshar edi naqadar,  
Burchakka qisilgan chog'ida yakka,  
Oldida kaminda yongach alanga,  
«Ilohiy parimsan» yoki «Ey dilbar»  
Deya ming'irlab u, tuffisin, goho  
Jurnalni pechkada kuydirar bejo.

## XXXIX

Kunlar g'iz-g'iz uchar; havo musaffo,  
Qish ham tushib borar o'zin taftidan;  
Shoir bo'lmadi Onegin aslo,  
Na o'ldi u va na ozdi aqldan.  
Ko'klam jon kirgizar unga: ilk daf'a  
Onegin tashlaydi tonggi pallada  
Har vaqt yopiq turgan o'z maskanini,  
Bunda qishlagandi ko'r sichqon kabi,  
Qo'shaloq darchani, pechni tark qilar,  
Neva bo'ylab endi chopar chanada.  
Ko'kimtir va kesik muz parchalarda  
Quyosh ham o'ynaydi. Yumshab qolgan qor  
Ko'chalarda pilch-pilch eriydi sekin,  
Bulardan yo'l bosib qayga Onegin –

## XL

Zo'r berib chopadi? Siz oldindanoq,  
Topdingiz qayerga; xuddi shunday ham:  
Tatyana uyiga keladi shu choq,  
Xulqi tuzalmagan u eski telbam.  
Uyga tomon yurdi, o'xshar murdaga,  
Dahlizda ko'rinmas edi kimsa-da.  
Zalga kiradi u; yuriydi nari:  
Hech kim yo'q. Eshikni ochadi. Qalbi  
Nimaga bu qadar hayratda titrar?  
Knyaginya edi qarshida yolg'iz.  
Hali kiyinmagan, chehrasi rangsiz,  
Qandaydir maktubni o'qib o'ltirar,  
Qo'li chekkasida, egilgan boshi,  
Ko'zidan oqardi daryodek yoshi.

## XLI

Oh, uning bu tilsiz dard, iztirobin  
Kim naq shu lahzada fahmlamaydi!  
Hozir knyaginaxonim siymosin –  
Eski Tatyana kim tanimaydi!  
Telba achinishlar hasrati ila  
Yiqildi Yevgeniy uning tiziga;  
Tatyana seskandi; sukut qiladi;  
Oneginga shu on ko'zni tikadi,  
Lekin yuzlarida na hayrat, na kin...  
Oneginning xasta, so'nik nigohi,  
Yolvorgan holati, tilsiz itobi,  
Hammasi ma'lumdi. Sodda qiz tag'in  
Kechmish kunlar qalbi, xayoli ila  
Hozir Tatyana qilgandi jilva.

## XLII

Oneginni yerdan ko'tarmas Tanya  
Va undan ko'zlarin ayirmaydi ham  
O'zining sezgisiz qo'llarin yana –  
U chanqoq lablardan uzmaydi bir dam...  
Hozir u nimani xayol suradi?..  
Uzoq vaqt sukutda jimib turadi,  
Nihoyat, Tatyana der sekingina:  
«Bas, yetar, turingiz, men endi sizga  
Dardim ochiq bayon etishim lozim.  
Onegin, u soat esingizdami?  
Bog'da, xiyobonda u zamon bizni  
Taqdir uchrashtirdi; ojizona, jim  
Tingladim, siz menga berdingiz saboq?  
Endi menga navbat kelmishdir bu choq.

### XLIII

«Onegin, u chog'lar yosh edim ancha,  
Go'zalroq ham edim shekilli u choq.  
Men sizni sevardim; qani natija?  
Qalbingizdan nima topdim men biroq?  
Qanday javob oldim? Faqatgina qahr  
Yuvosh, sodda qizning sevgisi axir  
Siz uchun yangilik emasdi lekin?  
Qonimni qoplaydi – yohu!– izg'irin  
Yolg'iz esga tushsa u sovuq boqish,  
Va'zingiz... Lekin men sizga albatta,  
Biron ayb taqmayman: mudhish soatda  
Qalbingiz ko'p oliyjanoblik qilmish,  
Siz haqli edingiz menga nisbatan.  
Tashakkur qilaman butun qalbidan...

### XLIV

«U choqlar, ma'nosiz shov-shuvdan uzoq  
Bir chetda yoqmagan edim sizga man,  
Bu to'g'ri emasmi?.. Bugun siz biroq  
Ketimdan yurasiz, bilmadim nedan?  
Nechun men bir nishon bo'ldim siz uchun?  
Sababi: men yuksak olamda bugun  
Ko'rinish beraman, men endi kibor?  
Men endi davlatmand va erim dongdor,  
Janglarda gavdasi bo'lgan yarador,  
Buning uchun bizni erkalar saroy?<sup>215</sup>  
Shuning-chun xohlaysiz sharmanda bo'lay,  
Hammaning oldida bo'lib sharmisor?  
Yana jamiyatda keltirsin bu gap  
Siz uchun maqtov-u va yorqin sharaf?

## XLV

«Yig'layman... Agar siz Tatyangizni  
Unutmabsiz ekan shu choqqa qadar,  
Eslarsiz u sovuq so'zlargizni,  
Qilgandingiz ta'na va haqoratlar...  
Ammo men u mahal bu xat, bu ishqni  
Barchasidan a'lo ko'rardim, koshki  
Qo'limdan kelsaydi mening bu narsa,  
Mening yosh xayolim uchun agarda  
Sezgan bo'lsangizdi u vaqt bir shafqat,  
Yoki qilsangizdi yoshga ehtirom...  
Bugun-chi! – Sizni ne keltirdi tamom  
Oyog'im ostiga? Bu qanday zillat?  
Shunday qalb, aqlga ega bir odam  
Mayda hislarga qul bo'lar shuncha ham?

## XLVI

«Men uchun, Onegin, ushbu dabdaba –  
Bir sovuq hayotning yiltiroq to'ni,  
Kibor olamida ko'rgan g'alaba  
Dang'illagan uyim, ziyofat, to'yi, –  
Nima bor bularda? Men esa hozir,  
Jon deb alishardim butun shu zohir  
Ziynatni qiy-chuvni, bo'g'iq havoni  
Bir necha kitobga, jo'n boqqa, ya'ni  
Bizning faqirona eski xonaga,  
U maskanlargaki, sizni, Onegin,  
Ko'rgandim birinchi daf'a... Va sokin  
U qabristongakim, unda bechora  
Mening enagamning ustida hozir  
Bir but va daraxtlar soyasi bordir...

## XLVII

«Baxtga ochilgandi ajoyib imkon,  
U shuncha yaqin-di... Taqdirim ammo  
Endi hal bo'lgandir. Balki u zamon  
Harakat qilganman o'ylamay aslo:  
Ko'z yoshlarin to'kib, yolvorib ona  
So'zladi bechora bu Tatyana;  
Barcha ko'rguliklar menga bir edi...  
Erga tegdim. Endi tinch qo'ying meni,  
Tamom unutingiz, so'zim qat'iy chin;  
Qalbingizda bordir – bu menga ayon –  
Ham g'urur, ham asl quvvatli vijdon,  
Men sizni sevaman (ayyorlik nechun?)  
Lekin men o'zganing yoriman ortiq;  
Men unga abadiy qolurman sodiq».

## XLVIII

Tatyana nariga ketgandi. Chaqmoq  
Boshidan urgandek Onegin turar,  
U qanday sezgilar bo'roniga naq  
Butun qalbi bilan duch kelgan, titrar  
Lekin, jarangladi shpor nogahon,  
Tatyananing yeri ko'rindi shu on.  
O'quvchi, shu yerda qahramonimni  
Qoldiraylik endi uzoq, abadiy,  
Unga ko'p alamli bir daqiqada..  
U bilan bir yo'ldan kezib barobar,  
Jahonda ancha vaqt yurdik darbadar.  
Endi sog'-salomat yetib sohilga  
Bir-birimizni qutlaymiz. Urra!  
Zotan, fursat ko'pdan kelgandiku-ya!



## XLIX

Ey, mening o'quvchim, kim bo'lma, mayli,  
Do'stmi, do'st emasmi, bugun men sendan  
Ayrilmoq istayman bir oshno kabi.  
Kechirgil. Bu yerda mendan keyin san  
Nima qidirmagil bu qit'alarda,  
Mayli, bir isyonkor, qizg'in xotira,  
Mehnat – mashaqqatdan orommi goho,  
Jonli lavhalarimi, o'tkir so'zmi yo,  
Grammatik jihatdan ba'zi xatolar,  
O'quvchim, qidirib shu kitobchada,  
Ermak, o'yin, xayol, yurak uchun-da  
Va jurnal g'avg'osi uchun san agar  
Tariqcha topolsang – Tangriga shukur  
Shu bilan ayrilib qolamiz, kechir.

## L

Alvido, e mening ajib hamrohim,  
Senga ham, ey sodiq g'oyaiy-amal,  
Senga ham alvido jonli va doim  
Birga bo'lgan mehnat. Siz-la, bildim bemalol  
Shoir havas qilgan ne bor, hammasin:  
Dunyo bo'ronida hayot g'avg'osin –  
Unutish, do'stlar-la lazzatli suhbat...  
Yosh Tatyana bilan Onegin shu vaqt  
Olis hamda xira tushda-ro'yoda  
Birinchi martaba ko'ringan ondan,  
Bu erkin romanning poyonini man  
Hali oyinayi jahonnamoda  
Ravshan ajratmagan choqlardan buyon  
Ko'p kunlar uchdilar, o'tdi ko'p zamon.

## LI

Men ilk parchalarni ulfatda inoq  
O'qirkan, tinglagan yoronlar qani...  
Ba'zilar endi yo'q, o'zgalar yiroq,<sup>216</sup>  
Bir zamonlar Sa'diy<sup>217</sup> degani kabi,  
Onegin tasviri bitdi ularsiz.  
U qani, qani u oliyjanob qiz –  
Tatyananing go'zal, dilbar xayoli...  
Oh, falak ko'plarni, ko'plarni oldi!  
May to'la qadahni tagigacha shan  
Sipqormay, hayotning bazmini erta –  
Tark etib ketganlar va oxirgacha  
Hayot romanini o'qimay, undan,  
Men Oneginimdan ayrilgan kabi,  
Birdan ayrilganlar, albatta, baxtli.



## «YEVGENIY ONEGIN» GA PUSHKINNING IZOHLARI

(<sup>1</sup>) Bessarabiyada yozilgan.

(<sup>2</sup>) Dandy – olifta, frant.

(<sup>3</sup>) a'la Bolivar deyilgan shlapa.

(<sup>4</sup>) Chayld Garoldga sazovor bo'lgan sovigan his belgisi. Didloning baletlari jonli, favqulodda nafosat bilan to'ladir. Bizning romantik yozuvchilarimizdan biri ularda butun fransuz adabiyotidan ko'proq poeziya ko'rgan edi.

(<sup>5</sup>) Tout le monde sut qu'il mettait du blans; et moi, quin'en croyais rien, je commensai de le croire, non seulement par l'embellissement de son teint, et pour avoir trouve des tasses de blanc sur sa toilette, mais sur ce qu'entrant un matin dans sa chambre, je le trouvoi brossant ses onglesaves une petite vergette faite expres, ouvrage qu'il continua fierement devant moi. Je jugeai qu'un homme qui passe deux heures tous les matins a brosser ses ongles peut b en passer quelques instants a remplir de blanc les creux de sa peau. (*Confessions de J.J. Rousseau*).<sup>1</sup> Grim o'z asridan oldin ketgan: butun madaniy Yevropada tirnoqni maxsus kichkina cho'tka bilan tozalaydilar.

(<sup>6</sup>) Butun shu kinoyali strofa (band) bizning go'zal vatandosh xonim qizlarimizga nozik madhdan boshqa narsa emas. Masalan, itob pardasi ostida Bualo, Lyudovik XIV ni maqtaidi. Bizning xonimlarimiz

---

<sup>1</sup> Tarjimasi – uning oq moy bo'yoq ishlatishini hamma bilar edi; men dastlab bu narsaga ishonmadim, lekin keyincha ishona boshladim. Ishonchimga sabab – uning yuzlarining rangi yaxshilanganidan emas, pardo stolida oq moy bo'yoq bankachalari borligidan emas, bir kun ertalab men uning uyiga kirgach, uni o'z tirnoqlarini maxsus tirnoq cho'tka bilan silliqlab-tozalab turgan holda ham ko'rdim va mening huzurimda ham u viqor bilan o'z mashg'ulotini davom ettirdi. Men muhokama qildimki, har kun ertalab tirnoqlarini tozalash uchun ikki soat vaqt sarf etgan kishi, terisidagi g'adir-budurlarini oq moy bo'yoq bilan to'ldirish uchun bir qancha minutni ayamasligi mumkin. (*Jan Jak Russo*.)

lutfikorlik ila, axloqiy tozalikni Stal xonimni shu qadar maftun etgan shu sharq nafasati bilan birlashtiradilar. (*Dix ans d'exil.*)

(7) Gnedich idilliyasidagi Peterburg kechasining go'zal tavsifini o'quvchilar xotirlaydilar.

«Mana kecha; lekin bulutlarning oltin qatlamlari so'nmaydi.  
Uzoqliklar porlaydi – na-oy bor, va na yulduz.  
Uzoqdan ko'rinadi moviy samoda suzgan kabi  
Kemalarning kumush chodirlari ham.  
Kecha samosi tiniq shu'lalar bilan porlar.  
Quyosh botarkan, uning shu'lalari sharqning oltiniga qo'shilar;  
Go'yoki sahar o'z ketidan olib chiqadi  
Gulgun tongni. Oltin bir yil edi, kechaning  
Hokimligin yoz kunlari qanday bosadi.  
Chetdan kelgan kishilarni qanday asir qiladi,  
Sihrlil ko'lkalar ila totli nurlar porlashi.  
Hechvaqt kunduz samosi bunday bezangan emas;  
Bu tiniqlik o'xshaydi shimol qizi husniga,  
Bir qizki ko'zlari moviy, yuzlari qizil,  
Jim tovlanadi oltin kokillar mavji.  
U vaqt Neva, hashamatli Petropol ustida  
Ko'radilar ko'lkasiz tunlarni, tez uchgan kechalarni.  
U chog' Filomel yarim kecha qo'shiqlarin bitirar ekan,  
Bosh ko'targan kunduzni olqishlab kuy boshlaydi.  
Lekin, vaqt kechdi; Neva bo'ylarida toza salqinlik;  
Shabnam tushdi...  
Mana qoq yarim kecha: oqshom minglab eshkaklar-la qaynagan  
Neva tebranmaydi; shaharli mehmonlar tarqaldi.  
Sohilda na bir sas, na to'lqin, hammayoq jimjit,  
Yolg'iz ko'priklardan gumburlagan un  
Suv ustidan uchib o'tadi.  
Yolg'iz cho'ziq hayqiriq uzoq qishloqdan eshitaladi,  
Unda posbonlar kechaga hayqirar.  
Harnarsa uxlaydi .....

(She'ning mazmuni berildi. *Tarjimon*).

- (8) Lutfikor ilohani chinakam  
Ko'radi hayajonli shoir,  
Granit – toshlarga suyanib  
Uyqusiz kechani o'tkazadir,

(*Muravyev. Neva ilohasi*)

(She'ning mazmuni berildi. *Tarjimon*).

(9) Odessada yozilgan.

(10) «Yevgeniy Onegin»ning birinchi nashriga qaralsin.

(11) «Dnepr rusalkasi»ning birinchi qismidan.

(12) Shirin sadoli yunon ismlari, masalan: Agofon, Filat, Fedor, Feklo va hokazo, bizda faqat oddiy xalq orasida qo'llaniladi.

(13) Grandison ham Lovlas – ikki yaxshi romanning qahramonlari.

(14) Agar menda baxtga ishonish telbaligi bo'lsa edi, men uni odatda qidirar edim. (*Shatobrian*.)

(15) Bechora Iorik! Qiziqchining bosh suyagiga qarab Gamletning qilgan xitobi.

(16) Ilgarigi bosmasida *uyga uchadir*, o'rniga xato o'laroq *qishda uchadilar*, deb bosilgan ediki, bu narsaning hech qanday ma'nosi yo'qdir. Buni tanqidchilar tushunolmay, so'nggi strofalarda anaxronizm ko'rganlar. Romanimizda zamon kalendar bo'yicha hisoblangan deb ishontiramiz.

(17) Yuliya Volmar – Yangi Eloiza, Malek-Adel, M-me Kottin romanining qahramoni. Gustav-de-Linar, baronessa Kryudner yozgan go'zal romanning qahramoni.

(18) Vampir, Lord Bayronga yanglish nisbat berilgan qissa, Melmot, Matyurining dohiyona asari. Je an Sbogeg – Karl Nodyening mashhur romani.

(19) Bu yerga kiruvchilar, har qanday umidni tashlangiz. – Dantening «Ilohiy komediyasidan» Tavozi'li muharrir go'zal she'ning faqat yarmisinigina tarjima qilgan.

(20) Bir zamonlar marhum A. Izmaylov tomonidan ancha tartibsiz ravishda nashr etilgan jurnal, Noshirning o'zi ham bir vaqt, bayramda o'ynab qolibman, deb matbuotda xalqdan uzr so'ragan.

(21) E. A. Baratinskiy.

(22) Aslzoda oyim qizlarni qizchalar deb aytilgan ekan, qanday qilib cho'rilarni (dehqon qizlarni) qiz deyish mumkin, deb jurnallarda ajablanganlar.

(<sup>23</sup>) Tanqidchilarimizdan biri: «bu narsa bolalar konkida o‘ynaydilar, demakdir» dedi. Haqli.

(<sup>24</sup>)           Go‘zal choqlarimda menim,  
                  Shoirona Ai  
                  Sho‘x ko‘piklari ila,  
                  Yoqar edi u menga,  
                  Xuddi muhabbat kabi,  
                  Yo telba yoshlik singari.

(*L. P. ga noma*)

(<sup>25</sup>) Avgust Lafonten – bir ko‘p oilaviy romanlarning muallifidir.

(<sup>26</sup>) Knyaz Vyazemskiyning *Birinchi qor* degan she‘riga qarang.

(<sup>27</sup>) Baratinskiy she‘ridagi Finlyandiya kishisining tasviriga qarang.

(<sup>28</sup>)           Erkak mushuk urg‘ochisini  
                  Pechkada uxlashga chaqiradi.

Bu, to‘ydan xabar beradi. Birinchi qo‘shiq esa o‘limdan darak beradi.

(<sup>29</sup>) Shunday qilib bo‘lajak kuyovning ismini biladilar.

(<sup>30</sup>) *Xlop, molv, top* degan so‘zlarni kelishmagan yangilik deb jurnallarda mazammot qilgandilar. Bu so‘zlar nuqul, chinakam ruscha so‘zlardir.

(<sup>31</sup>) Tanqidchilarimizdan biri bu she‘rlarda bizga anglashilmaydigan bir hayosizlik ko‘rganga o‘xshaydi.

(<sup>32</sup>) Fol kitoblari bizda Martin Zadek firmasi ostida nashr etiladi; V. N. Fedorovning aytishicha, bu muhtaram zot hech vaqt fol kitoblari yozmagan.

(<sup>33</sup>) Lomonosovning mashhur misralariga parodiya:

Shafaq gulgun qo‘li bilan  
tonggi sokin suvlardan  
Quyosh ila ergashtirib chiqadi, va hokazo.

(<sup>34</sup>) Buyanov, mening qo‘shnim,

.....

Kecha yonimga keldi, mo'ylovlari qirilmagan,  
Sochlari paxmoq, parga ag'nagan, vahimali shapka kiygan...

(Xavfli qo'shni)

(<sup>35</sup>) Latif jinsning sodiq muxlisleri bo'lgan bizning tanqidchilarimiz  
bu she'rning axloqqa yo'yilmaganligini qattiq tanqid qildilar.

(<sup>36</sup>) Parij restoranchisi.

(<sup>37</sup>) Griboyedov she'ri.

(<sup>38</sup>) Birinchi bosmada oltinchi bob tubandagicha tamomlangan edi:

Sen esa, sen ham yoshgina ilhom,  
Mening xayolimni to'lqinlat mudom.  
Sust-mudroq qalbimni sen jonlantirgil,  
Maskanimga tez-tez sen uchib kelgil,  
Shoir ruhi uchun aslo qo'yma yo'l  
Sovushga, qurishga, yovvoyilanishga,  
Eng so'ngra tosh kabi qotib qolishga,  
Kibor hayotning o'ldiradigan  
Zavq-safosi ichra ruhsiz takabbur,  
Yaltiroq-hashamatli ahmoqlar ichra.

(<sup>39</sup>) Levshin, xo'jalikka oid bir ko'p asarlarning muallifidir.

(<sup>40</sup>) Bizning yo'llarimiz – ko'zlarga bog'cha:  
Daraxtlar, chimlangan do'mboqlar, zovurlar,  
Yumush ko'p, shon-shuhrat ham ko'p.  
Afsuski ba'zida o'tishga yo'l yo'q.  
Posbon kabi turgan daraxtlarning  
O'tkinchilarga kamdir foydasi;  
Yo'lni juda yaxshi deysan,—  
Bir she'r eslaysan: *qatnovchilar uchun*;  
Rus yo'li erkindir faqat ikki holda:  
Bizning Odam Ato, yo Momo Havo –  
Qish g'azabidan charsillab,  
Qahr bilan yurish qilganda,  
Yo'lni muz cho'yan ila qoplab,  
Yumshoq par bilan o'rab

Izin bekitsa ilk qor.  
Yoki dalalarni qizg'in quruqchilik  
Bosarki, u vaqtda halqobdan  
Pashsha ham ko'zini qisib o'ta oladi.

*(Stans, Knyaz Vyazemskiy.)*

(Bu she'rning faqat mazmuni berildi.)

(<sup>41</sup>) Bu o'xshatish, o'zining o'ynoqi xayoli bilan mashhur bo'lgan K.dan olingan. K. bir vaqt Potyomkindan imperiatritsaga chopar bo'lib yuborilganda, u shunday tez borganki, aravadan osilib qolgan qilichi har bir chaqirim masofada qoqilgan ustunlarga shaqildoq bo'lib urilgan.







## IZOHLAR

<sup>1</sup> Epigrafning tarjiması:

«U maqtanchoqlik bilan sug'orilib, bundan tashqari, alohida mag'rurlikka ham ega ediki, bu narsa bir turli beparvolik bilan xoh yaxshi, xoh yomon fe'l-harakatni, balki bir xayoliy ravishda bo'lgan afzallik tuyg'usini e'tirof qilishga majbur etadi».

(*Xususiy maktubdan*).

<sup>2</sup> Bu muqaddima (kirish) shoir tomonidan Pletnyovga bag'ishlangan. Pyotr Aleksandrovich Pletnyov (1792–1865) bir muncha vaqt Peterburg universitetining rektori bo'lib turgan. Bu kishi adib, shoir, tanqidchi bo'lib, Pushkinning yigirma yillik yaqin do'stidir. Pushkin surgunda yurgan zamonlarda Pletnyov uning adabiyotga oid topshirmalarini bajarib turardi. Pushkin she'rlarining nashriga tegishli ishlarini olib borardi. Pushkin o'z xatlarining birida Pletnyov menga «ham qarindosh, ham do'st, ham noshir, ham kassir» deydi va shuning uchun unga bag'ishlangan kirishda, do'stlik iltifotini qayd etib o'tadi.

<sup>3</sup> Vyazemskiy (1792–1878) – shoir, tanqidchi; Pushkinning do'sti, Pushkinning bir ko'p she'rlari Vyazemskiy bilan aloqador. «Yevgeniy Onegin» da ham u bir qancha martaba xotirlanadi.

<sup>4</sup> *Zevs irodasi bilan* – Ollohning irodasi bilan demakdir (Zevs – qadimgi yunonlarning e'tiqodicha, Xudolar orasida eng qudratlisidir).

<sup>5</sup> Lyudmila va Ruslan – Pushkinning «Ruslan va Lyudmila» nomli poemasi bor, shuni o'quvchining xotiriga solinadi.

<sup>6</sup> *Lekin zararlidir shimol men uchun* – Pushkin siyosiy she'rlari uchun Peterburgdan janubga surgun qilingan edi. «Yevgeniy Onegin»ning birinchi bobi 1823-yilda janubda yozilgan. Bu misrada shoir o'zining surgun qilinganligiga ishorat qiladi. Rim raqamlari bilan Pushkinning uqtirishlari ko'rsatilgan.

<sup>7</sup> *Bal* – eski vaqtda yuqori tabaqa orasida juda rasm bo'lgan va umumiy raqslar, musiqa, ziyofat bilan o'tkaziladigan o'ltirish – bazm.

<sup>8</sup> Madamte (fransuzcha) – bu yerda fransuz xotin, murabbiya ma'nosidadir.

<sup>9</sup> *Monsiuer* (fransuzcha) – bu yerda murabbiy, muallim ma’nosidadir. XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida Rossiyada dvoryan oilalari ajnabiylarni, shu jumladan ko’pincha fransuzlarni o’z bolalariga murabbiy, muallim qilib belgilar edilar.

<sup>10</sup> *Dandy* (inglizcha) – olifta; yuksak dvoryan jamoatiga mansub odamlarning butun axloq va muomala qoidalariga muvofiq tarbiyalangan odam.

<sup>11</sup> *Mazurka* – Yevropacha raqslardan biri.

<sup>12</sup> *Pedant* – quruq, ong-fikri chegaralari tor, mayda-chuydaga moyil, kasb etgan axloq va odatlarga qattiq rioya qiluvchi odam.

<sup>13</sup> *Lotin tili* – o’rta asrda, qisman yangi zamonda yevropada adabiy, ilmiy bir til sifatida hukm surgan (qadimgi rimliklar tili).

<sup>14</sup> *VaIe* (lotincha) – xayr, salom, salomat bo’l demakdir.

<sup>15</sup> *Luvinal, Detsi oni luvinal* (42–122) mashhur rim satirigi – hajv yozuvchisi; bu kishi o’z davrida aqcha egasi bo’lgan aslzodalarning ochko’zligi, sotqinligi, zolim va axloqsizligini asarlarda qattiq tanqid qilgan. Pushkin bu yozuvchini juda sevar edi. Uning hajviy asarlarini tarjima qilishga ham bir vaqt kirishgan edi.

<sup>16</sup> *Eneida* – o’n ikki qo’shiqdan iborat bo’lgan va rumo shoiri Virgili tomonidan yozilgan lotin poemasi nomi. Eneida – rumo adabiyotining eng atoqli asarlaridan biri. Bu asar maktablarda o’qitilib tekshirtiriladi.

<sup>17</sup> *Romul* – Rim shahrini ta’sis etgan afsonaviy shaxs. Romulning tug’ilishi va hayoti afsonalarda xayoliy, mavhum tafsilotlar bilan bezatilgan.

<sup>18</sup> Xorey, yamb – rus poemasi ikki asosiy she’r vazni.

<sup>19</sup> Gomer – bizning tarixdan taxminan 1000 yil ilgari yashagan qadim yunon shoiri. «Odisseya» hamda «Iliada» nomli ikki buyuk she’riy asarni shu shoirga nisbat beradilar. Bu asarlarda qadim yunonlarning Troya urushi haqidagi xalq ertaklari badiiy aks etgan. Feokrit – bizning tarixdan III asr ilgari o’tgan qadim yunon shoiri va faylasufi, juda uzoq o’tmishda cho’ponlarning baxtli va g’amsiz turmushini tasvirlagan cho’pon she’r oqimining namoyandasi.

<sup>20</sup> *Adam Smit* (1722–1790) – ingliz iqtisodchi olimlaridan, siyosiy iqtisodda «Klassik maktab»ni quruvchilardan biri. Smit o’zining mashhur asari «Xalqlarning boyligi» da tashqi va ichki savdoning sarbast bo’lishligini, xo’jalik faoliyatini to’sib turgan har xil to’siqlarning yo’qotilishi kerakligini ilgari suradi. Bu yerda Pushkin

Adam Smit ta'limotini ko'rsatadi. Uning ta'limoticha, mamlakatning boyligi aqchada emas, balki mehnatda, ishlab chiqarilgan tovarlar, iste'mol buyumlarining ko'pligidadir.

<sup>21</sup> *Nazon* – qadimgi rim shoiri; ishqiy she'rlar, poemalar yozgan. Ishqiy she'rlari uchun imperator Avgust tomonidan Rimdan Qora dengiz qirg'og'iga haydalgan va shu surgunda o'lgan. Pushkin bu shoirni juda sevar edi. Janubda yashagan vaqtda Nazonning tarjimai holi va ijodini o'rganishga tirishgan.

<sup>22</sup> *Foblas* – shu ismda bo'lgan romanning qahramoni. Bu roman fransuz yozuvchisi De-Kuvre (XVIII asr) tomonidan yozilgan. Foblas mojaro, sarguzasht qidiruvchi buzuqi odam tipi.

<sup>23</sup> *Bolivar* – silindr formal, chetlari keng shlapaning nomi (Janubiy Amerika siyosiy xodimi Bulivarning ismiga nisbatan berilgan).

<sup>24</sup> *Kaverin* – yosh Pushkinning do'sti, ofitser. Poytaxt dvoryan muhitida bu kishi o'zining beboshvoq, jo'shqin hayoti bilan tanilgan.

<sup>25</sup> *Roast-beef* (inglizcha) go'shtdan maxsus ravishda qovurilib pishiriladigan ovqat.

<sup>26</sup> *Fedra* – fransuz dramaturgi Rasin (1639–1699) pyesasining qahramoni. *Kleopatra* – qadimgi zamonda Misrda podshohlik qilgan go'zal xotin. Bir ko'p pyesalarning qahramoni. Bu yerda Pushkin mashhur fransuz adibi Volter (1694–1778) ning asarini ko'zda tutadi. *Moina* – tanilgan yozuvchi Ozerovning «Fignal» nomli tragediyasining qahramoni. Pushkin davrida bu rolni Kolosova degan aktrisa yaxshi o'ynardi.

<sup>27</sup> *Fonvizin D. I.* (1745–1792) – mashhur rus dramaturgi. «Brigadir» va «Nedorosl» nomli mashhur komediyalarni yozgan. Bu asarlarda Fonvizin viloyatlardagi aslzodalarning johilligi, qo'polligi, yoshlarni tarbiya qilishdagi ahmoqlikni va ezilgan dehqonlarga yirtqichlarcha munosabatni tanqid qiladi. «Erk do'sti» deyishning sababi shundaki, Fonvizin ba'zi asarlarida liberal siyosiy qarashlarni ilgari suradi.

<sup>28</sup> *Knyajin* (1742–1791) – yozuvchi, dramaturg; bir necha tragediyalar va dramalar yozgan. G'arbiy Yevropa dramaturgiya namunalariga ergashib, ularning sujetini taqlid qilib yozgani uchun Pushkin uni taqlidchi degan sifat bilan ataydi.

<sup>29</sup> *Ozerov V. A.* (1770–1816) – dramaturg, bir qator tragediyalar («Dmitriy Donskoy», «Fignal» va boshqalar) yozgan. Bular shakl jihatdan soxta klassik, mazmun jihatidan vatanparvar asarlar bo'lgan. Uning asarlari o'sha vaqtda katta muvaffaqiyat qozongan. Chunki

Napoleon urushlari munosabati bilan dvoryanlarning vatanparvarlik hislarini qo'zg'atar edi.

<sup>30</sup> *Semyonova E. S.* (1780–1849)– o'sha vaqtda mashhur rus aktrisasi. Tragediyalarda o'ynar edi. O'z o'yini bilan xalqqa kuchli ta'sir qilardi. Bir vaqtlarda Pushkinda shu aktrisasi qiziqish boshlangandi.

<sup>31</sup> *Kornel* (1606–1684) – fransuz klassik tragediyasining quruvchilaridan biri. Kornelning tragediyalarida voqealarning harakati qahramonlik xarakteriga ega. Dialoglar keskin va otashin bo'lib, ishtirok qiluvchi shaxslarning temperamenti ham jo'shqin bo'lar edi.

<sup>32</sup> *Katenin P. A.* (1792–1853) – Pushkin davrida shoir, tanqidchi va dramaturg, bu kishi fransuz dramaturglaridan Kornel va Rasinning asarlarini ruschaga tarjima qilib shuhrat topgan.

<sup>33</sup> *Shaxovskiy A. A.* (1777–1846) – Pushkin davrining dramaturglaridan. Juda ko'p komediya va dramalar yozgan, ularning ko'p qismini ajnabiy yozuvchilarning asarlarini tarjima va o'zgartma tashkil qilgan. Imperator teatrlarining repertuar bo'limiga boshliq bo'lgani uchun unga shu asarlarini sahnaga qo'yish oson bo'lgan. Shu asarlarni qo'yib, ayrim yozuvchilarga, (Karamzin, Jukovskiy va boshqalar) qarshi fitna qo'zg'agan. Pushkinning «suronli gala», «dag'al Shaxovskiy» degan so'zlari shunga ishorat qiladi.

<sup>34</sup> *Didlo* – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida atoqli baletmeyster, eski baletni isloh qilgan (qo'yish va kastum jihatidan). Didlo postanovkalari favqulodda muvaffaqiyat qozonardi.

<sup>35</sup> *Terpsixora* – qadim greklarning e'tiqodicha, raqsning ilohiy himoyachisi.

<sup>36</sup> *Lornet* – dastakli va ochilib-yopiladigan maxsus durbin.

<sup>37</sup> *Istomina A. A.* (1799–1846) – Pushkin davrida Peterburgning mashhur balet aktrisasi.

<sup>38</sup> *Eol* – qadim grek e'tiqodicha shamol Xudosi.

<sup>39</sup> *Russo Jan-Jak* (1712–1778) – XVIII asrning eng buyuk adib va mutafakkirlaridan. Russoning ta'limoti insonning «tabiiy» huquqlarini tasdiq etishdan iboratdir. Russo madaniyat va ma'lumot – tahsil orqasida buzilgan hislarning erkin o'suvi kerakligini, «tabiat tovushiga» quloq solish lozimligini gapirdi.

<sup>40</sup> «*Grim Fridrix Melxiar* (1723–1807) – fransuz yozuvchisi va Russoning do'stidir.

<sup>41</sup> *Chaadayev P. Ya.* (1796–1856) – rus adibi, filosof, Pushkinning yaqin do'sti. Pushkin bunga bir qancha she'rlar bag'ishlagan edi.

Chaadayev yoshlikda ofitser bo'lib, dekabristlarga mansub edi. Dekabristlar qo'zg'olonidan so'ng reaksiya davrida mashhur «Falsafiy maktub»ni yozadi, bunda butun rus madaniyatiga keskin hukm chiqaradi. Rus davlat qurilishini tanqid qilgani uchun bu maktubni bosgan jurnal podshoh buyrug'i bilan yopilgan, muharriri surgun etilgan va Chaadayev jinni deb e'lon qilingan. Chaadayev yuksak dvoryan muhitida bekam-u ko'st kiyinadigan, zohiriga juda ko'p diqqat qiladigan kishi sifatida ham mashhur edi.

<sup>42</sup> *Venera* – qadim rimliklar e'tiqodicha ishq va go'zallik Xudosi.

<sup>43</sup> Anjumanni donish – akademiya – 1806–1821-yillarda fanlar akademiyasi tomonidan rus tili lug'ati tuzilib nashr etilgan.

<sup>44</sup> *Kareta* – maxsus usti berk arava.

<sup>45</sup> *Suvori zobit* – o'tliq armiya ofitseri.

<sup>46</sup> *Diana* – qadim grek e'tiqodicha oy, o'rmon va ovchilik Xudosi.

<sup>47</sup> *Flora* – qadim rumolilarda bahor va gullar ilohasi.

<sup>48</sup> *Elvina* – bu yerda shartli ism.

<sup>49</sup> *Kamin* – maxsus pechka.

<sup>50</sup> *Chayld Garold* – mashhur ingliz shoiri Bayronning shu nomli poemasining qahramoni. Yuqori aslzodalar muhitida yetishgan, pari-shonhol, bo'sh – bekorchi, hayotning noz-ne'matidan ortiq to'ygan, bezgan, har yerda (qayg'u chekadigan, har yerda har nimadan zerikadigan yosh aristokrat yigit obrazi.

<sup>51</sup> *Boston* – karta o'yini.

<sup>52</sup> *Sey, Bentam* – Sey – fransuz iqtisodchisi (1767–1832). Bentam – ingliz filosofi va siyosiy muharrirlaridan (1748–1832).

<sup>53</sup> *Millionnaya* – Peterburgda bir ko'chaning nomi.

<sup>54</sup> *Torkvatto Tasso* – mashhur italyan shoiri. 8 misradan iborat she'rlar – oktavalar bilan «Qutqazilgan Quddus» asarini yozgan. Bu asarni Pushkin juda yaxshi ko'rardi.

<sup>55</sup> *Brenta* – Adriyatik dengiziga quyuluvchi Italiyada bir nahr.

<sup>56</sup> *Petrarka* – XIV asr italyan shoiri. Bu shoir ishqiy she'rlari bilan shuhrat topgan. Uning she'rlari shakl va til jihatidan kamolga yetgan namunalardir. Albion – Angliya; Apollon nabiralari – shoirlar demakdir.

<sup>57</sup> Pushkin surgunda yurganda azob chekib, bir vaqt chet ellarga qochmoqchi ham bo'lgan. Bu yerda shunga ishorat qiladi.

<sup>58</sup> *Bayron Jorj Noel Gardon* (1788–1824) – mashhur ingliz shoiri, kambag'allashgan aristokrat oilada tug'ilgan. Bayron asarlarining

qahramonlari uchun xarakterli narsa – atrofni o‘ragan jamiyatga nafrat qilish, undan norozi bo‘lish, jamiyat qonunlari, odatlaridan jirkanish, turmushdan bezish, muhitdan yuqori turadigan «kuchli shaxsiyat»ga topinishdir. Faqat, Bayron umrining oxirida Gretsiyaning milliy ozodlik olish uchun kurashida ishtirok etgan choqda uning ijodida hayot shodligi ko‘rina boshlaydi. Bayron butun Yevropada ta‘sir ko‘rsatgan katta adabiy harakatning boshlovchisidir.

<sup>59</sup> *Muza* – poeziya, shoirning ilhomi (muza grek so‘zi; san‘atning ilohiy himoyachilari muza atalar edi).

<sup>60</sup> *Salgir* – Qrimda bir nahr.

<sup>61</sup> *Senzura* – matbuot ustidan hukumat nazorati. Pushkin davrida senzura juda qattiq edi, hukumatning o‘zboshimchaligiga, zulmiga qarshi qaratilgan har qanday fikrni, hatto eng oqil imoni ham bo‘g‘ar edi. Senzura dastidan Pushkin ham ancha qiynalgan edi.

<sup>62</sup> Pushkin bunda tovush jihatidan o‘xshaydigan so‘zlardan foydalanib «so‘z o‘yini» yasaydi: O rus – (lotincha) ey qishloqi! demakdir. O Rus! – ey rus! – demakdir.

<sup>63</sup> *Driadalar* – qadim grek afsonasida o‘rmon parilari.

<sup>64</sup> *Barshchina* – krepostnoy pravo davrida pomeschik xo‘jaligida dehqonlar gardaniga tushgan majburiy mehnat (pomeschik foydasiga).

<sup>65</sup> *Obrok* – pomeschiklarning dehqonlardan oqcha yoki hosilot shaklida oladigan mablag‘lari.

<sup>66</sup> *Qul* – bu yerda dehqon.

<sup>67</sup> *Farmazon* – (frank-mason)ning buzilgani. Bu yerda hurfikrli, bid‘atchi ma‘nosida.

<sup>68</sup> Ya‘ni, qishloq aholisi Oneginni adabsizlik, nazokatsizlikda ayblaydi.

<sup>69</sup> *Kant* – nemis idealist faylasufi (1724–1804).

<sup>70</sup> Biz hammamiz o‘zimiz uchungina muvaffaqiyat va shuhrat qidiramiz, demakdir. (Napoleon – 1769–1824 – noma‘lum bir ofitser bo‘lib, keyinchalik fransuzlarning imperatori darajasiga ko‘tarilgan mashhur qo‘mondondir).

<sup>71</sup> *Shimol dostonlari* – go‘yo qadim zamonda yashagan afsonaviy Shotlandiya shoiri Ossiangaga taqlidan yozilgan qo‘shiqlar nazarda tutiladi. Ruscha qilingan tarjimasida katta muvaffaqiyatga ega bo‘lgan.

<sup>72</sup> «*Shop Mo‘ylov*» – askarlar, harbiylar demakdir. Podshoh hukumati – birinchi Nikolay davrida, harbiylar uchun soqolni qirib, faqat mo‘ylov qo‘yishni buyurilgan edi.

<sup>73</sup> Jamiyatining yuqori qismida «Tatyana» ismi u vaqtlarda oz qo‘llanilardi. Romanlarda esa ishtirok etuvchi shaxslarning yuqori, tanlangan tabaqaga mansub bo‘lishi qoida edi.

<sup>74</sup> *Richardson* (1689–1761) – ingliz yozuvchisi. Sentimental xarakterdagi «oilaviy» romanlar janrining otasi. Bir necha romanlari bor: «Pomello», «Klorisa garlov», «Grandison». Qahramonlari g‘ayri-tabiiy bir fazilatga, axloqqa ega bo‘lgan bu romanlar bir vaqt Rossiyada ko‘p tarqalgan edi.

<sup>75</sup> *Grandison, Lovlas* – Richardson romanlarining qahramonlari, Grandison – XVIII asr yuqori tabaqa axloqining timsoli bo‘lgan fazilatkor qahramon. Lovlas – axloqsiz, fahshga botgan odam obrazi.

<sup>76</sup> *Armiya serjanti* – harbiy unvon, unter ofitser.

<sup>77</sup> *Pomeshchiklar o‘z qo‘l ostlarida bo‘lgan dehqonlarni askarlikka jo‘natish huquqiga ega edilar. Askarlikka beriladigan yigitlarning sochlarini qirqar edilar. Soch qirg‘ish* – askarlikka jo‘natish demakdir.

<sup>78</sup> *Bema‘ni, suyuq, lekin hissiy tizmalar yozish, bu yerda istehzoli ma‘no bor. Albom* – har xil she‘rlar, xotiralar, qiziq iboralar yoziladigan daftar, eski vaqtda Rossiyada juda rasm bo‘lib ketgan edi.

<sup>79</sup> *Praskovya* – aslzodalar tushunchasiga «oddiy», «qora avom» ismi. Shuning uchun bu ism yaxshiroq deb bilingan «Polina» ismi ila almashtiriladi.

<sup>80</sup> *Korset* – xotinlarning belini ingichka qilib ko‘rsatadigan maxsus kiyim.

<sup>81</sup> *Maslennitsa* – ruslarning diniy bayrami.

<sup>82</sup> U vaqtlarda dvoryan oilalarida mehmonlarga ovqat mansab tartibi bilan tortilar edi.

<sup>83</sup> *Brigadir* – eski vaqtlarda polkovnik bilan general mansabi orasida bo‘lgan harbiy mansab.

<sup>84</sup> *Poor Iorick* (inglizcha) – bechora Iorik! demakdir. Bu ifoda ingliz dramaturgi Shekspirning (1564–1616) «Gamlet» nomli pyesasidan.

<sup>85</sup> *Ochakov medali* – 1787–1791-yillarda bo‘lgan rus-turk urushi vaqtida Ochakov degan turk qal‘asi olinganda berilgan medal.

<sup>86</sup> «*U qiz edi, u sevgan edi*» – fransuz shoiri Molfilatr.

<sup>87</sup> *Ekloga* – qishloq hayotiga doir eski she‘rlar.

<sup>88</sup> *Fillida* – qadim grek eklogalaridagi qahramon qiz ismi (bu yerda qishloq go‘zali ma‘nosida).

<sup>89</sup> *Svetlana* – mashhur rus shoiri va tarjimoni Jukovskiyning (1783–1852) shu nomdagi she‘rining qahramoni. Svetlana hassos xayolchi, romantik ruhli qiz obrazi.

<sup>90</sup> *Vondeka Madonnasiday* – Gollandiya rassomi Vondeka (1599–1611) yasagan Mar'yamning (italyanchasi Madonna) surati.

<sup>90</sup> *Malek-Adel* – XVIII asr fransuz adibasi Kottenning mojarosarguzasht romanining qahramoni.

<sup>91</sup> *De-Linar* – Baronessa Kryudner tomonidan yozilgan «Valeriya» nomli romanning qahramoni. Bu asarda bir yosh yigitning erli kibor xotinga bo'lgan ishq tarixi tasvir etiladi.

<sup>92</sup> *Verter* – Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» degan romanining qahramoni. Bu asarda baxtsiz sevgi orqasida o'zini o'ldirgan yosh yigitning dramatik kechinmalari tasvir etiladi, roman o'sha zamonda o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatgan, o'z-o'zini o'ldirish (intihor) larni ko'paytgan.

<sup>93</sup> *Klarisa* – Klarissa Gorlov – Richardson romanining qahramoni.

<sup>94</sup> *Yuliya* – Yuliya Volmar ko'zda tutiladi (yuqoriga qarang).

<sup>95</sup> *Delfina* – fransuz adibasi D. Stalning (1766–1817) shu nomdagi romanining qahramoni.

<sup>97</sup> Iltifot qo'rqmoqda romanda ham shar – «shar» yomonlik demakdir. Bu yerda Pushkin XVIII asrdagi «axloqiy» romanlar o'rnini olgan yangi tipdagi romanlarni xarakterlaydi.

<sup>98</sup> *Vampir* – ingliz yozuvchisi D. Poledorning shu nomdagi romanining qahramoni.

<sup>99</sup> *Melnot* – ingliz yozuvchisi Matyurin (1782–1824) ning «Melnot sayoq» degan asarining qahramoni.

<sup>100</sup> *Abadiy juhud* – o'rta asr ertaklarining qahramoni.

<sup>101</sup> *Korsar* – Bayronning shu nomdagi poemasi qahramoni. (Korsar – dengiz qaroqchisi demakdir).

<sup>102</sup> *Sbogar* – fransuz yozuvchisi Node (1780–1844) ning «Jan sbogar» nomli romanining qahramoni.

<sup>103</sup> Bu ifoda italyan shoiri Dante (1236–1321) ning «Ilohiy komeidiya» nomli asaridan olingan (Pushkinning uqtirishlariga qarang). Bu asarda Dante jannat va do'zax manzaralarini tasvirlaydi.

<sup>104</sup> *Sarig' ro'mol o'ragan seminarist* – diniy maktabda o'qiydigan talaba seminarist ataladi, seminariya atalgan bu maktablarga tarbiya diniy taassub bilan sug'orilgan bo'lar edi. Bu misrada soxta, o'zini olim ko'rsatadigan xotinlar masxara qilinadi.

<sup>105</sup> Bunda ham olimnamo xotin masxara qilinadi.

<sup>106</sup> *Galitsizmlar* – fransuz tilidan olingan so'zlar, ifodalar.

<sup>107</sup> *Bogdanovich E. F.* (1743–1803) – rus shoiri, «Dushenka» nomli poemasi bor.



<sup>108</sup> *Parni* (1753–1814) fransuz shoiri, ishqiy sheʼrlar muallifi. Buning sheʼrlari oʻynoqi, nafis edi. Shoir zavq-safoni tarannum qilardi.

<sup>109</sup> *Freyshits* – nemis kompozitori Verdining (1786–1826) operasi.

<sup>110</sup> «Axloq narsalarning tabiatidadir» Neker.

<sup>111</sup> I. II. III. IV. V. VI. – bu strofalar va bundan boshqa yana bir koʻp strofalar baʼzi sabablarga koʻra Pushkin tomonidan tushirilib qoldirilgan.

<sup>112</sup> XVIII asrda dvoryanlar orasida pariklar – sunʼiy sochlar qoʻyish erkaklarga ham, xotinlarga ham rasm edi.

<sup>113</sup> *Vist* – Qarta oʻyini.

<sup>114</sup> *Gimenez* – qadim grek afsonasida nikoh-uylanish Xudosi.

<sup>115</sup> *Shatobrian F. R.* (1768–1848) – fransuz yozuvchisi, romantik. Oʻz asarlarida teskarichi diniy ideologiyani oʻtkazgan. Shatobrianning «Tabiat manzaralari» degan sheʼrlari yuksak badiiy mumtoziyatga molik boʻlib, tabiatni juda aniq va toʻgʻri tasvirlaydi. Pushkin bu yerda axloqi-taʼlimiy romanlarni masxara qiladi.

<sup>116</sup> «Piyoda» va «rux» – shaxmat oʻyinida figuralar.

<sup>117</sup> *Kiprida* – qadim grek ishq Xudosining nomi.

<sup>118</sup> Fransuzcha iboraning tarjimasini: Bu varaqlarga siz nima yozasiz.

<sup>119</sup> *T. a. u. Annette* (Fransuzcha) – sizga ixlosmand Annetta.

<sup>120</sup> Albomga chizilgan lavhalar. Mashʼal – u vaqtlarda yolqinli muhabbat belgisi hisoblanardi.

<sup>121</sup> *Nozim* – tizmachi. Bu yerda bemaʼni sheʼr toʻquvchidan kulinadi.

<sup>122</sup> Yazikov N. M. (1803–1841) – mashhur shoir, Pushkinning arsdoshi va yaqin doʻsti.

<sup>123</sup> Tragediya, komediya, satira kabi adabiy navlarning shartli oʻlaroq koʻrsatilishi.

<sup>124</sup> *Qasida* – «Oda», rus adabiyotida XVIII asrda paydo boʻldi. Qasida podshohlarga, zafarlarga, saroy hayotiga doir, yoki qanday boʻlmasin diniy-falsafiy mavzularda «yuqori» tantanali uslub bilan yoziladigan sheʼr. Oda – qasida XVIII asr aristokrat adabiyoti uchun xarakterlidir. Lekin XVIII asr oxirida oz tumtaroqli boʻlgan sheʼr formalari (elegiya) bilan almashina boshlaydi. XIX asr boshlarida qasida tarafdorlari bilan «eskilik» tarafdorlari – qasidachilar orasida tortishuvlar boshlandi. Pushkin mana shu tortishuvlarga katta qiziqish koʻrsatgan; shu strofada va bundan keyingida Pushkin shunga ishorat qiladi.

<sup>125</sup> *Satirik* – hajviy-satirik asarlar yozuvchi. Bu yerda Ye. Ye. Dmitrov degan yozuvchi haqida so‘z boradi. Bu yozuvchi XIX asr boshida juda ko‘p hajviy asarlar, masallar, ertaklar yozgan. «Begona ma‘no» degan satirasida mukofot olmoq uchun a‘yon, takabburlarni maqtaydigan qasidachilarni Dmitrov masxara qiladi.

<sup>126</sup> Ya‘ni XVIII (qasida hukm surgan davr) va XIX asr (yangi adabiy oqimlar) orasidagi kurash.

<sup>127</sup> *Qari enaga* – Pushkinning enagasi Arina Radionovna. Pushkinni xalq tili, xalq ijodi – ertaklar bilan tanishtirishda katta rol o‘ynagan. Pushkin Mixaylovskiyda surgunda yurganda enagasining og‘zidan ko‘p ertaklarni yozib olib, keyincha ulardan foydalangan. Pushkin ko‘p she‘rlarida o‘z enagasini xotirlaydi.

<sup>128</sup> *Gulnor shoiri* – Bayron. (Gulnar – Bayron asarlaridan birining qahramoni).

<sup>129</sup> Gellespont? bo‘g‘ozini bir vaqt Bayron suzib o‘tgan edi (bu yerda hazil: Onegin cho‘miladigan anhorni Dardanel deb kuladi).

<sup>130</sup> Predt (1759–1837) – fransuz siyosiy xodimi va adibi.

<sup>131</sup> V. Scott – Valter Skott (1771–1831) ingliz yozuvchisi. O‘rta asr feodalizm turmushidan olinib yozgan tarixiy romanlari bor.

<sup>132</sup> *Shampanskiy vinolarning markalari* (firmalarning nomlari).

<sup>133</sup> *Epokrena* – shoirona ilhom (epokrena qadim yunonlarning afsonasiga ko‘ra qanotli ot – Pegasning tuyog‘i zarbidan ochilgan buloq bo‘lib, ajoyib bir xossaga ega bo‘lgan emish; bu buloqdan kimki ichsa, u she‘r bilan so‘zlar emish. Bu buloq Apollonga bag‘ishlangan).

<sup>134</sup> *Bordo* – fransuz qizil vinosi.

<sup>135</sup> Ai – fransuz shampanskiy vinosining bir navi.

<sup>136</sup> Ism qo‘yilgan kunni xotirlab ziyofat berish.

<sup>137</sup> *Jukovskiy* – rus shoiri va tarjimoni. (Ilgari izohat berilgan.).

<sup>138</sup> *Oddiy tabiatni bular aks etar* – bu yerda Pushkin II strofani ko‘zda tutadi. Bunda dvoryan adabiyoti uchun g‘alati, oddiy bo‘lib ko‘ringan figuralar; tasvirlar kiritilgan: chetan aravada dehqonning ketishi, uning oriq oti, chana tortib yurgan oddiy dehqon bolasi va hokazo. Eski dvoryan adabiyoti nuqtayi nazaridan bunday narsalar oddiy, «past tabiat» edi. Bunday tasvirlarda nafosat ko‘rmas edilar. Pushkin go‘zallikni shunday tor anglovchilarga piching qiladi. So‘ngra Pushkin Vyazemskiyning «Birinchi qor» nomli bezakli, «nozik» she‘riga ham ishorat qiladi.

<sup>139</sup> Bu yerda turli fol ochish va ayrim krim haqida so‘z boradi.

<sup>140</sup> Bu strofada ham fol ochish tasvir etiladi. Ilgari qizlar bayram arafasida kechasi oyga oyna tutib qarab, o'tkinchining otini so'rab, o'z baxtlarini sinashga, kelajakda kuyovlarining ismlarini bilmoqqa tirishar edilar.

<sup>141</sup> Tonggi shafaq. (Qadim grek e'tiqodicha, shafaq – tong Xudosi).

<sup>142</sup> *Seneka* – (milodning I asrida) Rim filosofi va adibi.

<sup>143</sup> *Xonimlarning moda jurnali* – Shalikov tomonidan 1823-yildan 1833-yilga qadar chiqarilgan «Xonim jurnali» dir.

<sup>144</sup> *Xaldey donishmandlar ahlining piri* – qadim bobillilarda folchilarning, yulduzlar harakatiga suyanib, kelajakni tayin qilishga intilganlarning boshlig'i.

<sup>145</sup> *Malvina* – fransuz adibasi Kattenning romani.

<sup>146</sup> *Pyotr noma* – Petryada – A. N. Gruzinsevning Petr birinchi haqidagi poemasi.

<sup>147</sup> *Marmontel* (1723–1791) – fransuz yozuvchisi.

<sup>148</sup> *Buyanov* – Pushkinning amakisi tomonidan yozilgan «Xavfli qo'shni» nomli hajviy asarning qahramonidir. Qovoqxonada yurib bor-yo'g'ini sovurgan shalaq pomeschik tipidir.

<sup>149</sup> Fransuzcha jumlaning tarjimasi: uyg'oning, uxlab yotgan jonon.

<sup>150</sup> *Belle Nina* – go'zal Nina demak.

<sup>151</sup> *Belle Tatjana* – go'zal Tatyana.

<sup>152</sup> *Blan-Manje* – shirin demak.

<sup>153</sup> *Simlyanskiy* – qizil sharob.

<sup>154</sup> *Zizi* – Pushkin surgun qilingan Mixaylovskiyga yaqin Trigoriskiy qishlog'ida yashovchi pomeschik xotin Osipovaning qizi Yevpraksiya Vulf nazarga olinadi. Vulf Pushkinga ko'ngil qo'ygan edi. Pushkin unga o'zining ikki she'rini bag'ishlagan.

<sup>155</sup> Karta o'yini uchun maxsus stollar.

<sup>156</sup> *Boston, lomber* – karta o'yinlari.

<sup>157</sup> Qadim grek shoiri (yuqorida izoh berilgan) Buning «Iliada» va «Odissiya»sida ziyofatlar mufassal tasvir qilinadi.

<sup>158</sup> Paris – qadim yunon afsonalariga ko'ra juda kelishgan, chiroyli qahramondir. Troya podshohining xotinini olib qochgan: Mana shundan Troya urushlari boshlangan emish: Parisning ismi erkak go'zalligini timsol qiladi.

<sup>159</sup> *Alban* – mashhur Italiya rassomi:

<sup>160</sup> *Vals* – yevropacha raqslardan biri.

<sup>161</sup> Kunlari tumanli va qisqa bo'lgan joyda bir nasl tug'iladiki, uning uchun o'lish og'ir, iztirobli emish (Petrarka).

<sup>162</sup> Zaretskiy – Pushkin Zaretskiy obrazida «Amerikali» deb atalgan Fedor Tolstoy ko'rsatgan bo'lsa kerak, deydilar. F.Ye.Tolstoy (1782–1846) yoshligida gvardiya ofitseri bo'lib, o'sha vaqtning ko'p yozuchilari bilan, shu jumladan Pushkin bilan ham yaqin tanish edi. Bu kishi beboshvoq, janjalchi, duelchi, g'irrom, kartaboz bo'lib, Aliut orollarida va Kamchatkada («Amerikali» laqabi shundan) xayolga sig'mas sarguzashtlari bilan shuhratlangan edi.

<sup>163</sup> *Regul* – qadim Rumoda siyosiy xodim va qo'mondon. Rivoyatga ko'ra, rumo manfaatiga xiyonat qilishdan halok bo'lishni afzal ko'rgan.

<sup>164</sup> *Duel* – g'arbda feodal-dvoryan jamiyatida paydo bo'lib, u yerdan Rossiyaga ham o'tgan bir odat. Kishini tahqir etgan, izzat-nafsigaga tekkan kimsa duelga chaqiriladi, qo'lda qurol ushlagan holda har ikki tomon bir-biriga otishadi. Duelda ma'lum shartlar va rasmiyatlarga rioya qilinadi. Eski zamonlarda duel dvoryan muhitida juda keng tarqalgan odat bo'lib, «nomus» haqida dvoryan tushunchasi ila bog'langandir.

<sup>165</sup> *Klavikord* – musiqa asbobi.

<sup>166</sup> *Delvig A. A.* (1798–1831) – shoir va Pushkinning do'sti.

<sup>167</sup> *Ideal* – intilish nuqtasi, g'oya yoki namuna bo'ladigan shaklda tasavvur qilingan yuksak mukammallik demakdir. Romantik shoirlar tili uchun xarakterli bir so'z.

<sup>168</sup> *Sekundant* – duelda hozir bo'lib turuvchi guvoh (har ikki tomonning sekundanti bo'ladi).

<sup>169</sup> *Shartnoma* – sekundantlar birgalashib oldindan duel qoidalarini, shartlarini belgilab oladilar, ikki dushman orasidagi masofa qancha va necha marta otishlari kerak va hokazo to'g'risida.

<sup>170</sup> Qadim xalqlarda Xudoga qurbon qilinadigan hayvonlarni shu mehrobda – maxsus tosh ustida yondirar, yo so'yar edilar. Mehrobda har vaqt olov yonib turar edi. Bu yerda esa shoir o'ldi, yolqinli ilhomi so'ndi ma'nosida.

<sup>171</sup> Griboyedov A. S. – «Aqllilik balosi» nomli mashhur asarning muallifi.

<sup>172</sup> Epikur – butun shaxsiy orzularni ta'minlashga asoslangan ruhiy tinchlik, zavqlanish katta ne'matdir, degan grek faylasufi.

<sup>173</sup> Napoleonning cho'yandan ishlangan byusti.

<sup>174</sup> *Gyaur, Juan* – Bayron asarlarining qahramonlari.

<sup>175</sup> Bayron qahramoni Chayld Garoldga (yuqorida izoh berilgan) taqlid qilgan ma'nosida.

<sup>176</sup> *Gusar* – podshoh qo‘shinida maxsus qism.

<sup>177</sup> Aravaga ko‘proq ot qo‘shganda oldindagi otlarni boshqarib yuruvchi kucher.

<sup>178</sup> *Qishloq sikloplari* – qishloq temirchilari demakdir (sikloplar – qadim yunon afsonasiga ko‘ra – temirchi Xudo Gefestning yordamchilari – bir ko‘zli dev maxluqlar).

<sup>179</sup> Avtomedonlar – mohir kucherlar (avtomedon – Gomer poemasi «Iliada» qahramoni bo‘lgan Axillesning do‘sti va kucheridir).

<sup>180</sup> *Moskva tayyorladi bir yong‘in...* – 1812-yil urushida Moskvada bo‘lgan yong‘inni aytmoqchi.

<sup>181</sup> *Buxorolilar* – Moskvaga ipak mollar va boshqa sharq buyumlarini olib kelib sotadigan – umuman sharq savdogarlarini buxorolilar deb atalar edi.

<sup>182</sup> Semyon ko‘chasida, degan ma‘noda.

<sup>183</sup> Moskvadagi ingliz klubi. Boy va eski dvoryan tabaqasining namoyandalari bu klubga a‘zo bo‘lar edilar.

<sup>184</sup> Arxiv yigitlari – tashqi ishlar ministrligining arxivida xizmat qiladigan yuqori tabaqa yoshlari nazarda tutiladi.

<sup>185</sup> Melpomena – qadim grek afsonasiga ko‘ra tragediya va teatrning ilohiy himoyachisi.

<sup>186</sup> Taliya – qadim yunon afsonasida komediya va teatrning ilohiy himoyachisi.

<sup>187</sup> Dvoryan majlisi; (ballar) maskaradlar bo‘ladigan joy.

<sup>188</sup> Bu yerda Pushkin klassik jarayon (XVIII asr) shoirlarini masxara qiladi, ular o‘z poemalarini yaknasaq, sovuq, sun‘iy, tumtaroqli muqaddima bilan boshlar edilar. Klassitsizmga salom berdim: kinoya, istehzo.

<sup>189</sup> «Baxtli bo‘! Agar biz abadiy ayrilajak esak, abadiy alvido!» – Bayron.

<sup>190</sup> Litsey – dvoryan bolalari uchun maxsus o‘quv yurti. Bu yerda Pushkin 1811-yildan 1817-yilgacha o‘qigan Sarskoye Selodagi litsey nazarda tutiladi.

<sup>191</sup> Sitseron – mashhur rim notiqi, siyosiy xodimi va adibi.

<sup>192</sup> Apuley – Rim adibi (miloddan ikki asr avval); turli mojarolar, sarguzashtlar va ishqi tasvirlarni o‘z ichiga olgan «Oltin eshak» nomli asarning muallifi.

<sup>193</sup> *Derjavin G. R.* (1742–1816) – mashhur rus shoiri. XIX asr boshida rus she‘rining ulug‘ namoyandasi bo‘lib shuhrat qozongan.

Pushkin 1815-yilda litseyda bo'lgan imtihon vaqtida Derjavin huzurida o'z she'rini o'qib bergan va bu she'r Derjavinga ta'sir qilgan, shoir bu yerda Derjavin tomonidan taqdir etilganligini ishorat qiladi.

<sup>194</sup> *Lenora* – Jukovskiy tarjima etgan ballada qahramoni.

<sup>195</sup> *Melmot* – «Melmot – sayoq» haqida yuqorida izoh berildi.

<sup>196</sup> *Kosmopolit* – butun dunyoni o'z vatani deb bilgan, ma'lum bir millatga o'zini mansub hisoblamagan odam.

<sup>197</sup> «*Mening Demonim*» – Pushkinning she'ri.

<sup>198</sup> *Chatskiy* – Griboyedovning «Aqlilik balosi» nomli satirik komediyasining qahramoni. Chatskiy uch yil chet ellarda kezib, Moskvaga kelgan kuniyoq bal ustidan chiqqan.

<sup>199</sup> *Du Cotte il fout* (fransuzcha) yuksak jamiyatda qabul etilgan odob, nazokat namunasi.

<sup>200</sup> *Shishkov* – rus tiliga ajnabiy so'zlarning kirishiga dushman bo'lgan adib.

<sup>201</sup> *Vulgar* – (inglizcha) – avomga maxsus, qo'pol, dag'al demakdir.

<sup>202</sup> *St – Priest* – Sep Piri – o'sha vaqtning mashhur karikaturchisi.

<sup>203</sup> *Gibbon* – (1737–1794) – ingliz tarixchisi.

<sup>204</sup> Manzoni A. (1764–1873) – italyan shoiri.

<sup>205</sup> Gerder L. (1744–1803) – nemis faylasufi va shoiri, xalq ijodiga oid asarlarni to'plagan.

<sup>206</sup> Shamfor (1744–1794) – fransuz siyosiy muharriri. XVIII asr fransuz revolyutsiyasi arafasida va revolyutsiya yillarida Fransiya hayotini, maishatini aks ettirgan maqolalari va aforizmlari bilan mashhurdir.

<sup>207</sup> Bish M. (1771–1802) – fransuz doktori, Inson anatomiyasi (tashrix)ga oid kitobi bor.

<sup>208</sup> *Madame de Staël* – bu yozuvchi haqida izoh yuqorida berilgan.

<sup>209</sup> *Tisso S.* – fransuz doktori, meditsinaga oid tushunarli – yengil asarlar muharriri.

<sup>210</sup> *Bel P.* (1747–1806) – fransuz adibi va mutafakkiri. Katolik butxonasi dushmani bo'lib, butxona xurofotlariga qarshi kurashgan. Dunyoni anglash metodi sifatida hayotga shubha-shak bilan qarash kerakligini ilgari surgan.

<sup>211</sup> *Fontenel* – XVIII asr fransuz faylasufi va adibi. Diniy shubhachilikni tashviq etgan.

<sup>212</sup> Bir ko'p jurnallar va almanaxlarda Pushkin ijodini qattiq tanqid etgan maqolalar chiqqan edi. Shoir shunga ishorat qiladi.

<sup>213</sup> *E sempre Bene* – (italyancha) nima bo'lar edi, ko'p a'lo, demakdir.

<sup>214</sup> *Magnetizm* – bu yerda ta’sir va talqin kuchi yoki gipnotizm ma’nosidadir.

<sup>215</sup> *Saroy* – bu yerda podshohning yaqinlari, yuksak aristokrat guruh ma’nosida.

<sup>216</sup> Pushkin o‘z romanining «ilk qit’alarini» o‘qib bergan do‘stlaridan ko‘pi, roman tamom bo‘lgan vaqtda, Sibirda surgunda edilar. Dekabristlar qo‘zg‘olonida ishtirok qilib, surgunga ketgan do‘stlarini Pushkin bu yerda xotirlaydi.

<sup>217</sup> XIII asrda o‘tgan mashhur Eron shoiri Shayx Sa’diydir.





## MUNDARIJA

Birinchi bob .....	4
Ikkinchi bob .....	31
Uchinchi bob.....	51
To'rtinchi bob.....	75
Beshinchi bob.....	97
Oltinchi bob .....	118
Yettinchi bob .....	140
Sakkizinchi bob.....	166



*Adabiy-badiiy nashr*

**ADABIYOT XRESTOMATIYASI**

**A. S. PUSHKIN**

**YEVGENIY ONEGIN**

*She'riy roman*

43-jild

G'oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*

Muharrir *Sanjar Tursunov*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*  
Texnik muharrir *Xosiyat Xasanova*  
Musahhah *Zulfiya Tadjiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *Bobur Tuxtarov*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 04.11.2016.  
2018-yil 6-sentabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ . Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 11,34 shartli bosma toboq.

8,67 nashr tobog'i. Adadi 3000 nusxa. 512 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent.Labzak ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

[www.gglit.uz](http://www.gglit.uz)

[info@gglit.uz](mailto:info@gglit.uz)

**KITOB – AQL CHIROG'I!**

## **G'AFUR G'ULOM**

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Siz aziz o'quvchilar uchun **44** ta kitobdan  
iborat

**ADABIYOT**

**XRESTOMATIYASI**

seriyasini taqdim etadi.

Endi Siz ushbu seriya ostida nashr  
etilgan kitoblar orqali 5–9-sinf darsliklariga  
kiritilgan barcha adiblarning asarlarini to'liq  
shaklda o'qishingiz mumkin.



ISBN 978-9943-5211-4-8



9 789943 521148